O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda azaldan ilm-ma'rifatga alohida e'tibor qaratilib kelganligini guvohi bo'lamiz. O'sha davrlarda jamiyatda ilm-fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga qo'shgan hissasi barchamizni birdek faxru-g'ururimizga sabab bo'lib kelmoqda.

Barchamizga tarixdan yaxshi ma'lumki, diyorimizdagi birinchi Renessans davri - Somoniylar davriga to'g'ri kelib, ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi bo'ldi. Renessansning ikkinchi davri esa – Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o'lkalari o'z taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tariladi.

Prezidentimiz, "Biz o'z oldimizga mamlakatimizda Uchinchi Renessans poydevorini barpo etishdek ulug' maqsadni qo'ygan ekanmiz, buning uchun yangi Xorazmiylar, Beruniylar, Ibn Sinolar, Ulug'beklar, Navoiy va Boburlarni tarbiyalab beradigan muhit va sharoitlarni yaratishimiz kerak. Bunda, avvalo, ta'lim va tarbiyani rivojlantirish, sog'lom turmush tarzini qaror toptirish, ilm-fan va innovatsiyalarni taraqqiy ettirish milliy g'oyamizning asosiy ustunlari bo'lib xizmat qilishi lozim"², deb ta'kidlab o'tdilar.

O'zbekistonning ertangi kuniga ishonchni mustahkamlash, ajdodlarga munosib bo'lish uchun islohotlarni ilmdan boshlash kerak. Chunki ilmsiz hech bir sohada natija bo'lmaydi. Keyingi uch yilda bu boradagi muammolarni samarali hal etish, mamlakatimizda kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Shu maqsadda qator Farmon va qarorlar qabul qilinib, bu boradagi kompleks sa'y-harakatlar uchun puxta huquqiy zamin yaratildi. Maktabgacha ta'lim, umumiy ta'lim va oliy ta'lim tizimi mazmunan va sifat jihatidan yangilanib bormoqda.

Bugungi kunda mamlakatimiz uchun eng dolzarb muammolardan biri bu — bugungi zamon talablariga mos kadrlar yetishmasligini, barcha sohada innovatsion va kreativ fikrlaydigan, ilg'or texnologiyalarni o'zlashtirgan mutaxassislariga ehtiyoj juda yuqori ekanini ta'kidlab keladi. Chunki murakkab o'tish davrida maktablardagi ta'lim sifati pasayib ketdi, kollejlarda davomat nomiga yurgizildi. Ijod maktablarining yo'qligi, madaniyat o'choqlari, to'garaklar faoliyatiga e'tibor qaratilmagani bir qator jiddiy muammolarni keltirib chiqardi. Shu bois Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev bu

²O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning Oliy Majlisa Murojaatnomasi. Toshkent, 29.12. 2020 yil.
<https://president.uz/uz/lists/view/4057>

masalaga o'z tashvishi va dardidek qaradi, yurtimizning ertangi kuni zamonaviy kadrlarga bog'liq ekanini alohida ta'kidlab, buning uchun ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, yoshlarni vatanparvarlik ruhida, yuksak ma'naviyat egalari etib tarbiyalashni ustuvor vazifa sifatida o'rta qo'ydi. Haqiqatan ham, rivojlangan davlatlar tarixiga nazar tashlaydigan bo'lsak, ularda jamiyat hayotini o'zgartirishga qaratilgan islohotlar, avvalo, ta'lim tizimidan, bog'cha, maktab, tarbiya masalasidan boshlanganini ko'ramiz. Chunki maktabni, ta'lim-tarbiyani tartibga solmay turib shaxsni, jamiyatni o'zgartirib bo'lmaydi.

Bugungi kunda fan va ta'lim, ma'naviyat va ma'rifatga davlatimiz rahbari tomonidan berilayotgan alohida e'tibor va mana shu e'tiborning amaliy natijalari xususida Prezidentimizning Parlamentga murojaatnomasida ham o'z aksini topdi. Xususan:

Maktabgacha ta'limda

- 2021 yilda maktabgacha ta'lim qamrovi 65 foizga, 2023 yil oxirida esa 75 foizga yetkaziladi. 600 milliard so'm subsidiya berilib, 2 mingta xususiy bog'cha ochiladi; xususiy sektor ulushi 25 foizga yetadi.

- 6 yoshli bolalarni maktabga majburiy tayyorlash tizimi yo'lga qo'yiladi. 2021 yilda 6 yoshli bolalarning 82 foizi (560 ming nafar) maktabga bepul tayyorlovga jalb etiladi.

- Uzoq qishloqlarda maktabgacha ta'limni uyda berish modeli yo'lga qo'yiladi. YUNESKO va Jahon banki bilan hamkorlikda.

Maktablar

- Bolaning tahliliy va kreativ fikrlash qobiliyatini o'stirishga mo'ljallangan **yangi darsliklar** tayyorlash boshlanadi.

- Boshlang'ich sinflarda DTS o'rniga bolaga ortiqcha yuklama bermaydigan «**Milliy o'quv dasturi**» joriy etiladi.

- Boshqa tumandagi olis maktabga borib, dars beradigan o'qituvchilar oyligiga 50 foiz, boshqa viloyatga borib ishlasa 100 foiz **ustama** to'lanadi.

- Hududlarda **xususiy maktablar** faoliyatini rag'batlantirish uchun byudjetdan subsidiyalar ajratiladi.

- **10 ta prezident maktabi**; kimyo-biologiya, matematika va ATga ixtisoslashgan 197ta maktab ochiladi.

Oliy ta'lim

- OTMlarda davlat grantlari soni kamida 25 foizga oshiriladi.

- Xotin-qizlar uchun grantlar soni 2 barobarga oshirilib, 2 mingtaga yetkaziladi. A'lo o'qiyotgan ehtiyojmand qizlar uchun stipendiyalar ta'sis etiladi.

- Davlat kadrlar tayyorlash bo'yicha xususiy OTMlarga ham buyurtma bera boshlaydi.

• 30 ta OTMga o'quv dasturlarini ishlab chiqish, qabul kvotasi va moliyaviy masalalarni mustaqil hal qilish huquqi beriladi.

Oliy ta'limdan keyingi ta'lim

• 2021 yilda «El-yurt umidi» jamg'armasi orqali yetakchi xorijiy OTMlarga magistratura va doktoranturaga o'qishga yuboriladigan yoshlar soni 5 barobarga oshiriladi.

• 2021 yilda ilm-fan sohasida oliygohlar va ilmiy tashkilotlardagi doktorantlar soni 2017 yilga nisbatan 3 barobarga oshiriladi (4,5 ming nafarga yetadi).

• Ilmiy unvonlar va darajalar berish vakolati oliygohlarning ilmiy kengashlariga o'tkaziladi.

• Fizika va chet tillari keyingi yilga ilm-fanning ustuvor yo'nalishlari etib belgilandi.

Murojaatnomada keltirilgan ushbu faktlar so'nggi yillarda davlatimiz rahbarining bevosita tashabbusi bilan ilm-fan, ta'lim va ishlab chiqarishga qaratilayotgan e'tiborning bir qismi yoki mamlakatimiz rivojlanishida ilm-fanning rolini kuchaytirishga qaratilgan islohotlarning amaliy natijasi sifatida aytishimiz mumkin.

Ko'rinib turganiday, mamlakatimizda yangi davrning poydevori bo'lmish juda keng miqyosdagi yangicha sifat va qudratga ega zamonaviy innovatsion tizimlarni yaratish jarayonlari davom etmoqda. Davlat rahbarimiz nazarda tutgan Uchinchi renessans - mamlakatimizda ilm-fan taraqqiyotining, iqtisodiyot va jamiyatning, xalqqa xizmat qilish va kishilarni rozi qilishday ezgu niyat bilan amalga oshirilayotgan barcha yutuqlar – kishilariimiz va yoshlarimiz aqlu zakovatining, iqtidor va iste'dod quvvatining yorqin tantanasi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, Prezidentimizning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqida **“Xalqimizning ulug'vor qudrati jo'sh urgan hozirgi zamonda O'zbekistonda yangi bir uyg'onish – Uchinchi Renessans davriga poydevor yaratilmoqda, desak, ayni haqiqat bo'ladi. Chunki bugungi O'zbekiston – kechagi O'zbekiston emas. Bugungi xalqimiz ham kechagi xalq emas”³**, deb ta'kidlagan fikrlari barchamizni yangicha dunyoqarash bilan yashashimizga undaydi. Shunday ekan, har bir yurtdoshimizga Uchinchi Renessans davri poydevoriga o'z g'ishtini qo'yish, ya'ni yurtimiz taraqqiyotiga munosib xissa qo'shish nasib etsin.

³Prezident Sh.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Mustaqilligining 29 yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi bayram tabrigi. Toshkent, 31.08.2020 yil. <https://uzdaily.uz/uz/post/6557>

Adabiyotlar:

1. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta’minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi// Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – Toshkent: O‘zbekiston, NMIU, 2017. - B.110.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O‘zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T.: O‘zbekiston, 2017.– 56 b.
4. Karimov I.A. Ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot - pirovard maqsadimiz. - T.: 2000. – B.466.
5. Усмонов Қ. Ўзбекистоннинг жаҳон ҳамжамиятига интеграциялашуви. – Тошкент: Молия, 2003.
6. Ўзбекистон мустақиллик йилларида. - Тошкент: Ўзбекистон, 1996.

RAQOBAT VA MONOPOLIYA

Mamarajabov Mirjalol Abdurahmonovich

Jo'rayev Davron Rustamovich

Mahamov Abdulhoshim Abdumutalib o'g'li

Denov tadbirkorlik va pedagogika instituti tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti iqtisodiyot yo'nalishi 1- kurs 2i-24 guruhi talabalari

Annotatsiya: Ushbu maqola monopol raqobat bozori va uning tuzilmasi, oligopoliya bozori va uning xususiyatlari, O'zbekiston sharoitida oligopoliya bozorining amal qilish xususiyatlari haqida ma'lumot beradi.

Kalit so'zlar: Monopol bozor, oligopoliya bozori, tovarlarning differensatsiyasi, differentsiallashtirilgan oligopoliya bozori, monopsoniya

Monopol raqobat – tarmoqdagi ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchilar soni ko'p hamda ular o'rtasida ma'lum darajada raqobat mavjud bo'lgan, biroq har bir ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchi o'z tovar yoki xizmatining alohida, maxsus xususiyatlari mavjudligi sababli ularning narxi va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi ma'lum darajada hukmronlik holati hisoblanadi. Bunga misol tariqasida ko'plab mebel, kiyim-kechak turlari, kir yuvish vositalari va boshqa mahsulotlar ishlab chiqaruvchilarini keltirish mumkin.

Monopol raqobat bozorining asosiy xususiyati bu tovarlarning differensatsiyasi. Tovarlarning differentsiatsiyasi bu har qanday holatda iste'molchiga xar xil turdagi, markadagi va sifatidagi o'xshash tovarlarni taklif etishdir. Tovarlarning differentsiatsiyasi bozordagi narxlarga cheklangan darajada ta'sir ko'rsatish imkonini beradi, chunki, ayrim iste'molchilar o'zlari ishonch bildirgan savdo belgisining tovarlarini narxi ozgina oshsa ham o'z talablarini o'zgartirmaydilar. Biroq bu ta'sir nisbatan past darajada bo'ladi. Bunga sabab raqobatlashayotgan firmalar ishlab chiqarayotgan tovarlarning o'xshashligidir.

Sotuvchilar sonining ko'pligi narxni o'zaro kelishib olish imkonini bermaydi, bozordagi narxlarga ta'sir ko'rsata olmaydi. Monopol raqobat sharoitida bozorga kirish nisbatan erkin bo'ladi, chunki bozordagi korxonalar xajmi kichik, ularning birlamchi investitsiyalari, kapitali ham past darajada. Shu bilan birgalikda tovarlarning differentsiatsiyasi va iste'molchilarning biror-bir savdo belgisiga bo'lgan ishonchi bozorga kirishni birmuncha qiyinlashtiradi. Bozorga kirib kelayotgan yangi firma nafaqat raqobatbardosh mahsulot ishlab chiqarishi balki, mavjud ishlab chiqaruvchilarning mijozlarini o'ziga qarata olishi ham lozim. Bu jarayon, ya'ni

mahsulotni differentsiatsiyalash, uni bozorda sotilishi uchun reklamani jonlantirish ishlari albatta qo'shimcha xarajatlarni talab qiladi.

Sof monopoliyaga o'xshab, monopol raqobat sharoitida ham optimal ishlab chiqarish xajmiga chekli daromad chekli xarajatga teng bo'lganda erishiladi. $MC=MR$.

Oligopoliya – tarmoqdagi bir necha yirik ishlab chiqaruvchi yoki sotuvchining narx va ishlab chiqarish hajmini belgilashdagi hukmronlik holati hisoblanadi. Oligopolist-ishlab chiqaruvchilarga O'zbekistonda sement (asosan Bekobod, Quvasoy, Ohangaron, Navoiy shaharlarida joylashgan), ko'mir (Angren shahri, Surxondaryo viloyatining Sariosiyo (Sharg'un) va Boysun (To'da) tumanlarida joylashgan) ishlab chiqarishni, telefon aloqa kompaniyalarini misol keltirish mumkin¹.

Oligopoliya so'zi grekcha bo'lib (oligos - bir necha, poleo - sotaman) sotuvchilarning kamligini bildiradi. Oligopol tarmoqlarga misol sifatida rivojlangan mamlakatlardagi avtomobil sanoati, po'lat, alyumin, elektrouskunalar va kompyuter tarmoqlarini keltirish mumkin. Bu tarmoqlarda ishlab chiqariladigan umumiy mahsulot hajmi bir necha firmalar hissasiga to'g'ri keladi. Masalan, Microsoft kompaniyasining prezidenti Bill Geyts oligopoliya maqomini yo'qotmaslik uchun o'zining raqobatchilarini doimiy ravishda moliyalashtirib turadi, chunki u bozorda monopol bo'lib qolsa, davlatga juda katta soliq va boshqa to'lovlarni to'lashi kerak.

Odatda, oligopol bozorda 2 tadan 15 tagacha bo'lgan kompaniyalar bozordagi barcha talabni qondiradi. Oligopol bozorning asosiy xususiyatlaridan biri bu biror bir firma faoliyatidagi o'zgarish, albatta boshqa xuddi shunday tovar ishlab chiqarayotgan firmaga ta'sir o'tkazishidadir. Ikkinchi firma raqobatda sinib qolmaslik uchun birinchi firma o'zgarishiga javoban albatta biror o'zgarish qilishi kerak. Bu o'zgarish narxda, sotuv xajmida, bozordagi ulushida, investision va innovasion faoliyatda, xarajatlarni qisqatirish strategiyasida yoki sotishdan keyingi xizmat ko'rsatishni yaxshilab borishda namoyon bo'lishi mumkin. Masalan, bir firma o'z mahsulotiga talabni rag'batlantirish uchun mahsulotining narxini 10 foizga kamaytirsas, u asosan raqobatlashuvchi firmalar hisobidan o'z mahsulotini sotish hajmini anchaga oshirishi mumkin. Lekin firmaning bu narx siyosatiga javoban boshqa raqobatlashuvchi firmalar har xil iqtisodiy siyosat olib borishi mumkin.

birinchidan, boshqa firmalar e'tibor bermasligi mumkin;

ikkinchidan, ular ham narxni 10 foizga tushirishi mumkin, natijada firmalar oladigan foyda miqdori kamayadi, hatto nolga teng bo'lishi ham mumkin:

uchinchidan, boshqa firma bu firmani sindirish maqsadida mahsulotiga bo'lgan narxni 10 foizdan yuqoriroqqa pasaytirishi mumkin, lekin bunday holatni davom etishi narxlar jangiga olib kelishi mumkin.

Narxlar janggi - bu raqobatlashadigan firmalar tomonidan oligopolik bozorda narxlarni bosqichma-bosqich tushirishidir.

Oligopol bozorda ishlab chiqarilayotgan tovar bir turdagi ham diversifikatsiyalashgan ham bo'lishi mumkin. Agarda iste'molchilar biror bir firma savdo belgisiga alohida e'tibor qaratmasalar, bozordagi aksariyat tovarlar absolyut o'rnini bosuvchi tovarlar bo'lsa, bu bozor sof yoki bir turdagi oligopoliya bozori hisoblanadi. Bunday bozorlarga misol qilib, sement, alyuminiy, qog'oz, kimy mahsulotlari bozorini keltirish mumkin.

Agarda tovarlar o'z savdo belgisi bo'yicha yuqori mavqega ega bo'lsa va ularning absolyut o'rnini bosuvchi tovarlari bo'lmasa (ba'zi bir elementlariga ko'ra), unda bu bozor differensiallashgan oligopoliya bozori deyiladi. Bu bozorga misol qilib, avtomobil, kompyuter, televizor, alkogolsiz ichimliklar bozorini keltirish mumkin.

Oligopol bozor sharoitida narxlarga ta'sir ko'rsatish va bozordagi xokimlik darajasi nisbatan yuqoridir. Lekin amaliyotda oligopoliyalalar narx raqobatidan qochib, stabil narxlarni ushlab turishga xarakat qiladilar.

Oligopol bozorlarga kirish va chiqish, u yerdagi to'siqlar xaqida gapirishdan oldin, bozorlarni ikkiga bo'lish lozim, ya'ni, asta-sekinlik bilan rivojlanib, o'sib borayotgan bozorlar va yangi nisbatan yosh endi rivojlanayotgan bozorlar. Albatta, birinchi turdagi bozorlarga kirish qiyin chunki, u yerda yirik ishlab chiqarish, yuqori texnologiyalar o'rnatilgan va iste'molchilar ishonchi qozonilgan bo'ladi. Ikkinchi turdagi bozorlarga esa kirish nisbatan oson, chunki u yerda bozor xali to'liq egallanmagan, investision faollik yuqori emas, iste'molchilar talabi xam to'liq qondirilmagan bo'ladi.

3.Oligopoliya bozorining asosiy modellari

ligopoliyalarni bozordagi faoliyat olib borish siyosati xar xil bo'lganligi uchun ularning turli modellari va turlari shakllangan. Shartli ravishda ularni ikkiga ya'ni, kooperatsiyalashgan va kooperatsiyalashmagan oligopoliya turlariga bo'lish mumkin.

Kooperatsiyalashgan oligopoliyada firmalar o'zaro kelishib olgan holda faoliyat olib boradilar. Bir firmaning keyingi xarakatini boshqa bir firma oldindan biladi. Nokooperatsiyalashgan oligopoliyada firmalar mustaqil ravishda tavakallchilikni o'z bo'yniga olib optimal ishlab chiqarishni o'zlari belgilaydilar. Shularga asoslanib oligopoliyalarning asosiy modellari tasniflanadi.

Kurnoning duopoliya modeli. Ikki raqobatlashuvchi firma o'rtasidagi munosabatlarni duopoliya sharoitida 1838 yil birinchi bo'lib o'rgangan fransuz iqtisodchisi Ogyusten Kurno hisoblanadi. Bu holat nokooperatsiyalashgan oligopoliyani ilk marotaba tahlil qilish imkonini bergan. Bu munosabatni o'rganishda quyidagilar faraz qilinadi: ikkala firma ham bir xil tovar ishlab chiqaradi va bu tovarlarga bo'lgan bozor talabi chizig'i ularga ma'lum. Ikkala firma ham bir vaqtning o'zida mustaqil ravishda tovar ishlab chiqarish bo'yicha qaror qabul qiladi. Ishlab chiqarish bo'yicha qaror qabul qilinganda, har bir firma shuni bilish kerakki, uning raqobatchisi ham ishlab chiqarish bo'yicha qaror qabul qiladi va mahsulotning pirovard narxi ikkala firma tomonidan ishlab chiqarilgan umumiy mahsulot hajmiga bog'liq bo'ladi.

Kurno modelida har bir firma mahsulot ishlab chiqarish bo'yicha qaror qabul qilganda, raqobatchi firma tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot hajmini o'zgarimas deb qaraydi. Kurno modelini misolda ko'rib chiqamiz.

Faraz qilaylik, ikkinchi firma mahsulot ishlab chiqarish xajmi nolga teng. Unda birinchi firma bozordagi barcha talabni qondiradi va maksimal ishlab chiqarish xajmiga erishadi. Agar ikkinchi firma io'lab chiqarishni bir birlikka oshirsa, unda birinchi firma bozordagi qolgan talabni qondiradi. (bozordagi talab-ikkinchi firma mahsulotiga talab=birinchi firma ulushi). Agar ikkinchi firma maksimal darajada ishlab chiqarishni yo'lga qo'yib, bozordagi barcha talabni qondirsa, birinchi firma o'z ishlab chiqarishini nolga tenglashtirishga majbur bo'ladi. Shunday qilib, bir firmaning optimal ishlab chiqarish xajmi boshqa bir raqobatchi firmaning ishlab chiqarish xajmini oshirishi yoki kamaytirishiga qarab o'zgarib turadi.

Birinchi firmaning ishlab chiqarish chizig'i bilan ikkinchi firmaning ishlab chiqarish chizig'i kesishgan E nuqtaga mos keluvchi birinchi va ikkinchi firmalar tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulot hajmlari muvozanati Kurno muvozanati deyiladi.

Muvozanat nuqtada har bir firma o'zining raqobatchi firmasining ishlab chiqarish hajmini aniq faraz qiladi. Muvozanat nuqtaga mos holda ishlab chiqarilgan mahsulot hajmi ikkala firma uchun ham optimal hisoblanadi va hech qaysi firma o'z mahsulotining ishlab chiqarish hajmini optimal hajmdan ko'proq yoki kamroq hajmga o'zgartirishdan manfaatdor emas.

Mahsulot hajmini optimal hajmdan har qanday o'zgartirilishi ikkala firmaning ham daromadini kamayishiga olib keladi.

Kurno modeli duopolistlar Kurno muvozanat holatida bo'maganda, ular shu muvozanatga erishish uchun harakat qilishi mumkinligi to'g'risida hech narsa demaydi. Nima uchun deganda, modelda raqobatchining mahsulot ishlab chiqarish

hajmi o'zgarma deb qilinadigan asosiy farazi bajarilmaydi. Hech qaysi firmaning mahsulot ishlab chiqarish hajmi o'zgarmasdan qolmaydi.

Kartel modeli. Kartel modeli aynan kooperatsiyalashgan oligopoliyaga mos keladi. Kartel modeli duopol bozordagi ikkala firmaning ma'lum bir shartnoma asosida raqobatchi kuchlarni bozordan chetlatish maqsadida birgalikda kelishib harakat qilishiga asoslanadi. Shartnomada firmalarning har biri qancha miqdorda tovar ishlab chiqarishi, uni qanday narxda sotishi va tushgan foydani qanday qilib o'rtada bo'lishi, patent va axborotlarni o'zaro ayriboshlash jarayonlari kelishilgan holda ko'rsatilishi lozim. Firmalar kelishib harakat qilganda umumiy foydani maksimallashtiradilar. Ikkala firmaning kelishib harakat qilishi duopol bozorda sof monopoliyani vujudga kelishiga olib keladi.

Kartellar milliy va xalqaro bo'lishi mumkin. Xalqaro kartelga yorqin misol OPEK tashkilotidir. Bu tashkilot a'zo mamlakatlar o'zaro kelishib neft eksport qilish bilan shug'ullanadilar. Bu orqali ular 1970-yillardan beri jahon neft narxlariga samarali ta'sir etib kelmoqdalar.

Narx belgilashda liderlik modeli. Narx belgilashda liderlikda lider-firma narxni birinchi bo'lib, belgilaydi, qolganlar uning narxiga qarab o'z narxlarini belgilaydilar. Bunday firmalarni ergashuvchi firmalar deymiz. Lider-firmaning narx belgilashi, lider narxni belgilaganda ergashuvchi firmalarning harakatiga bog'liq, ya'ni lider narxni oshirsa, ergashuvchilar ishlab chiqarishni oshiradilarmi yoki bozordagi oldingi ulushini saqlaydimi? Agar ergashuvchilar o'z ishlab chiqarish hajmlarini cheklasalar, lider foydani maksimallashtiradigan umumiy narxni belgilaydi. Yoki, lider o'z foydasini maksimallashtiradigan narxni o'rnatadi, ergashuvchilar esa ushbu narxda qancha xohlasa, shuncha ishlab chiqarishi mumkin bo'ladi.

Raqobatning turli ko'rinishlari sharoitida narxning shakllanishi. Narxning shakllanishiga bozorning holati bevosita ta'sir ko'rsatadi, chunki narxning shakllanishida bozordagi talab va taklif nisbati asosiy omillardan biri hisoblanadi.

Mukammal raqobat sharoitida narxning shakllanishi. Erkin raqobat kurashi sharoitida narxning tashkil topish xususiyatlarini tadqiq etgan dastlabki iqtisodchilardan biri A.Marshall hisoblanadi. Uning fikricha, tovarning oldi-sotdi jarayoniga qadar ikki xil, ya'ni sotuvchi va xaridor narxlari mavjud bo'ladi. Nazariy jihatdan har ikki narxning yuqori va quyi darajalari mavjud. Sotuvchi o'z tovari narxining imkon qadar yuqori bo'lishidan manfaatdor, chunki bunday narx uning foydasi hajmini oshiradi. Biroq, erkin raqobat sharoitida narxni boshqalardan yuqori darajada belgilashga intilish mazkur sotuvchining bozordan siqib chiqarilishiga olib kelishi mumkin. Sotuvchi narxining eng past darajasi shu tovarni ishlab chiqarish uchun ketgan xarajatlarni qoplashi kerak. Xaridor tovarni eng past narxda sotib olishdan manfaatdor, biroq erkin raqobatli bozor sharoitida uning ham tovar sotib

ololmay qolish xavfi mavjud bo'lad. Xaridor narxining yuqori darajasi esa, Marshall ta'biricha, so'nggi qo'shilgan miqdor nafliligiga teng bo'lishi kerak.

Monopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Monopoliya sharoitida narx shakllanishining o'ziga xos jihati shundaki, agar mayda tovar ishlab chiqaruvchilar faqat o'zlarining individual narxlarini o'zgartira olsalar, ulardan farqli o'laroq bozor ishtirokchilari sifatidagi monopoliyalar bozor narxlarini o'zlari belgilay oladilar. Bunda monopoliyalar ommaviy talabning oshishi bilan narxning oshishi hamda ommaviy taklifning oshishi bilan narxning pasayib borishidan o'ziga xos tarzda foydalanadilar. Ommaviy tartibda tovarlarni sotuvchi monopoliyalar o'z manfaatlari yo'lida taklif kam bo'lganda narxning oshishi tendensiyasidan foydalanadilar.

Monopsoniya sharoitida narxning shakllanishi. Monopsoniya mayda tovar ishlab chiqaruvchilardan tovarlarning katta hajmini sotib olib, talab bo'yicha narx qonunidan o'ziga xos tarzda foydalanadi.

Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi. Oligopoliya sharoitida narxning shakllanishi tarmoqdagi tovar ishlab chiqaruvchilar tomonidan qo'llaniluvchi «ergashish» hamda «inkor etish» hatti-harakatlari orqali izohlanadi. «Ergashish» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan ham ergashish, ya'ni shunday o'zgarishlar qilish kuzatiladi. Odatda, bozorda o'z tovarlariga narxni pasaytirish orqali iste'molchilari soni hamda sotish hajmini oshirishga qaror qilgan oligopolist hatti-harakatiga javoban qolgan oligopolistlar ham narxlarni pasaytiradilar. Natijada narxning umumiy pasayishi ro'y berib, bozordagi ulush oldingi holda qoladi, ya'ni oligopolistning hatti-harakati samara bermaydi. «Inkor etish» holatida bir oligopolist tomonidan narx bo'yicha qilingan o'zgarish (narxning pasayishi yoki oshirilishi)ga qolgan oligopolistlar tomonidan inkor etish, ya'ni hech qanday javob o'zgarishlari qilmaslik kuzatiladi. Ko'pincha bunday holat oligopolist tomonidan o'z tovariga narxni oshirgan chog'ida ro'y beradi, ya'ni qolgan oligopolistlar tovarlari narxlarini oshirmaydilar. Natijada, narxni oshirgan oligopolist o'z iste'molchilarini yo'qotib, bozordan siqib chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Pindayk Robert. Mikroiqtisod: Inglizchadan qisqartirib tarjima qilingan/ Pindayk Robert, Rubinfeld Daniel. – T.; 2002.
2. E.Egamberdiev. Mikroiqtisodiyot. O'quv qo'llanma. T.: 2005 y.
3. Экономическая теория: учебник / И.К. Станковская, И.А. Стрелец.- 5-е изд., перераб. и доп.–М.:Эксмо, 2010.- 480 стр.- (Полный курс МБА)
4. To'xliiev N., Xaqberdiev Q., Ermamatov Sh., Xolmatov N. Iqtisodiy bilim asoslari. Qo'llanma. T. O'zME. 2004, 96 b.

5. Abulqosimov H va boshqalar. Iqtisodiy bilim asoslari. O‘quv qo‘llanma. T.: Akademiya, 2010.-304 b.
6. Вечканов Г.С. Экономическая теория. – спб.: Питер, 2009. – 448 с.
7. Курс микроэкономики: учебник/ Р.М.Нуреев. – 2-е изд., изм. – М.: Норма: Инфра-М, 2010. – 576 с.
8. Сборник задач по микроэкономике./ к “Курсу микроэкономики” Р.М. Нуреева – М.: Норма, 2008. – 432 с.
9. Микроиқтисодиёт: Олий ўқув юртлари учун дарслик / С.С.Ғуломов, Р.Х.Алимов, Б.Т.Салимов ва бошқ.- Т.: “Шарқ”, 2001.-320 б.

RENESSANS TARIXIY ILDIZLARINING ILM-FAN VA TARAQQIYOTGA TA'SIRI

Karimova Ra'no Malikovna
Navoiy davlat universiteti
katta o'qituvchisi, f.f.f.d. (PhD)

Annotatsiya: Jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda “Yangi O'zbekiston”, “Yangi O'zbekiston tajribasi” degan iboralar tilga olinmoqda. Bu mamlakatimizda keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

Tayanch so'zlar: Renessans, Yangi O'zbekiston, ma'naviy dunyo, vosita, usul, ta'lim, tarbiya, mustaqillik, falsafa, metodologiya, globallashuv, jamiyat, davlat, taraqqiyot, moddiy, shaxs, millat, qonuniyat.

Davlatchilik rivoji va uning taraqqiyot mezonlari millatning ma'naviy darajasi bilan belgilanadi. Har bir davr taraqqiyotini belgilashda o'z maqsad-muddolari, tamoyillari bo'ladi. Zero, faqat o'zligini anglagan, mushtarak maqsadlarda yakdil, muddolari uyg'un, or-no'muslari ustun, yagona maslakdagi madaniyatga ega xalqlarning rivojlanish tarixi barqaror va istiqbolli bo'lishi kishilik jamiyati tajribalarida o'zining isbotini topgan.

Bugungi kunda barcha ommaviy axborot vositalarida, jumladan televedeniye, gazeta, jurnal va ijtimoiy tarmoqlar hamda odamlarimizni bir-birlari bilan suxbatlarida “Yangi O'zbekiston”, “Yangi O'zbekiston – yangicha dunyoqarash” kabi iboralarga ko'rayapmiz, eshitayapmiz.

Jahon miqyosida yurtimiz haqida so'z ketganda “Yangi O'zbekiston”, “Yangi O'zbekiston tajribasi” degan iboralar tilga olinmoqda. Bu mamlakatimizda keyingi yillarda taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yganimiz, erishayotgan zalvorli yutuqlarimizning e'tirofi desak hecham mubolag'a bo'lmaydi.

O'zbekiston xalqining ko'p asrlik boy tarixiga nazar tashlar ekanmiz, unda azaldan ilm-ma'rifatga alohida e'tibor qaratilib kelganligini guvohi bo'lamiz. O'sha davrlarda jamiyatda ilm-fan, san'at va madaniyatning yuksalishi, buyuk siymolarning o'z ijodida erishgan yutuqlari jahon tamaddunining rivojiga qo'shgan hissasi barchamizni birdek faxru-g'ururimizga sabab bo'lib kelmoqda.

Barchamizga tarixdan yaxshi ma'lumki, diyorimizdagi birinchi Renessans davri IX-XII asrlar to'g'ri keladi. Ushbu davrda buyuk ajdodlarimizning yaratgan ilmiy-falsafiy asarlari va olamshumul kashfiyotlari islom sivilizatsiyasiga tamal toshi

bo'ldi. Renessansning ikkinchi davri esa – Amir Temur va Temuriylar davriga to'g'ri kelib, nafaqat Movaraunnahr, balki butun Markaziy Osiyo o'lkalari o'z taraqqiyotining yangi pog'onasiga ko'tariladi.

“Renessans” so'zi fransuzcha- “Renaissance”, italyancha-“Rinascimento” –qayta yuzaga kelmoq, yangidan tug'ilmoq, qayta tirilish, uyg'onish – degan ma'nolarni anglatadi.

“Uyg'onish” istilohi ilk bor XVI asrda me'mor, musavvir va san'at tarixchisi Jorj Vazari (1511-1574) tomonidan G'arbiy yevropada burjua munosabatlari rivojlanishining dastlabki bosqichi bilan shartlangan tarixiy davrni tavsiflash uchun qo'llanilgan. Ushbu istilohning hozir biz bildirgan ma'nosi farang tarixchisi Jyul Mishle (1798-1874) tomonidan XIX asrda joriy qilindi.

Tarix faniga “Musulmon Renessansi” tushunchasi taniqli Avstriya sharqshunosi Adam Mets (1876-1946) tomonidan XX asr boshlarida, yanada aniqrog'i, 1909 yilda kiritilgan. Olim “SHarq” atamasini tarixiy mazmunda ishlatib, bunda O'rta yer dengizidan to yevropa qit'asigacha bo'lgan yurtlarni va bu hududlarda IX-XII asrlarda madaniyat yuksaklarga ko'tarilganligini ko'zda tutgan. Mazkur o'lkalar qadimiy sivilizatsiya beshigidir.

XV asrdan Renessans yevropaga siljidi. Bu paytga kelib yevropa 300 —350 yil davomida islom olimlari, jumladan, bizning buyuk ajdodlarimiz asarlarini, ayniqsa, Xorazmiy, Farg'oniy va Ibn Sino asarlarini lotinchaga o'girib, chuqur o'zlashtirib olgan edi. Yevropa Uyg'onishiga juda kuchli ta'sir ko'rsatganlardan biri Ibn Rushddir.

Dunyo madaniyatini yaxlit olib o'rgangan olimlarning ishlari shuni ko'rsatdiki, Osiyo markazida joylashgan Movarounnahr, Xuroson va Eronda Italiyaga qaraganda bir necha asr oldin (9-12-asrlar) ulkan madaniy ko'tarilish yuz bergan, ilm-fan, falsafa, adabiyot kuchli rivojlanib, ilg'or insonparvarlik g'oyalari jamiyat fikrini band etgan, aqliy va ijodiy faollik gurkiragan. Bu davr dunyo ilmida yuqorida "Musulmon Renessansi" (A. Mets) yoki "Sharq Uyg'onishi" (N. I. Konrad) nomi bilan atalib kelinmoqda. Sharq Uyg'onish davrida Yevropa Uyg'onish davrining asosiy belgilari mujassam: jo'shqin ijodiy faoliyat, ulkan bunyodkorlik ishlarining amalga oshirilgani, aqlni hayratga soluvchi bemisl asarlarning yaratilgani shundan dalolat beradi.

Sharq Uyg'onish davri ham ulug' allomalar, qomusiy bilim sohiblari, mashhur mutafakkirlarni yetishtirdi. Aniq fanlar sohasida Muhammad Xorazmiy, Abu Bakr Roziy, Abu Rayhon Beruniy, Ahmad al-Farg'oniy, Umar Xayyom, Mirzo Ulug'bek jahonshumul kashfiyotlar qildilar. Abu Nasr Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Ibn Rushd, Muhammad G'azzoliy, Nasafiy Aziziddinlarning falsafiy asarlari tafakkur xazinasini boyitdi, olam, odam va jamiyat yaxlitlikda tadqiq etilib, yangi qonuniyatlar ochildi,

aqliy bilim ufqlari kengaydi, fozil jamiyat va komil inson nazariyasi chuqur ishlab chiqildi. She'riyatda Abu Abdullo Rudakiy, Abdullo al-Maarriy, Abulqosim Firdavsiy, Jaloliddin Rumiy, Hofiz Sheroziy, Nizomiy Ganjaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiy kabi daho ijodkorlar yetishib, o'lmas asarlar yaratdilar, ishq-muhabbat, qahramonlik, ozodlik va ezgulikni kuyladilar. Miniatyura rassomchiligida bir necha maktablar shakllandi, bunda Kamoliddin Behzod rasmlari yangi ijodiy yo'nalishga asos soldi. Uyg'onish davrining yana bir belgisi xalq ruhini ifodalaydigan "Ming bir kecha", "Kalila va Dimna", "Qirq vazir", "To'tinoma", "Sindbodnoma", "Jome'ul hikoyot" kabi qiziqarli sarguzashtlarga to'la, shavqu zavq qo'zg'atadigan asarlarning ko'paygani, ikkinchi tomondan "Xamsa"larda bo'lganiday, insoniy ideallarni mujassam etgan hikmat va falsafaga boy umumbashariy g'oyalarning tasvirlanishidir.

Tafakkurdagi ikki: aqliy (ratsionalizm) va vajdiy (irratsionalizm) yo'nalish namoyandalari zohiran o'zaro kelishmay kelgan bo'lsalarda, amalda Yevropa Uyg'onish davrida bo'lganidek, inson ongini bedor etish, uni aqidaparastlik (taqlidchilik) g'uboridan tozalashda hamkorlik qildilar. Shu bois hurfikli mutafakkirlar orasida ratsionalist olimlar bilan birga, orif sufiylar ham bor edi.

Sharq Uyg'onish davri vakillari o'z xalqlarining qadimgi madaniyat bilan birga, yunon va hind xalqlari merosidan ham foq dalanishgan. Yunon olimlarining asarlari 8-9 asrlarda arab tiliga tarjima qilindi. Aflotun, Arastuni Sharq faylasuflari ham o'z ustozlari deb hisoblashgan, Plotin qarashlari Ibn al-Arabiya ta'sir etib, "vahdatul vujud" falsafasiga turtki berdi. Biroq yunonlar ko'p fikrlarni qad. osiyoliklardan olganlar. Bu tarix qonuniyati; Abu Rayhon Beruniyning "Kitob attafhim li avoil sinoat attanjim" asari qo'lyozmasi (13a).yuksalishga shaylangan xalq o'z madaniyati va o'zigacha yaratilgan bashariy yutuqlarni o'zlashtirib, yana yuksaklikka ko'tariladi.

Sharq Uyg'onish davri keng ko'lamli: ta'lim va tahlil, madrasa-maorif rivojlangan, ulkan kutubxonalarda yuz minglab jild kitoblar yig'ilgan, "xazinat ul-hikma", "dor ul-ulum"larda tolibi ilmlar, ustoz-shogirdlar suhbatlari bardavom edi.

Sharq Uyg'onish davri yutuqlari G'arbiy Yevropadagi Uyg'onish davriga bevosita ta'sir etgan. Chunki 12-14 asrlarda musulmon olami bilan Yevropa davlatlari orasida aloqa kuchaygan edi. Ayniqsa, tutash chegara mamlakatlari: Qurdoba (Ispaniya), Kavkaz, Bolqon yarim orolida bu jarayon kuchli bo'lgan. Yevropaliklar Sharq olimlarining asarlarini lotin, ispan, yahudiy tillariga qilingan tarjimalar orqali yoxud bevosita arab tilida o'qib o'rganganlar.

Ibn Sinoning "Tib qonunlari", "Ash-Shifo", Forobiyning "Ilmlar tasnifi", Ahmad Farg'oniyning "Samo harakatlari va yulduzlar ilmining jami kitobi", Muxammad Muso Xorazmiyning "Aljabr val muqobila", Ibn Rushd, Abu Bakr Roziy asarlari tarjima qilinib, keyinchalik nashr etilgan. Algebra, algoritm fanlari Xorazmiy asarlari

tufayli shakllangan. "Tib qonunlari" 7 asr mobaynida Yevropa universitetlarida tibbiyot darsligi sifatida xizmat qildi. Ibn Sino shogirdi Ibn Rushd g'oyalari Italiya, Fransiya hurfikrligini boshlab bergan. Ibn Sino — Avitsenna, Ibn Rushd — Averroes, Ahmad Farg'oniy — Al Frageni, Abu Bakr Roziy — Al Ramzats, Abu Ma'shar Balxiy — Albumazar degan lotincha nomlar ostida mashhur bo'lgan. "O'sha paytda (13—16-a.) jaholat changalidagi Yevropaning ko'pgina qismida musulmonlar ilm charog'ini yoqdilar...; ispanlar yozuvi ham, shimoliy oramiy yozuvi ham Osiyodan olingan; shimoliy, g'arbiy va sharqiy Yevropa madaniyati yunon -rumo -arab urug'idan unib chiqqandir" (G.Gerder). Platon, Aristotel asarlari ham Yevropaga dastlab arabcha tarjima va talqinlar orqali kirib borgan. "Sharqliklar G'arbni Aristotel falsafasi bilan yoritdilar" (Gegel).

Renessans, eng avvalo, antik zamon madaniy, xususan falsafiy merosi haqida erkin fikr yuritish, har qanday qoidalarni o'zgarlas, mutlaq haqiqat deb qarashdan voz kechish, inson bisotida mavjud bo'lgan qobiliyatlarni, malakalarni erkin namoyish qilish uchun vujudga kelgan imkoniyat edi. Xuddi shuning uchun ham olimu-fozillar, xususan faylasuflar "yopiq maktablar" namoyondalari emas, balki mustaqil tadqiqotchi sifatida harakat qila boshladilar. Har bir tashkilotchining o'ziga xos bayon qilish, ilmiy-falsafiy asarlarni o'ziga xos tahlil qilish, voqelikni ravon ommabop tilda tasvirlash uslublari vujudga keldi. Bunday uslublar o'tmish falsafiy adabiyotlarining sxolastik bachkanalikka asoslangan murakkab bayon qilish uslubiga zid edi. Bir ibora bilan aytganda, Renessans davrining falsafiy adabiyotlari o'tmishning sxematizmi va aprioristik chayqovchiligiga zarba berib, voqea va hodisalarni chinakamiga real tavsiflashga, amaliyot uchun foyda keltirgan masalalar yechimini topishga e'tiborni qaratdi.

Renessans madaniyatining asosiy targ'ibotchilari va tashviqotchilari shahar aholisining yuqori tabaqalari vakillari, yirik ishbilarmonlar, meshchanlar, yuqori ma'lumotga ega bo'lgan cherkov va monastir xodimlari edi. Insonparvarlik g'oyalarini targ'ib qilgan bunday targ'ibotchilar va tashviqotchilarning ko'pchiligi lotin tilini mukammal bilgan, antik madaniyat, xususan falsafiy meros bilan yaxshi tanish kishilar edilar. Bir ibora bilan aytganimizda, Renessans madaniyatining mag'zini insonparvarlik g'oyalari tashkil etadi.

Shunday qilib, Renessans davrining o'ziga xos xususiyatlaridan biri va eng muhimi kishilarda yangicha fikrlash madaniyatining shakllanganligi bilan xarakterlanadi. Yangicha fikr yuritish madaniyati antik zamon, o'rta asr fikrlash madaniyatidan mutlaqo farq qilar edi. Chunki Renessans davri fikrlash madaniyati diniy urf odatlar, rasm-rusumlarga zarba bera boshladi, ayrim hollarda unga qarshi chiqdi. O'z navbatida, Renessans davri fikrlash madaniyati o'rta asr fikrlash madaniyatining natijasi va uning yakuni edi. Xuddi shuning uchun ham Renessans

davrining falsafasi o`rta asr falsafasiga xos xususiyatlarning mavjudligi bilan antik zamon fikrlash madaniyatidan tubdan farq qiladi.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O'zbekiston, 2023.
2. Mirziyoyev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash-yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi// Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko'taramiz. 1-jild. – Toshkent: O'zbekiston, NMIU, 2017. - B.110.
3. Mirziyoyev Sh.M. Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.–T.: O'zbekiston, 2017.– 56 b.

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALAR VA BOSHLANG'ICH TA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARINING MILLIY MAFKURAVIY ONGINI SHAKLLANTIRISHNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

F.R.Xudjaqulova

Navoiy davlat universiteti

katta o'qituvchisi, f.f.f.d.(PhD)

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekiston taraqqiyotining yangi bosqichida jamiyat hayotida yuz berayotgan voqea, hodisa va jarayonlarning mazmun-mohiyatini tahlil qilish asosida maktabgacha yoshdagi bolalar va maktab o'quvchi yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirishning falsafiy jihatlarini o'rganishdan iborat

Kalit so'zlar: Mafkura, milliy mafkura, g'oya, g'oyaviy-mafkuraviy hayot, mafkuraviy ong, mafkuraviy faoliyat, mafkuraviy munosabat, mafkuraviy bashorat, mafkuraviy vaziyat, mafkuraviy maqsad, mafkuraviy siyosat, mafkuraviy tajovuz, g'oyaviy ziddiyat, g'oyaviy qaramlik, gnoseologiya, jamiyat, ideosfera, ma'naviy dunyo, vosita, usul, ta'lim, tarbiya.

Bugungi kunda mamlakatimiz aholisining yarmidan ko'pini tashkil etuvchi yoshlar jamiyatimizdagi ijtimoiy taraqqiyotimizning milliy tiklanishdan-milliy yuksalishga o'tish davrida asosiy harakatlantiruvchi kuchi sifatida tarix sahnasiga kirib kelmoqda. Mamlakatimiz taraqqiyotining kelgusidagi taqdiri, ularning milliy mafkuraviy ongining shakllanishi va rivojlanishiga, ya'ni Ozod va obod Vatanda, erkin va farovon yashash g'oyasini qanday idrok etishi va amalga oshirishiga bog'liq bo'lib qolmoqda. Demak, yoshlarning milliy mafkuraviy ongini shakllantirmasdan turib ajdodlar va avlodlar o'rtasidagi vorisiylikni ta'minlab bo'lmaydi. Bu g'oyani mafkuraviy ong sifatida yoshlarimizning qalbiga singdirmaslik, kelgusida milliy mustaqil taraqqiyotimizni abadiy tarzda saqlab qolish yoki mustaqillikni qo'ldan boy berib, yana o'zgalarga tobe bo'lib yashashga yo'l ochib berish demakdir.

Milliy mafkuraviy ongni shakllantirish va rivojlantirish, aslini olganda oila qurish, unda farzandli bo'lish jarayonidan boshlanadi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz. Chunki, birinchi navbatda oilaning qonuniy tarzda "Oila va nikoh" kodeksi talablariga mos ravishda qurilishi, so'ngra, ushbu qonun talablarini buzmasdan milliy qadriyatlarimizga asoslangan holda *diniy(sha'riy)* nikohdan o'tish amalini bajarish oila qurishdagi milliy mafkuraviy ongni shakllantirish va rivojlantirishning xalqchil talablaridan biri hisoblanadi.

Ona homilasi qanchalik halollikka asoslangan bo'lsa, tug'ilajak farzandning nomi ham shunchalik pokiza bo'ladi. Ana shu pokizalik tufayli ota-ona farzandining butun umr davomida milliy qadriyatlarimizning shukuhi asosida mafkuraviy ongining shakllanishi va rivojlanib borishiga tamal toshini qo'ygan bo'ladi. Boshqacha tanlangan yo'l, ya'ni nikohsiz tug'ilgan farzand qanchalik iqtidorli, oqil bo'lmasin, baribir, u qandaydir bemaza gap-so'zlarning qurboniga aylanib, mafkuraviy ongining izdan chiqib axloqiy-ma'naviy tanazzul sari yo'l tutishiga olib keladi. Bunday holatlarning sodir bo'lishi oilaning inqirozga uchrashiga, mahallada esa axloqiy-ma'naviy muhitning yomonlashuviga sabab bo'ladi.

Shuni alohida qayd qilish kerakki, bugungi kunda davlatimiz tomonidan olib borilayotgan «uzluksiz ma'naviy tarbiya» siyosatining bosh maqsadi, bir qator umuminsoniy va milliy tarbiya shakllarini (iqtisodiy, axloqiy, huquqiy, estetik, badiiy, ekologik, diniy tarbiya va boshqalar) uyg'unlashtirgan holda yoshlarimizning milliy mafkuraviy ongini shakllantirish va zamon talablari darajasida rivojlantirishdan iborat. Bulardan ajralgan holdagi, qandaydir mutlaq ahamiyatga ega bo'lgan "ma'naviy tarbiya"ning o'zi yo'q. Bularning ichida "axloqiy tarbiya" ustuvorlik ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr, 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori bilan tasdiqlangan "Uzluksiz ma'naviy tarbiya Konsepsiyasi"da: **"Oilada uzluksiz ma'naviy tarbiya xususiyatlari:** muloqot, o'yin turlari jarayonida predmetlar, namunaviy xulq, xatti-harakat qoidalari bilan tanishish, taqlid orqali kattalarning ma'naviy-axloqiy tajribasiga e'tibor qaratish; o'zining va boshqalarning xatti-harakatlarini kuzatish, baho berishga o'rgatish; ilk ma'naviy-tarbiyaviy motivlarni shakllantirish; o'ziga-o'zi xizmat qilish, kundalik turmushda xavfsizlik ko'nikmalarini o'rgatish"¹, kabilar ko'rsatib o'tilgan. Bu xususiyatlar o'zida qaysi ma'naviy tarbiya shakllari orqali o'zini namoyon qiladi va milliy mafkuraviy ong darajasida shakllanishiga zamin hozirlaydi.

O'zbekiston Respublikasining 2019 yil 16 dekabrda qabul qilingan O'RQ-595 sonli "Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida" Qonunining 32-moddasida: "Maktabgacha bo'lgan yosh quyidagi davrlarni o'z ichiga oladi: go'daklik (tug'ilgandan bir yoshgacha); ilk bolalik (bir yoshdan uch yoshgacha); maktabgacha bo'lgan kichik yosh (uch yoshdan to'rt yoshgacha); maktabgacha bo'lgan o'rtacha yosh (o'rt yoshdan besh yoshgacha); maktabgacha bo'lgan katta yosh (besh yoshdan

1 O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 31 dekabr, 1059-son "Uzluksiz ma'naviy tarbiya konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarori//.Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 03.01.2020 y., 09/20/1059/4265-son, 19.06.2020 y., 09/20/391/0777-son.

yetti yosh)»²,– deb ko'rsatilgan. Mana shu yosh davrlarida bolalarning ruhiyatida qanday o'zgarishlar sodir bo'ladi va ular qanday shaklda yoshlarning milliy mafkuraviy ongning shakllanishiga zamin yaratadi degan savol tug'iladi? Odam bolasi, onadan sog'lom tug'ilsada, biroq aqlli bo'lib tug'ilmaydi. Uning aqlli bo'lish yoki bo'lmasligi ota-onaning qanday tarbiya berishiga bog'liqdir. Hozirgi kundagi ma'naviy tarbiyadan ko'zlangan maqsad esa har bir bolaning milliy mafkuraviy ongini shakllantirish asosida haqiqiy Vatanparvar qilib yetishtirishdan iborat.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, g'oyaviy-mafkuraviy ta'lim-tarbiya ishlarini samarali tashkil qilish Sh.M.Mirziyoev aytganidek: «...bir- ikki marta nomiga tadbir o'tkazish bilan ish bitmaydi. Bu yo'nalishda har kuni, har soatda, doimiy va tizimli ravishda ish olib borish kerak. Buni ma'naviy hayot, g'oyaviy-mafkuraviy ish deb qo'yibdi. Bu bizga g'alla yoki chigit ekish emas, urug'ni tuproqqa tashladik, bo'ldi, endi kutamiz, deb qarab o'tirsak. Mafkura sohasida bo'shliq degan narsaning o'zi hech qachon bo'lmaydi. Chunki insonning qalbi, miyasi, ongu tafakkuri hech qachon axborot olishdan, fikrlashdan, ta'sirlanishdan to'xtamaydi. Demak, unga doimo ma'naviy oziq kerak. Agar shu oziqni o'zi yashayotgan muhitdan olmasa yoki bu muhit uni qoniqtirmasa, nima bo'ladi, aytinglar? Bunday oziqni u asta-sekin boshqa yoqdan izlaydi. SHunga yo'l bermasligimiz kerak. Mana, gap nima haqida ketyapti! Buning uchun o'zini jamiyatimiz, yoshlarimiz ma'naviyati, g'oyaviy mafkuraviy tarbiyasi uchun mas'ul deb bilgan insonlar - bu mahalla yoki diniy tashkilotlar bo'ladimi, huquq-tartibot idoralari xodimlari yoki katta ta'sir kuchiga ega ijodkor ziyolilar bo'ladimi - ularning barchasi ayniqsa faol bo'lishlari lozim»³

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild,–T.: “O'zbekiston” NMIU,2017.– B.484.
- 2.Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya-taraqqiyot strategiyasi - T.:Fan. 2017.
- 3.Nazarov Q G'oyalar falsafasi. -T.:Akademiya 2017.
- 4.Yaxshilikov J.Ya., Muhammadiyev N.E. Milliy g'oya va mafkura. -T.:Fan. 2015.
- 5.Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari va atamalar lug'ati.T.:Muharrir. 2009.

2O'zbekiston Respublikasining Qonuni. Maktabgacha ta'lim va tarbiya to'g'risida. O'RQ-595. 2019 yil 16 dekabr.// Qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasi, 17.12.2019 y., 03/19/595/4160-son.

3Mirziyoyev Sh.M. Vatanimiz taqdiri va kelajagi yo'lida yanada hamjihat bo'lib,qat'iyat bilan harakat qilaylik//Uning o'zi. Milliy taraqqiёт yo'limizni qat'iyat bilan davom ettirib,yangi bosqichga ko'taramiz.1-jild,–T.: «O'zbekiston»NMIU,2017.– B.484.

“JISMONIY-TARBIYA VA SPORT DARSlikLARIDA ZAMONAVIY PEDAGOGIK TEXNOLOGIYALRDAN FOYDALANISHNING JIHATLARI”

Utemuratova Dinara Nurillaevna

*Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika
instituti jismoniy-madaniyat fakulteti 2-a gruhi*

Annotatsiya: Maqolada jismoniy tarbiya va sport darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning ahamiyati, dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, jismoniy, ma‘naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish bo‘yicha ayrim tavsiyalar berilgan muxokama qilingan.

Kalit so‘zlar: sport, pedagogik texnologiyalar, uslublar, mezonlar, amaliy darslar

KIRISH

Mustaqil O‘zbekiston Respublikasida shakllanayotgan milliy istiqlol g‘oyasi Respublika Konstitutsiyasida e‘tirof etilgan insonparvar, demokratik, huquqiy davlat va jamiyatni barpo etish, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy hamda madaniy rivojlanishning yuqori bosqichlariga ko‘tarish, jahon hamjamiyati safidan munosib o‘rin egallashga yo‘naltirilgan ezgu maqsadlarni amalga oshirishga xizmat qiladi.

Ushbu maqsadlarning ijobiy natijaga ega bo‘lishi eng avvalo, yosh avlodga ilmiy bilimlar asoslarini puxta o‘rgatish, ularda keng dunyoqarash hamda tafakkur ko‘lamini hosil qilish, jismoniy, ma‘naviy va axloqiy sifatlarni shakllantirish borasidagi ta‘limiy-tarbiyaviy ishlarni samarali tashkil etishga bog‘liqdir. Zero, yurtning porloq istiqbolini yaratish, uning nomini jahonga keng yoyish, ulug‘ ajdodlar tomonidan yaratilgan milliy-madaniy merosni jamiyatga namoyish etish, ularni boyitish, mustaqil O‘zbekiston Respublikasining rivojlangan mamlakatlar qatoridan joy egallashini ta‘minlash yosh avlodni xar tomonlama komil inson hamda malakali mutaxassis qilib tarbiyalashga bog‘liqdir.

O‘qituvchilar o‘qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, mashg‘ulotlar o‘tkazishga tayyorlanishi, turli o‘quv qurollaridan samarali foydalanishi hamda o‘quv rejasi va dasturlarini metodologiyasini ochib berishi lozim. Biroq, shuni unutmash lozimki, o‘qitish va o‘rgatish jarayonlarini boshqarish, mavjud o‘quv vositalaridan samarali foydalanish va o‘quv mashg‘ulotarida o‘quvchilarga imkon qadar manfaatli bo‘lishini ta‘minlash va shu kabi boshqa ko‘pgina vazifalar o‘qituvchining zimmasiga to‘liq yuklatiladi. Fanlarni o‘qitishda yangi pedagogik texnologiyalardan foydalanish; o‘qituvchi o‘qitish va o‘rgatish, shuningdek, mavjud imkoniyat va sharoitlardan unumli foydalanish uchun mas‘ul shaxs hisoblanadi. Bu vazifani

bajarish uchun o'qituvchi o'qitish jarayoni hamda o'qitiladigan fanlarning ilmiy va texnik jihatlarini to'liq bilishi lozim.

Bundan maqsad shuki, o'qitish uslubi shunday yo'lga qo'yilsinki, bunda o'quvchilar o'qitilayotgan fanni to'liq o'zlashtira olishsin.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

O'qitish usullarining o'quvchilar talabiga mos kelishini aniqlashda o'qituvchi o'z dasturining quyidagi oltita asosiy tarkibiy qismini hisobga olishi zarur:

1. Rejalashtirish
2. Imkoniyat va sharoitlar
3. Uslublar
4. Faoliyatlar
5. Teskari aloqa
6. Nazorat

O'qitish uslubini aniqlash yo'llaridan biri bu yuqorida keltirilgan oltita omilning har biriga tegishli bo'lgan savollar ro'yxatini tuzishdir. Ta'kidlash joizki, har bir tarkibiy qism talablarining to'liq bajarilishini ta'minlash hamda unga amal qilish tanlangan o'qitish uslubining samaradorligini oshiradi.

Rejalashtirish; O'qitish uslubi quyidagilarni o'z ichiga oladi, ya'ni:

- malakalar va ko'zlangan asosiy maqsadlar tahlili;
 - guruh tarkibi;
 - zarur bo'lgan malakalar;
 - o'rganilishi lozim bo'lgan fanlar;
 - o'rganishga ruhlantiruvchi omillar;
 - o'rganish turlari va imkoniyatlari;
 - o'quv material va uning zamonga mosligi;
- muammolarni aniqlash va echimlarni topishda tajribalarni umumlashtirish

zarurati;

- o'quv materialini taqdim etish usullariga bo'lgan ehtiyoj;

O'qitish uchun quyidagi sharoitlar mavjud bo'lishi zarur:

- o'quv xonalari;
- o'quv qurollari;
- audio-video materiallari;
- turli model va jihozlar;
- amaliy mashg'ulotlar uchun namunaviy qurollar;
- mavzuga oid topshiriq va vazifalar;
- guruh bo'lib yoki yakka tartibda o'qitish uslublari;
- baholash materiallari.

Uslublar;

О'qituvchi quyidagi o'qitish uslublaridan xabardor bo'lishi kerak:

- ishni bajarish bo'yicha ko'rsatmalar berib, o'qitish;
- maxsus kompyuter dasturlari yordamida o'qitish;
- ma'ruza qilib, o'qitish;
- namoyish qilish va tajriba o'tkazish;
- loyiha asosida ishlash;
- algoritm va turli tahlil uslublaridan foydalanish;
- holatni o'rganish;
- rol o'ynash, muhokama qilish va rag'batlantirish mashg'ulotlari;
- kompyuter yordamida o'qitish.

O'qitishning quyidagi qaysi bir uslubini qo'llash orqali eng yaxshi natijaga erishish mumkin?

- ma'ruza;
- mustaqil ish o'tkazish;
- tinglovchilar talabiga asoslangan o'qitish;
- yakka tartibda o'qitish;
- mehnat tajribasini orttirish imkoniyatini yaratish.
- o'qituvchining faqat bilimlarni tarqatuvchi bo'lib qolmay, balki bu bilimlarni tinglovchi o'zlashtira oladigan qilib etkazib beruvchi bo'la olishi;
- baholash tizimini tashkil etish;
- o'qituvchilar bilan tinglovchilar orasidagi teskari aloqani tez o'rnatish.

Yuqorida aniqlangan mezonlar asosida mos keladigan o'qitish va o'rgatish dasturini ishlab chiqish uchun o'qituvchi quyidagilarga qodir bo'lishi lozim:

- haqiqatda mavjud o'rgatish malakalariga ega bo'lish;
- o'quvchilarning bilim darajasini baholash uchun o'rnatilgan me'yorlarni aniqlash mezonini tushuntirib berish;
- o'quvchilarga o'qitish uslublarining mosligini aniqlash.

NATIJALAR

Jismoniy tarbiya va sport darslarida o'qitish uslublarini mujassamlashtirgan holda, zamonaviy pedagogik texnologiyalarni qo'llash samaradorligini oshirish metodi va vositalari. Hozirgi kunda barcha pedagoglar singari jismoniy tarbiya o'qituvchilariga ham darslarni zamonaviy pedagogik talablar asosida tashkil etish, darsga innovatsion yondashuvni, o'quvchilarni mustaqil fikrlashga o'rgatishni dars davomida shakllantirish kabi ilg'or pedagogik texnologiyalardan foydalanishni talab etadi.

Interfaol metod – ta'lim jarayonida o'quvchilar hamda o'qituvchi o'rtasidagi faollikni oshirish orqali o'quvchilarni jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlarida,

bilimlarni o'zlashtirishini faollashtirish, shaxsiy sifatlarini rivojlantirishga xizmat qiladi.

МУХОКАМА

Интерактив (interfaol)-inglizcha so'z bo'lib, "interakt" "inter"-bu, o'zaro, "akt"-bu —harakat qilmoq - ma'nosini anglatadi.

Umumlashtirganda esa —interaktiv (interfaol) —o'zaro harakat qilmoq ma'nosini anglatadi. noananaviy hamda interfaol dars orasidagi farqlar

1.O'quv rejadagi mavzularni o'qitishda, qaysi mavzular bo'yicha inter faol darslar tashkil qilish maqsadga muvofiqligini hisobga olish zarur.

Bunda bir mavzu bo'yicha mashg'ulotning maqsadiga to'liq erishishni ta'minlaydigan interfaol yoki an'anaviy mashg'ulot turlaridan foydalanish ko'zda tutiladi.

2.Interfaol mashg'ulotning samarali bo'lishi uchun o'quvchilar yangi mashg'ulotdan oldin, uning mavzusi bo'yicha asosiy tushunchalarni va dastlabki ma'lumotlarni bilishlarini ta'minlash zarur.

3. Interfaol mashg'ulotda o'quvchilarning mustaqil ishlashlari uchun an'anaviy mashg'ulotga nisbatan ko'p vaqt sarflanishini hisobga olish zarur.

Interfaol ta'lim usuli – har bir o'qituvchi tomonidan mavjud vositalar va o'z imkoniyatlari darajasida amalga oshiriladi.

Jismoniy tarbiya o'qituvchisi o'quvchilarning muayyan shart-sharoitlari darajasini bilsagina, ularning bilish va o'rganish faolligini oshirishga erisha oladi.

Buning uchun o'quvchilarning interfaol o'quv mashg'ulotga tayyorlash, o'tilgan mavzuni o'zlashtirib olishlari, xamda o'quv mashg'ulotiga tayyorlanib kelishlari, dars jarayonida o'qilgan yoki tinglangan matn yuzasidan muhokamalar

o'tkaza bilishlari, ijodiy , amaliy xarakterdagi topshiriqlarni osonlikcha bajarishlari zarur.

Ta'lim jarayoni faqat o'qituvchi tomonidan boshqariladigan jarayon emas, u o'quvchilar faoliyati bilan ham chambarchas bog'langan.

O'quvchining o'z-o'zini boshqarishi natijasida o'quv jarayoni faollashadi. Jismoniy tarbiya va sport darslarida o'quvchining o'z xatti-harakatini o'zi nazorat qilishi, yo'l qo'ygan xatolarini o'zi aniqlashi va bartaraf etishi, mustaqil holda xulosalar chiqarishi, reproduktiv, qisman izlanuvchanlik va ijodiy topshiriqlarni bajarishda ishtirok etishi , o'quvchi faolligini oshiradi va uni amalga tadbqiq etilishiga samarali ta'sir ko'rsatadi.

Jismoniy tarbiya va sportning nazariy, amaliy darslarida, interfaol metodlardan foydalanishning afzalligi:

1.O'quvchilarni mavzularni chuqur o'zlashtirilishi;

2. O'qituvchi tomonidan o'quvchilarni nazorat qilishning qulayligi
3. O'quvchilarni qisqa vaqt ichida ko'proq malumot olishi
4. O'quvchilarni ko'nikma va malakalarini maksimal rivojlanishi ,

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, interfaol ta'lim bir vaqtda bir nechta masalani hal etish imkoniyatini beradi.

Bulardan asosiysi-o'quvchilarning muloqot olib borish bo'yicha ko'nikma va malakalari rivojlanadi, o'quvchilar orasida emotsional aloqalar o'rnatilishiga yordam beradi, ularni jamoa tarkibida ishlashga, o'z o'rtoqlarining fikrini tinglashga o'rgatish orqali tarbiyaviy vazifalarning bajarilishini ta'minlaydi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR (REFERENCES)

1. Piraxunova F.N., Nazirov A.X. O'qitishning yangi pedagogik texnologiyalari. Uslubiy qo'llanma. –T.: "IQTISOD-MOLIYA". 2008, 3-48 bet.
2. O'zbekiston Respublikasida Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi. "O'zbekiston", Toshkent, 1997 yil.
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 16 oktyabrdagi "Oliy va o'rta maxsus ta'lim davlat standartlarini tasdiqlash to'g'risida"gi qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2006 yilda mamlakatimizni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish yakunlari va 2007 yilda iqtisodiy islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim ustuvor yo'nalishlariga bag'ishlangan majlisi materiallaridan "O'zbekiston ovozi" gazetasi, 2007 y 12 fevral.
5. Бордовская Н.В. Диалектика педагогического Исследования. –М.; 2001.
6. Селевко Г. Современные образовательные технологии: Учеб. пособ. –М. 1998 год.

TA'LIM DASTURLARI VA KASB STANDARTLARI O'RTASIDAGI BOG'LIQLIK

Saidova Feruzaxon Qobiljon qizi
Otaxonova Mavjudaxon Alijon qizi

*O'zbekiston tumani 1-son kasb-hunar maktabi uslubchsi,
ishlab chiqarish ta'lim ustasi O'zbekiston tumani,
Farg'ona viloyati, O'zbekiston respublikasi*

Annotatsiya: Kasb standartlari o'quv rejasi dastur yoki malaka talablarning barcha asosiy elementlarini belgilaydi. Milliy o'quv dasturlari spetsifikatsiyalari keng tarqalgan, ammo ularning aniqligi mamlakatga qarab farqlanadi, mazmuni va tafsilot darajasi. Ular kasb-hunar ta'limining poydevori, o'qituvchilar va ishlab chiqarish ta'lim ustalariga kasblarni o'qitish va o'rganishda spetsifikatsiya yoki ramka bo'lib xizmat qiladi, ba'zi mamlakatlarda "malaka spetsifikatsiyasi" kabi boshqa atamalar ham ishlatilishi mumkin. O'quv dasturlarida kutilayotgan natijalar o'quv natijalari sifatida ifodalanadi.

Kalit so'zlar: Kasb, kompetensiya, kvalifikatsiya, mutaxassislik, kasb standarti, malaka talab, o'quv dasturi, ta'lim dasturlari.

Professional ta'lim muassasalari uchun O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 31 dekabrda PQ-4939-son qarorida belgilangan vazifalar ya'ni professional ta'lim muassasalarining ta'lim dasturlarini kasbiy standartlar asosida ishlab chiqishni samarali tashkil etish maqsadida Oliy ta'lim fan va innovatsiyalar vazirligi Professional ta'limni rivojlantirish instituti hamda professional ta'lim muassasa o'qituvchilari va ishlab chiqarish ta'lim ustalari hamkorlikda namunaviy o'quv rejalar, malaka talab va o'quv dasturlari ishlab chiqilmoqda.


Ta'lim dasturi kasbiy standart asosida ishlab chiqiladi. Shu tariqa, ish beruvchilarning mutaxassislarga qo'yiladigan malaka talablari bo'yicha qarashlari ish beruvchilar tomonidan ishlab chiqilgan kasbiy standartda o'z aksini topadi. Shu bilan birga, ta'lim dasturini ishlab chiqishning bir qismi sifatida ish beruvchilar uchun, xususan, ish joyida o'qitish natijalari va mazmunini aniqlash va unga pedagogik yondashuv to'g'risida konsultatsiyalar tashkil etish zarur bo'ladi. Shu bilan birga, korxonalardagi real imkoniyatlarni hisobga olish kerak bo'ladi.

Kasbiy standartlar asosida o'quv dasturlarini ishlab chiqishda quyidagi jihatlarga e'tibor qaratish kerak:

- ta'lim dasturlari doirasida o'qitiladigan kasbning kvalifikatsiyalarga o'xshash yoki bir xil nomga ega bo'lgan bitta kasbiy standart mos bo'lishi mumkin;
- ta'lim dasturlari doirasida o'qitiladigan kvalifikatsiyaga kasbiy standartning faqat ma'lum bir qismi to'g'ri kelishi, ya'ni mehnat funktsiyalari/ vazifalari yoki bir qismi mos kelishi mumkin;
- ta'lim dasturi doirasida o'rgatiladigan kasbning kvalifikatsiyalarga bir nechta kasbiy standartlarga mos kelishi mumkin.

Ishchi guruh a'zolari ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda kasbiy standartlarni qo'yidagi mezonlarga (kriteriyalarga) asoslangan holda tanlaydilar:

- kasbiy standartdagi (kasb standartining) malaka darajasi va mazmuni kasb mazmuni va nomiga mosligini;
- boshqa kasb standartlaridagi kasblarning mazmuni ta'lim dasturi ishlab chiqilayotgan kasb kvalifikatsiyasi malaka talablariga javob berishini aniqlash.



O'quv dasturlari bilan kasb standartlari o'rtasidagi bog'lik.

Ta'lim dasturlarini ishlab chiqish uchun kasbiy standartlarni tanlash juda muhim.

Kasb ta'lim dasturi va shu kasb bo'yicha ishlab chiqilgan kasbiy standart mazmuni bir-biridan farq qilishi mumkin, chunki kasb standartlari mehnat sohasida qo'llaniladigan ma'lum bir kvalifikatsiya (kasb yoki mutaxassislik) uchun ishlab chiqiladi (masalan pardoqlash ishlari ustasi, bo'yoqchi, g'isht teruvchi va boshqalar) ta'lim dasturlari esa "Professional ta'limning tayyorlov yo'nalishlari, kasblar va

mutaxassisliklar klassifiaktori" asosida ishlab chiqiladi. Bunda bitta kasb doriyasida unga aloqador bo'lgan bir nechta kvalifikatsiya bo'lishi evaziga ta'lim

dasturi mazmun va hajm jihatdan kasbiy standartdan farq qilishi mumkin. Masalan, pardoqlash, bo‘yoq va g‘isht terish ishlariga yo‘naltirilgan keng profildagi quruvchi-usta va boshqalar.

Ta'lim dasturini ishlab chiqishning asosiy bosqichlari:

1. kasbiy kompetentsiyalarni aniqlash ya'ni kasbiy kompetentsiyalarni kasbiy standartdagi mehnat funktsiyasini amalga oshirish uchun zarur bo‘lgan mehnat harakatlari mazmuniga muvofiq belgilash;
2. kasbiy kompetentsiyalarni shakllantirish uchun zarur bilim va ko‘nikmalar asosida o‘qitish natijalari va o‘quv (fan) modullarini aniqlash;
3. “O‘qitish natijalari”ga erishilganlikni aniqlash uchun umumiy modul (fan) bo‘yicha va har bir mavzu kesimida alohida “Baholash mezonlari”ni belgilash.

Ta'lim dasturlarini ishlab chiqishda soha mutaxassislar bilan birgalikda kasbiy standartning barcha mehnat funktsiyalari va mehnat faoliyatlari tahlil qilinadi. Chunki ishchi kasblarning kasbiy standartlari asosan barcha toifadagi malaka darajalari bo‘yicha ishlab chiqilgan bo‘ladi.

Professional ta'limning qaysi darajasi uchun ta'lim dasturlari ishlab chiqish maqsad qilingan bo‘lsa, ushbu umumlashtirilgan mehnat funktsiyalarning tegishli mehnat funktsiyalariga doir malaka darajasi toifalari bo‘yicha aniqlashtirib olinadi.

Ta'lim dasturlarini baholashning birinchi bosqichi ta'lim dasturini ishlab chiqish jarayonida amalga oshiriladi. Ushbu bosqichda ta'lim dasturi mazmunini ish beruvchilari bilan muvofiqlashtirish tartibini amalga oshiriladi. Malaka natijalarini muvofiqlashtirish tartibi ushbu malaka bo‘yicha mutaxassislarni tayyorlashdan manfaatdor bo‘lgan ish beruvchilar bilan amalga oshiriladi. Buning uchun mehnat funktsiyalari, vazifalari va harakatlari ro‘yxati bilan anketalardan foydalanish tavsiya etiladi.

Ta'lim dasturi sifatini baholashning ikkinchi bosqichi mutaxassisliklar bo‘yicha ish beruvchilar, metodistlar va kollej o‘qituvchilari vakillaridan tashkil topgan O‘quv metodik birlashmalar negizida tuzilgan ekspert komissiyasi tomonidan amalga oshiriladi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. “Kasb standartlari asosida ta'lim dasturlari ishlab chiqish bo‘yicha” metodik qo‘llanma. Toshkent 2022.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 31.12.2020 yildagi PQ-4939-son. **MALAKALARNI BAHOLASH TIZIMINI TUBDAN TAKOMILLASHTIRISH VA MEHNAT BOZORINI MALAKALI KADRLAR BILAN TA’MINLASH CHORA-TADBIRLARI TO’G’RISIDA.**

“YASHIL IQTISODIYOT’GA O’TISHDA KASB-HUNAR MAKTABLARIDA “YASHIL ENERGIYA” O’QUV-AMALIYOT USTAXONALARI BARPO ETISH VA O’RTA BO’G’IM MUTAXASSISLARINI TAYYORLASH

Sattorova Dilfuzaxon Qurbonaliyevna

*O’zbekiston tumani 1-son kasb-hunar maktabi direktori,
O’zbekiston tumani, Farg’ona viloyati, O’zbekiston respublikasi*

ANNOTATSIYA

Maqolada kasb-hunar tizimida qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan unumli foydalanish maqsadida zarur o’quv laboratoriya- ustaxonalarini tashkil etish va bu soha uchun o’rta bo’g’in mutaxassislarini tayyorlash masalasida so’z yuritilgan. Ushbu o’quv amaliyot ustaxonalarini tashkil etish orqali “yashil” energetikani rivojlantirish, xususan, qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy qilish, shuningdek, energiya samaradorligini oshirish va ishlab chiqarish sohasida mamlakat iqtisodiyotiga hissa qo’shish orqali kasb-hunar maktablarida qo’shimcha daromad keltirishni ham yaratadi.

ANNOTATSIYA

The article talks about the organization of the necessary workshops and laboratories and the training of middle-level specialists for renewable energy sources in the professional system. Through the organization of these training workshops, producing "green" energy, in particular, input of the wide introduction of renewable energy sources the contribution will be carried out and it will bring additional income to vocational schools.

Tayanch soʻzlar: "yashil iqtisodiyot", barqaror rivojlanish, atrof-muhit, qayta tiklanadigan energiya, kasb-hunar, "yashil energetika", "yashil" ish o’rinlari, elektr energetika, energiya, professional ta’lim.

Tayanch soʻzlar: "green economy", stable development, the environment, qayta tiklanadigan energiya,, renewable energy, profession, green energy, "green" workplaces, electric energy, professional education..

Ma’lumki, O’zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.Mirziyoyevning “2019-2030-yillar davrida O’zbekiston Respublikasining “Yashil” iqtisodiyotga o’tish strategiyasini tasdiqlash to’g’risida”gi 04.10.2019 yildagi PQ-4477-son qarori mamlakatimizda yashil iqtisodiyotga bo’lgan e’tiborning qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko’rsatib beradi.

Qarorga ko'ra, qayta tiklanuvchi energiya resurslaridan keng foydalanish orqali yoqilg'i balansini diversifikatsiyab an'anaviy yoqilg'i turlarini qayta tiklanadigan energiya turlariga almashtirish hisobiga ularning elektr va issiqlik energiyasi ishlab chiqarishdagi hissasini kamaytirish shu kunning dolzarb masalalaridan biridir. Shu bilan birga, qayta tiklanadigan energiya turlaridan foydalanish sanoat hududlarining ekologik holatini yaxshilashga xizmat qiladi. Qayta tiklanuvchi energetikani yanada rivojlantirishning maqsadli parametrlari tasdiqlandi, bunda 2025-yilga kelib elektr energiyasini ishlab chiqarish quvvatlari tarkibida qayta tiklanuvchi energiya manbalarining hissasini 12,7 foizdan 19,7 foizga yetkazish ko'zda tutilmoqda, jumladan, gidroelektrostansiyalar bo'yicha 12,7 foizdan 15,8 foizga, quyosh energetikasi bo'yicha 2,3 foizga, shamol energetikasi bo'yicha 1,6 foizga oshirish rejalashtirilgan. Shuningdek, qayta tiklanuvchi energetikani rivojlantirish bo'yicha investitsiya loyihalari doirasida 2017-2025 yillarda umumiy qiymati 5,3 milliard dollar bo'lgan 810 ta loyihani amalga oshirish ko'zda tutilmoqda. 2017-2021yillarda byudjet tashkilotlarida energiya iste'moli jihatidan samarador isitish qozonlarini joriy qilish jadvaliga ko'ra, Maktabgacha va maktab ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi tasarrufidagi 6333 ta budjet tashkilotining 17251 ta isitish qozonini almashtirish ko'zda tutilgan. Shuningdek, shu yillarda Qishloq va suv xo'jaligi vazirligining suv xo'jaligi tashkilotlarida 879 ta nasos va 1523 ta elektrodvigatelni almashtirish ko'zda tutilgan. Bundan tashqari, atrof-muhitni muhofaza qilish, ekologiya va energetika xavfsizligini ta'minlash, ijtimoiy vazifalarni hal etish, aholi turmush sifatini yuksaltirish, kelgusi avlodlar uchun qayta tiklanmaydigan uglevodorod energiya resurslari zaxirasini saqlash qayta tiklanadigan energiya manbalarini rivojlantirishga xizmat qiladigan asosiy omillardir ekanligi barchaga ma'lumdir.

Ayni paytda ushbu yo'nalishda quyosh energiyasidan foydalanishni kengaytirishni nazarda tutadigan muhim tashkiliy va amaliy tadbirlar hayotga tatbiq etilmoqda. Zero, quyosh energiyasidan foydalanish O'zbekiston qulay geografik joylashuvga ega bo'lib, mamlakatda yiliga 320 kun quyoshli kun hisoblanadi.

Bugungi kunda muqobil energetika dunyo yoqilg'i-energetika kompleksini rivojlantirishda tobora muhim o'rin tutmoqda. Tabiiy resurslar miqdori tobora kamayib borayotganligi hamda ishlab chiqarishdagi chiqindi gazlarning atrof-muhitga zararlari ushbu sohaning rivojlanishiga sabab bo'lmoqda. Shundan kelib chiqib, jahon iqtisodiyotida ro'y berayotgan inqirozli hodisalarga qaramasdan, muqobil energetika sohasiga va eng avvalo, qayta tiklanadigan energiya manbalarini o'zlashtirishga kata sarmoyalar sarflanayotganini kuzatmoqdamiz.

Misol tariqasida Sirdaryo viloyati Shirin shahrida joylashgan Shirin Energetika Kolleji Saudiya Arabistonining "ACWA Power" kompaniyasi buyurtmasi asosida

yoshlarni Muqobil energiya stansiyasi “texnigi”, “operatori” va “dispetcheri” kabi kasblarga tayyorlash boshlangan. Buning uchun ushbu horijiy kompaniya ko'magida 2 million 800 ming AQSH dollari qiymatida kollejda zamonaviy ustaxona, laboratoriya va yotoqxonalar barpo etilgan. Shundan kelib chiqqan holda aytishimiz mumkinki, mamlakatimizda joylashgan boshqa professional ta'lim muassasalarida ham ushbu loyihlarni amalga oshirish mumkin.

Jumladan, yashil iqtisodiyotni rivojlantirish borasida Farg'ona viloyatida joylashgan O'zbekiston tumani 1-son kasb-hunar maktabimizda ham muqobil energiya ishlab chiqarish loyihasini amalga oshirish rejalashtirilgan. Tumanimizda 20 dan ortiq yirik korxonalar, 500 dan ziyod kichik va o'rta biznes subyektlari va 100 dan ortiq davlat tashkilotlari mavjud bo'lib, yaqin istiqbolda ularning aksariyati yashil energiya manbalaridan foydalanishga o'tishi kutilmoqda. Shundan kelib chiqib, kasb-hunar maktabimizda yashil energiya ishlab chiqarish bo'yicha dastlabki loyiha tayyorlanmoqda. Bundan ko'zlangan maqsad, avvalo, shu soha bo'yicha o'rta bo'g'in mutaxassislarini tayyorlab berish, bu orqali tumanimizda kadrlar ehtiyojini qoplash, aholi bangligini ta'minlashga ko'mak berish va qolaversa, byudjetdan yashqari mablag' topish'ni rivojlantirish ko'zda tutilgan. Bu borada maktabda tajriba sifatida o'quv-amaliyot ustaxonasi tashkil etish ko'zda tutilgan.

-Eksperimental qurilma laboratoriya stolida joylashgan quyosh panellari, akumulyatorlar, invertorlar va boshqa jihozlar o'rnatiladi, va bu laboratoriya asosida jihozlar yig'iladi, amaliy ish rejalari tuziladi.

-Muqobil energiya manbalariga texnik xizmat ko'rsatish kasb mutaxassislarini Respublikamizning barcha professional ta'lim muassasalarida joriy qilish, bu kasb bo'yicha kasb standartlari, kasb standartlariga asoslangan malaka talab va namunaviy rejalarni ishlab chiqarish ko'zda tutilmoqda.

-Energetikaga doir islohotlarning ahamiyatini inobatga oladigan bo'lsak, qayta tiklanuvchi energiya manbalari sohasida yuqori malakali va raqobatbardosh kadrlar tayyorlash qanchalik dolzarb ekanligi, energetika sohasida, xususan, qayta tiklanadigan energetikani rivojlantirish uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlash professional ta'lim muassasalarining oldida turgan asosiy maqsadlaridan biri bo'lib qolmoqda.

-Shuningdek" yashil iqtisodiyotga o'tishda muqobil energiya manbalarini o'rnatish va elektr energiyasini ishlab chiqarish Respublikamizdagi energiya ehtiyojlarini to'ldirish, bundan maqsad yangi ish o'rinlari yaratilib, yoshlarni ish bilan ta'minlash samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Xulosa o'rnida shuni aytish, mumkinki, kasb-hunar maktablarida yashil energiya ishlab chiqarish maqsadida tashkil etiladigan o'quv laboratoriyalar, ustaxonalar kelesakda yuzaga chiqadigan soha mutaxassislariga bo'lgan ehtiyojni qoplashga

xizmat qiladi. Kasb-hunar maktablarida tayyorlab beriladigan o'rta bo'g'im mutaxassislar, ya'ni qayta tiklanadigan energiya bo'yicha montajchi, xizmat ko'rsatuvchi va dispetcherlar tayyorlanib yashil energiya sohasida o'z ish o'rinlariga ega bo'ladilar. Bu mehnat bozoriga mos kadrlar yetishtirishda o'z salmoqli xissasini qoshish bilan birgalikda, kasb-hunar maktablarida tashkil etilgan "yashil energiya" laboratoriya va ustaxonalari orqali qoshimcha daromad ham olinadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 04.10.2019 йилдаги ПҚ-4477-сон қарори,
2. R.Zohidov, "Muqobil energetikani rivojlantirish yo'lida". O'zR FA Energetika va avtomatika instituti bo'lim mudiri, akademik. <https://uza.uz/posts/81064>
3. Yuldoshev I.A., Shog'o_chqorov S.Q. —Muqobil energiya manbalari fanidan laboratoriya ishlarini bajarishga oid uslubiy ko'rsatmalar. Toshkent: ToshDTU, 2019. 60 b.

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH FANINING ASOSIY MAZMUNI VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

Fozilova Ozodaxon Sobitali qizi

*O'zbekiston respublikasi farg'ona viloyati o'zbekiston tuman
1-son kasb hunar maktabi ishlab chiqarish ta'lim ustasi*

Annotatsiya: Mehnat muhofazasining ergonomik va psixologik asoslari, zararsiz va xavfsiz mehnat sharoitini yaratishning asosiy yo'llari, mehnat sharoiti va xavfsizligini aniqlovchi asosiy omillar tahlili, ishlab chiqarishdagi mehnat sharoitining xususiyatlari, mehnat sharoiti va xavfsizligini tekshirish usullari, ishlarning jismoniy og'irligi va zararliligi bo'yicha tasniflanishi, jarohatlanish ko'rsatkichlari, mehnatni muhofaza qilishni boshqarish asoslari, mehnat xavfsizligi ko'rsatkichlari, ishlab chiqarishda jarohatlanish va kasbiy kasallanishning profilaktik asoslari, mehnatni muhofaza qilishning ijtimoiy-iqtisodiy jihatlari kabi masalalar o'rganiladi.

Kalit so'zlar: Mehnat muhofazasi, mehnat xavfsizligi, texnika xavfsizligi, kasb ko'nikmalari, yong'in xavfsizligi, ishlab chiqarish, baxtsiz hodisalar.

MEHNATNI MUHOFAZA QILISH FANINING ASOSIY MAZMUNI VA IJTIMOIIY AHAMIYATI

“Mehnatni muhofaza qilish” fani insonning ishlab chiqarishdagi faoliyatida sodir bo'ladigan turli shakldagi xavflarni bartaraf etish va ulardan himoyalaniish yo'llarini o'rganishga qaratilgan nazariy fandir. U keng qamrovli ilmiy-amaliy izlanishlar va tadqiqotlar asosida rivojlanib, takomillashib boradi. Insonning mehnat xavfsizligini ta'minlashda ilmiy-nazariy izlanishlar asosida vujudga kelgan qonunlar, nizomlar, standartlar, ko'rsatmalar, qoidalar va sanitar-texnik me'yorlar hamda ularni o'rganish bo'yicha uzluksiz ta'lim-tarbiya tizimini vujudga keltirish, uni rivojlantirish muhim o'rin tutadi. Mehnatni muhofaza qilish fanining asosiy maqsadi talabalarga insonning ishlab chiqarishdagi mehnat faoliyati davrida yuzaga keladigan xavfli faktorlar, ularning kelib chiqish sabablari va bartaraf etish yo'llari, mehnat xavfsizligini ta'minlash hamda xavfsiz va sog'lom ish sharoitlarini yaratish bo'yicha nazariy bilim berish va amaliy ko'nikmalar hosil qilishdan iboratdir. Yuqoridagilarga mos holda talabalar fanni o'rganish davomida quyidagilarni nazariy jihatdan o'zlashtirishlari lozim:

mehnat xavfsizligining nazariy asoslari. Ergonomika va mehnat xavfsizligi psixologiyasi haqida tushuncha; – mehnat xavfsizligini ta'minlovchi asosiy tamoyillar, uslublar va vositalar tizimi; – mehnat xavfsizligini boshqarish asoslari; –

mehnat xavfsizligining huquqiy va tashkiliy asoslari. Mehnatni muhofaza qilish bo'yicha qonunlar, standartlar tizimi, nizomlar, ko'rsatmalar, ishlab chiqarish sanitariyasi me'yorlari va boshqa me'yoriy hujjatlar:

- ishlab chiqarishda mehnat xavfsizligini ta'minlash, sog'lom va xavfsiz ish sharoitlarini yaratish bo'yicha rejali tadbirlar mazmuni, uni ishlab chiqish tartibi;
- ishlab chiqarishdagi baxtsiz hodisalarni tahlil qilish, ularni tekshirish va hujjatlashtirish tartiblari;
- mehnat xavfsizligini ta'minlashning iqtisodiy samaradorligini oshirish, baxtsiz hodisalar sabablarini aniqlash uslublarini o'rganish;
- xavfsiz mehnat sharoitini ta'minlashga qaratilgan shaxsiy himoya vositalari bilan ishchi-xizmatchilarni ta'minlash tartibi va ulardan foydalanish yo'llari;
- sog'lom va xavfsiz mehnat sharoitini yaratish bo'yicha sanitar-gigiyenik tadbirlar;
- ishlab chiqarishdagi texnika vositalaridan, mashinamexanizmlar, qurilmalar va moslamalardan foydalanishdagi xavfsizlik qoidalari; – yong'in xavfsizligi. Yong'inning kelib chiqish sabablari, uning oldini olish, yong'inni o'chirish texnika vositalari va usullari; – jarohatlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish tartibi va qoidalari. Yuqorida qayd etilgan nazariy bilimlarga asoslangan holda har bir kasb egasi fanni o'rganish bilan quyidagilarni amalda uddalashlari lozim: – xavfli va zararli ishlab chiqarish jarayonlarini baholash; – mehnat xavfsizligini ta'minlash bo'yicha maqbul variantlarni tanlashda mustaqil qarorlar qabul qilish; – xavfsizlik texnikasi bo'yicha yo'riqnomalar («instruktaj») bilan tanishish va ularni hujjatlashtirish tartiblarini bilish; – malakali ravishda baxtsiz hodisalarni tekshirish va ularning sabablarini aniqlash; – mehnat muhofazasi bo'yicha ko'rsatmalar («instruksiya»)ni mustaqil tahlil qilish va o'rganish; – ishlab chiqarish xonalari va ish joylarining sanitar-gigiyenik holatini belgilovchi ko'rsatkichlarni (gazlanganlik va changlanganlik darajasi, shovqin va titrash, yoritilganlik, xopra havosining harorati, nisbiy namligi, harakatlanish tezligi, bosimi va b.) aniqlovchi asbob-uskunalar va jihozlardan foydalana bilish; – o't o'chirgichlar va o't o'chirish texnikalarini ishlata bilish; – jarohatlangan yoki shikastlanganlarga birinchi tibbiy yordam ko'rsatish.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'R. Yo'ldoshev, O.D. Rahimov, K.T. Xo'jaqulov, O.T. Hasanova. Mehnat muhofazasi va texnika xavfsizligi. – T.: «Fan va texnologiya» nashriyoti, 2012.
2. Yormatov G'. "Mehnatni muhofaza qilish" Toshkent, 2001y.
3. Boymirzayev A. "Hayot xavfsizligi va birinchi tibbiy yordam" T.: Zilol buloq, 2019.-396

JIZZAX VILOYATI G'ALLAOROL TUMANI AHOLISINING ETNOGRAFIK URF-ODAT VA MAROSIMLARI TARIXIDAN

Pardayev Ahrorqul Hasanovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti dotsenti, t.f.n.,

Primqulova Dinora Sayfiddin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada Vatanimiz qadim o'tmishi madaniyati o'z o'rniga ega bo'lgan Jizzax viloyati G'allaorol tumanining chekka-chekka qishloqlarida bugungi kunda ham o'tkazilib kelinayotgan qadimiy urf-odat va an'analarimiz ularda amalga oshirilayotgan marosimlarimiz haqida fikr yuritiladi. Maqolada nikoh to'yi, sunnat to'yi, milliy o'yinlarimiz, baxshichilik san'atida kuyga solinadigan dostonlarimizga alohida o'rin berilgan va to'y marosimlarimizdagi isrofgarchilik, dabdababozlikning oldini olish haqida mualliflar tomonidan atroflicha fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Jizzax viloyati, G'allaorol tumani, Navro'z, lola sayli, urf-odat, yor-yor, doston, alla, etnolog, to'y-marosim, arqon, sovchi, beshik, kurash, ko'pkari.

Jizzax viloyatining janubi-g'arbiy qismida joylashgan, obod va go'zal maskan hisoblanuvchi G'allaorol tumani 1926-yil 29-sentabrda tashkil etilgan va 1931-yilgacha Yangiqo'rg'on tumani deb atalgan. Shimolidan Forish, sharqdan Jizzax, janubidan Baxmal tumani, janubi-g'arb va g'arbdan Samarqand viloyati bilan chegaradosh bo'lgan bu tuman maydoni 2,0 ming km² teng. Tuman aholisining milliy etnik tarkibiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, tumanda 2017-yil ma'lumotiga ko'ra, asosan o'zbeklar (154 572 nafar), ruslar (234 nafar), tatarlar (460 nafar), qirg'izlar (83 nafar), qozoqlar (65 nafar), tojiklar (49 nafar) va boshqalar (108 nafar)ni tashkil qiladi[6]. Hududi qir- adir, tog'oldi va tog'lardan iborat bo'lganligi bois, tabiiy resurslarga boy, iqlimi bahavo, nabotot va hayvonot olami rang- barang, tuprog'i unumdor, eng muhimi xalqi zahmatkash va sahovatli, tadbirkor va hunarmand. Tumanning markaziy va g'arbiy qismi tekislik, shimoliy va shimoli-g'arbiy qismi qir, baland adir va tog'lardan iborat. Shimoldan Murota tizmalari, sharqdan Morguzar tog'i bilan o'ralgan. Tuman iqtisodiyotining barcha sohalarida - sanoat, kichik sanoat, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, qishloq xo'jaligi, qurilish, transportda ulkan bunyodkorlik ishlari amalga oshirilmoqda[4].

Maqolaning asosiy manbasini dala etnografik materiallari tashkil etadi. Dala etnografik materiallari suhbat va shaxsiy kuzatish asosida to'planadi. Suhbat jarayonida ko'proq an'analarimizni yaxshi tushungan nuroniy otaxonlarimiz, yuz bilan yuzlashayotgan momolarimiz bergan ma'lumotlarlandan foydalanildi.

Milliy o'yinlarimizning to'y marosimlarimizning o'tkazilishining ham o'z tarixi va voqeligi bor desak mubolag'a bo'lmaydi. Bugungi kunda G'allaorol tumanida shunday milliy qadriyatlarimiz saqlanib qolgan. Bu milliy qadriyatlarimiz

nafaqat G'allaorol, balki butun yurtimizda ma'lum va mashhur. Bulardan "Ko'pkari", "Kurash", "Happak", "Besh tosh", "Oq terakmi ko'k terak", "Bekinmachoq", "Chillak", "Arqon tortish" kabi o'yinlar, ko'p qadimiy o'yinlar, chaqaloqning tug'ilishi bilan bog'liq "Chilla" va "Chilla qochdi", yosh kelin-kuyov to'yi bilan bog'liq unashtiruv marosimlar, "Fotiha", "Boqon", "Shox Iloq", "Oyoq bosdi", "Joy ag'darar", "Un elash" va boshqa urf-odatlar hali hanuz Jizzax viloyati G'allaorol tumanida saqlanib qolgan[3]. Eng quvonarli tomoni shundaki, oilaviy marosim, to'y tadbirlarda yangragan qo'shiq, yor-yor, o'lan, kelin-salomlar xalq poetik ijodining mumtoz namunalari bo'lib qolib, shu bugungi kungacha yetib kelgan.

To'y marosimlari

Barcha tarixiy bosqichlarda to'yning asosiy negizi diniy nikoh o'qitish hisoblangan. Sho'ro hukumatining taqiqlariga qaramasdan, bu marosim doim imijida o'tkazilib kelingan. XX asrning 20- yillarida majburiy nikoh unsuri sifatida ZAGS-(FHDYo)dan qayd ettirish, keyinchalik nikoh uylarida ZAGS-dan o'tish joriy etilgan. XX asrning 80- yillarida esa Jizzax viloyati shu jumladan G'allaorol tumanida ham ZAGS dan o'tish nikoh to'yining o'zida ham o'tkazila boshlandi, ayni vaqtda diniy nikoh ham o'qitilmoqda[3].

Qadimdan meros bo'lib kelayotgan to'y marosimlar islomgacha va islomdan keyingi udum, marosimlar bilan qorishib ketgan. Islomiyatdan avval ular magik xarakterga ega bo'lgan. Jumladan, yoshlarini yomon ko'zdan va balo- qazolardan asrash uchun gulxan atrofida aylantirishadi, boshlari uzra katta yoping'ich tutishadi. Bundan maqsad ikki yoshning farovon turmush kechirishlarini (yoshlarga shirinlik va tangalar sochiladi), serfarzand, uvali-juvali bo'lishlarini (bolalarni tizzaga o'tqazishadi, pishgan tuxum bilan mehmon qilishadi) ta'minlashi lozim.

Kelin tushadigan xonadonga chimildiq osib, baxtli va serfarzand bo'lsin deya chimildiqqa bir juft taxta qoshiq, novot osib qo'yiladi. Nikoh to'yi marosimlarini boshlab beruvchi dastlabki marosim sovchilik hisoblanadi. Sovchilar to'g'risidagi ilk ma'lumotlarni VII-VIII asrlarga oid O'rxun-Enasoy bitiklarida uchratamiz. Buyuk davlat arbobi Tunyuquq(VII asr) bitikdoshida "sov" kalimasi sab-so'z gap ma'nosida ishlatilgan. Demak, bunday yangi oilani paydo bo'lishidagi sovchilik udumi uzoq o'tmishda shakllanganligiga guvoh bo'lamiz. G'allaorol tumanida "Ko'rpa qavish", "Maslahat oshi", "Sabzi to'g'rar", "mol yoyar" va boshqa udumlarni xuddi ilgariidek, qarindoshlar, qo'shnilar davrasida o'tkazish an'anasi hanuzgacha saqlanib qolgan[3]. Shu bilan birga bu udumlarga bir qancha yangiliklar kirib kelgan, xususan to'y tantanalarida ayollar va erkaklar birga qatnashadi, to'yga professional artistlar taklif etiladigan bo'ldi.

Yaqin yillardan boshlab G'allaorolda to'ylar ilk marotaba restoran va kafelarda o'tkazila boshlandi. Kelin va kuyov liboslari ham o'zgarib, kelinning qalin ro'moli o'rnini zamonaviy moda asosida fata egalladi, biroq kuyov kiyimida milliy chopon va salla saqlanib qoldi. To'yga taklif qilinadiganlar tarkibi ham o'zgarib, unda qarindoshlar, mahalla, qo'ni-qo'shnilar qatorida hamkasb va birga o'qiydiganlar ishtirok etadigan bo'ldi. O'tgan asrning 70- 80- yillarda shaharning yodgorlik o'rnatilgan joylariga gul qo'yish, suratga tushish, video tasmaga olish, kelin-

kuyovning bir-biriga uzuk taqish an'analari kirib keldi. Nikoh to'yining so'nggi bosqichi kelinning yangi oilaga kirib kelishi, qarindoshlar bilan tanishishi, "kelin salom", "bet ochar", "quda chaqiriq" bilan yakunlanadi[1].

XX asrning oxirlarida to'y- marosimlarining ko'p chiqimlilikligi sabab Jizzax viloyati, shu jumladan G'allaorol tumanida ham challar va quda chaqiriq qo'shib o'tkaziladigan bo'ldi. Bola tug'ilishi bilan bog'liq marosimlarga azon, aqiqa to'y, soch (kokil) to'y, beshik to'y, o'g'il to'y, muchal to'y kabi rasm-rusumlar kiradi. Bu marosimlarda ko'plab an'analar saqlanib qolgan. Allohga shukronalik belgisi sifatida farzand tug'ilganidan keyin 20 kun ichida qilinadigan aqiqa to'y, chaqaloqqa azon aytish va chilla saqlash ham o'tkaziladi.

Beshik to'y ayollarning o'ziga xos bayrami hisoblanib, chaqaloqning buvisi(ona tomonidan) shu kuni uni beshikka belashadi. Bu tadbir odatda, turli magik marosimlar bajarish yo'li bilan o'tkaziladi. Go'yoki, bu marosim yordamida chaqaloqni yovuz ruhlardan haydaydi. An'anaviy udumga ko'ra chaqaloqni beshikka yotqizish va isiriq tutatishga rioya qilinadi. Go'dakning birinchi qadamini qo'yishi, birinchi tishining chiqishi va sochining birinchi marta olinishi (soch to'y) munosabati bilan muayyan marosimlar bajariladi[1].

XX asrning ikkinchi yarmidan e'tiboran bolaning tug'ilgan kunini nishonlash marosimi keng tarqaldi. Insonning 50, 60, 70, 80 yoshlik yubileyini o'tkazish ommaviylashdi. G'allaorolliklarning oilaviy marosimlari ichida avvalgidek eng katta to'y marosimi o'g'il to'y hisoblanadi. Sovet tuzumida ushbu marosimni qanchalik yo'qotishga harakat qilinganligiga qaramay, barcha oilalarda yashirin ravishda yoxud qandaydir marosimlarga (bobosining yubileyi, tug'ilgan kun va boshqalarga) qo'shilgan holda o'tkazib kelingan. Ayrim joylarda o'g'il to'y 4-5 kun davom etadi[2]. XX asrning 70-80- yillarida barcha turdagi to'y marosimlarini o'tkazish G'allaorol aholisining ma'lum qatlami tomonidan ortiqcha dabdaba va isrofgarchilikka yol qo'yilishi bilan ajralib turadi. Badavlat oilalar to'y marosimlarni o'tkazishda o'zlarining moddiy imkoniyatlarini boshqalarga ko'z- ko'z qilish, jamiyatdagi obro'- e'tiborlarini mustahkamlash yo'lida foydalangan. Bularning barchasi aholining qolgan qatlamida norozilikni keltirib chiqargan. Davlat va jamoatchilik, mahalla ahli tomonidan ushbu tendensiya qoralanib, an'anaviy marosim mazmun mohiyatiga ko'pincha zid hisoblangan isrofgarchilik, dabdababozlikka chek qo'yish to'g'risida chora ko'rildi. XX asrning oxiridan boshlab G'allaorolda aqiqa, beshik to'y va o'gil to'y yagona tadbirga birlashtirilib, iqtisod qilingan pullarga onalar ro'zg'or buyumlarini olishgan.

Diniy marosimlar

Dafn hamda ta'ziya marosimlaridagi diniy an'analar (janoza va boshqalar) sovet hukumatining taqiqlariga qaramay aholi tomonidan o'tkazib kelingan, chunki nafaqat G'allaorol, balki butun Respublika aholisining bu marosimlarga nisbatan e'tiqodi kuchli bo'lgan. Dinga qarshi kurash aholining e'tiqodini sindira olmadi. Ularning yashirin tarzda o'tkazilishi dafn marosimlarining shaklan o'zgarishiga olib keldi xolos. XX asr 80-90- yillarida G'allaorol aholisi tomonidan dafn-xotirlash marosimlarida uchi, yettisi, yigirmasi, qirqi yili, hayitlarni o'tkazish keng tarqaldi[5].

XX 90-yillarining 2- yarmida aholining o'z xohish- irodalariga ko'ra ayrim urf-odatlar qisqardi va ayrimlari birlashtirildi. G'allaoroldagi dafn marosimlarining birinchi oyidagi va yil marosimlari o'rniga ehson sifatida marosim otkaziladigan bo'ldi. G'allaorolliklar ilgariidek o'tganlarni ramazon va qurbon hayiti kunlari hamda birinchi qor (qor yog'di) va birinchi gul ochilgan vaqtda (gul) oilalari davrasida xotirlashadi va ramazon oyida iftorlik qilishadi.

Ommaviy marosimlar

Jamoaviy bayramlarda har bir oila faol ishtirok etadi. Bayramlar ichida eng ommaviylashgani Navro'z bayrami hisoblanib, bu kuni sumalak, halim, chalpax kabi marosimlar o'tkazilib, bayram uyushtiriladi, bemorlar va qariyalar holidan xabar olinadi. Navro'zning shakllanish davri eng qadimgi zamonlardan zardushtiylikning paydo bo'lishigacha davom etgan asrlarni o'z ichiga olgan ekan. Qadim-qadimdan Navro'z xolis niyatli kishilarning sevimli ayyomi bo'lib kelgan. O'sha kunlarda hatto urush-janjallar to'xtagan, gina-qudratlar kechirilib yuborilgan. G'allaorolda to'ylar ko'pkarisiz, kurashsiz o'tmaydi. G'allaorolning ba'zi bir hududlarida to'ylar shahardagidek taklifnoma yoki to'y xati orqali emas, baland, shirali ovoz sohibi "falonchilikiga" ertaga to'yga deya aytgan baralla chaqiruvdan boshlanadi.

G'allaorol tumanida jumladan Jizzax viloyatida ham boshqa viloyatlarda deyarli uchramaydigan urf- odat mavjud: ya'ni qaynonalar kelin bilan ko'rishish uchun yuziga oq ro'mol yopilgan kelin oldiga pinjiga non qistirib keladi va indamaygina salomlashadi. Mazkur udum qaynona- kelin tinch yashashsin degan maqsadda qilinarkan. Jizzax viloyatidagi "Gashtak" ansambli tayyorlagan nikoh to'yi bilan bog'liq "To'qqiz to'y" udumi qadimiy ma'naviy qadriyatlar silsilasi bo'lmish mehr-muruvvatni tarannum etuvchi an'ana va marosimlarimizni saqlab qolishida o'z hissalarini qo'shganliklari bilan qadrlidir[3]. G'allaorol tumanida boshqa yerlarda uchramaydigan bir urf- odat mavjud ya'ni azaga tashrif buyurganlarga sovg'a tarqatish marosimi. Bu marosim shariatga mos kelmaydi hamda bunday urf- odatlar judolik dardini totgan odamlarning dilini qaqshatadi. Bu haqda islomshunos olim Abdunosir Bobomirzayev "Oila davrasida" gazetasida aytib o'tdi. Materialda aytilishicha, G'allaorolning ayrim hududlarida hanuzgacha azaga kelganlarga qiyiqchalar, joynamozlar, pul tarqatish, qo'y so'yish va dasturxon yozish odatlar saqlanib kelmoqda. G'allaorol tumanining ko'plab hududlarida bunday tadbirlarda ayollarga bittadan piyola tortiq qilinarkan.

So'nggi yillarda xalqimizning uzoq yillik qadriyatlar va an'analarini o'zida aks ettirgan to'ylar, oilaviy tantanalar, maraka va marosimlar o'tkazishda shuhratparastlik, o'zini ko'z-ko'z qilish, boshqalarning ijtimoiy ahvolini inobatga olmaslik, isrofgarchilik, xalqimizning urf- odatlari va an'analarini mensimaslik, kabi illatlar ko'zga tashlanmoqda. "Charlar", "aqiqa", "muchal to'yi", "qiz majlisi", "kuyov chaqiriq" "hayitda kelin ko'rish" kabi marosimlar aholi tomonidan ortiqcha deb baholanmoqda. Biroq bunday marosimni tashkil etayotgan shaxslarda tadbirlarni obro'lroq joyda o'tkazishga, o'zining yutuqlarini ko'z- ko'z qilishga, moddiy mavqei bilan maqtanishga intilish kuchaymoqda. Prezidentimizning 2019- yil 14- sentabrda to'y hashamlar, oilaviy tantanalar, ma'raka va marosimlarni, marhumlarning

xotiralariga bag'ishlangan tadbirlarni o'tkazishni tartibga solishga bag'ishlangan farmoni xalqimizning turli marosimlar, urf- odatlarini bozor iqtisodiyot talablari sharoitidan kelib chiqib, ixcham o'tkazilishiga dasturilamal bo'lib xizmat qiladi[6].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Qadim tariximizdan yillar davomida shakllangan urf- odat, marosim, an'analarimiz, adabiyot, san'at muallaq holda, o'zga xalqlardan yashirincha paydo bolib, rivojlanmagan. Aksincha, biz bilan qadimdan yonma-yon jon qo'shni sifatida hayot kechirib kelayotgan qardosh qozoq, qirg'iz, turkman, tojik va ozarbayjon xalqlarining bevosita ishtiroki, hamrohligida yaralgan, taraqqiy topgan, hatto jahonning ko'plab boshqa xalqlari vakillarining ham bu qadimiy madaniyatning taraqqiy topishida muayyan hissasi mavjud. Biz bugungi ko'zimiz bilan ko'rayotgan urf-odat, an'ana va marosimlarimizning barchasi o'zining qadimiy, boy tarixiga egadir. Shunday ekan, ajdodlarimiz tomonidan qaysidir ma'noda yaratilgan yoki keyinchalik aholisi orasida paydo bo'lgan turli urf-odatlar, marosimlar mamlakatimiz madaniyati rang-barangligidan guvohlik beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Davlatov S. "An'ana va marosim". Toshkent. "Fan". 2009. 16-39-b.
2. Haydarov H. Jizzax. Toshkent. "O'zbekiston". 1989. 59-63-b.
3. Qoraboyev U. "O'zbekiston bayramlari" Toshkent. "O'qituvchi". 1991. 24-31-b.
4. Xoldorova.G. "G'allaorol tumani geografiyasi". Toshkent. 2007. 6-29-b.
5. www.eferrit.com. internet sayti.
6. www.ziyo.edu.uz. internet sayti.

NIZOMIDDIN SHOMIYNING “ZAFARNOMA” ASARIDAGI AYRIM MA’LUMOTLARNING TARIXIY TAHLILI XUSUSIDA

Baxtiyorova Munira Otabek qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Temuriylar davri tarixi xususida ma’lumotlar beruvchi Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asaridagi ayrim ma’lumotlar tahlili xususida so’z boradi. Ushbu asar o’z davri uchun bosh tarixiy manba hisoblanib, uni to’liq o’rganib, xolis tahlil qilish orqali o’sha davrning siyosiy, ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy muhiti haqida tushunchaga ega bo’lishimizga zamin yaratadi.

Kalit so’zlar: Sohibqiron Amir Temur, Nizomiddin Shomiy, Shanbi G’ozon, Zafarnoma asari, Hofizi Abru, Chig’atoy ulusi va Chig’atoyxon, Temur tuzuklari. O. Boriyev, T. Fayziyev, tarixiy tahlil tushunchasi.

Sohibqiron Amir Temurning hayotligida bevosita uning topshirig’i asosida Nizomiddin Shomiy tomonidan fors tilida “Zafarnoma” asari yozishga kirishilgan. Bu asarni yozish 1401-1402 yillardan boshlanib, 1404-yil bahorigacha asar yozib tamomlangan va Ozarbayjonda yetti yillik yurishdan Samarqandga qaytayotgan Amir Temurga taqdim etilgan. Bundan keyingi sohibqiron vafotigacha kechgan voqealar keyinroq Hofizi Abru tomonidan yozib ilova qilingan.

„Zafarnoma“ni yozishda Amir Temurning munshiy va kotiblari ham nazm, ham forsiy va turkiy tillarda yozgan ma’lumotlar, muallifning 1400-1404-yillar davomida sohibqiron yurishlarida bo’lib, o’zi ko’rgan bilganlari, Hindiston yurishi voqealari qismining bayoni uchun G’iyosiddin Alining „Ro’znomai g’azavoti Hindiston“ („Hindistonga yurish kundaligi“) asari asosiy manba bo’lib xizmat qilgan. „Zafarnoma“ tarixiy asar sifatida XIV-XV asr boshida Amir Temur va temuriylar hukmronligi davridagi O’rta Osiyo, Oltin O’rda xonligi, Ozarbayjon, Eron, Afg’oniston, Iroq, Suriya, Misr, Turkiya va boshqa mamlakatlar tarixiga oid voqealarni o’z ichiga olgan[5].

Asar muqaddimasida Amir Temur tarix sahnasiga chiqqan 1360-yilga qadar O’rta Osiyoda hukmronlik qilgan chingiziy hukmdorlar haqida qisqa ma’lumot berilgan. So’ngra Amir Temurning XIV asrning ikkinchi yarmi va XV asrning boshida qilgan yurishlarining batafsil bayoni keltirilgan.

Ushbu maqolada Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida keltirilgan ayrim ma’lumotlar bilan hozirgi davrda yaratilgan tarixiy adabiyotlar ma’lumotlari solishtirilgan holda tahlil qilindi. Nizomiddin Shomiyning Zafarnomasi kirish, muqaddima va 110 bobdan iborat bo’lib oxirida Shomiyning “Zafarnomai shohiy” ga

ilova va Hofiz Abru tomonidan Zafarnomaga keltirilgan izohlardan iborat. Demak Zafarnomaning kirish qismiga keladigan bo'lsak bu yerda asosan asarni yozgan shaxs, uning yozilish tarixi asardagi ayrim voqealar keltirilgan[3].

Asar muallifi Nizomiddin Shomiy shaxsiga to'xtalsak uning hayoti va ijodi haqida ma'lumotlar juda oz. Tug'ilgan yili noma'lum. Uning kelib chiqishi joyga nisbat berilib, Shomiy yoki Shambiy, u aslida Tabriz chekkasidagi Shanbi G'ozon deb atalgan mavzedan bo'lgan deb taxmin qilish mumkin.

Shomiy tomonidan Zafarnomani yozish ishlari o'zi bergan ma'lumotlarga ko'ra, 804-hijriy yili Amir Temur uni huzuriga chorlab, o'z yurishlari bitilgan yirik bir asar yaratishga uringan. Shundan keyin Mavlono Nizomiddin asarni 1404-yil bahorigacha yetkazib, asarni tamomlagan va uni Ozarbayjondan Samarqandga qaytish taraddudida bo'lgan Amir Temurga taqdim etgan. Bundan keyingi Amir vafotigacha kechgan voqealar keyinroq muarrix Hofiz Abru tomonidan "Zafarnoma"ga zayl ilova tarzida yozilgan[3].

Asarning muqaddima qismi Musulmon sharq an'ansi bo'yicha yozilgan. Unda Alloh taoloning buyukligi, Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v) va xalifalar haqida yozilgan.

Muarrix Mavlono Nizomiddin Zafarnoma asarida birdaniga Amir Temur haqida yozib ketmagan. Chunki Amir Temur saltanati Chig'atoy saltanati arig'ida o'sib unganligi uchun avvalo Chingizxonning to'rt o'g'li va ularning avlodlari haqida ma'lumotlar beradi. Keyin Chingizxondan Amir Temurga ulab ketilgan. Shu yerda bir narsaga e'tibor qaratish kerak. Nizomiddin Shomiy ko'pchilik hukmdorlarni ta'riflashda asosan faqat bir tomonlama fikr bildirgan.

Xususan, u Chig'atoy xususida shunday yozgan edi "Jahongir podshoh Chingizxon farzandlarining ishlarini tartib -u intizomga keltirgan vaqtda, "Kimda kim bilimni, yasoqni, siyosatni, botirlikni, rasm-rusum rivoyasini do'st tutsa, Chig'atoyga mulozamat qilishi lozim"[3].

Tabiiyki har qanday ota ham bolasi yomon bo'lsa uni yomon demaydi. Yana gap Chingizxoning farzandi haqida ketganda. Shomiy o'zi ham bu fikrga qo'shilib Chig'atoyxonni aqlli podshox va adolatli xon edi. Bag'ri keng farosat va zakovatda komil, ziyraklik va donishmandlikda mashxur edi deb yozadi[3]. Lekin Omonullo Bo'riyev tomonidan yozilgan "Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo" nomli kitobda boshqacha ma'lumotlar keltirilgan. Unda aytilishicha Chingizxon Chig'atoyni unga ajratib berilgan mamlakat va sipoh bilan birgalikda, o'z amakivachsi Qorachor no'yonga topshirdi va unga bosh qosh bo'lib turishini ko'p tayinladi chunki Chingizxonga shu narsa ma'lum ediki har ishda homiylik bu buyuk no'yoning qo'llab quvvatlashi bilangina kuchli bo'la oladi degan, ma'lumotlar mavjud[1].

Bu yerda buyuk no‘yon sifatida Qorachor no‘yon aytilmoqda. O‘z navbatida uni amakivacha deb ataydi. Qorachor No‘yonni Nizomiddin Shomiy o‘z Zafarnomasida Amir Temurning katta bobosi barlos urug‘idan ekanligini aytgan. Demak bundan kelib chiqadiki, Amir Temur Chingizxonga qarindoshligi aytilgan. Shundan keyin, Chig‘atoyxon otasi vasiyatiga muvofiq uning kengashisiz va rozilgisiz hech bir ishga qo‘l urmas edi. Shuning uchun ishbilarmon va kelajakni ko‘ra biluvchi kishining yaxshi tarbiyasi natijasida, Chig‘atoyxon faxm u farosatning barkamolligi, ilm egasi ekanligi, o‘ta dovyurakligi va mardligi bilan o‘z zamonining yagonasi va turli diyor sultonlari durdonasi bo‘ldi[3], deb yozadi.

Omonullo Bo‘riyev o‘z kitobida, Chig‘atoyxoni xursandchilik va ovga juda ishqiboz va aksar vaqt shu bilan band edi deb yozadi[1]. Bundan ko‘rinib turibdiki Chig‘atoyxonning yaxshi fazilatlarni egallashida va saltanat ishlarini boshqarishda Qorachor no‘yoning xizmati katta bo‘lgan. Shu o‘rinda Chig‘atoyxonning o‘limi xususida to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, Nizomiddin Shomiy o‘z Zafarnomasida Chig‘atoyxon Chingizxon vafotidan keyin O‘qtoy qoonni ulug‘lab, unga izzat ikrom bildirish bobida ko‘p harakat qildi. Mudxish o‘lim O‘qtoy qooni ham yulib ketganda Chig‘atoy o‘z birodariga bo‘lgan muhabbatining g‘oyatda kuchliligi, ayriliqning shiddatidan 649-yilda o‘sha voqeadan yani 1242-yilning 1-iyulida O‘qtoy qoon vafotidan keyin 10 oy o‘tib, qattiq kasalikkga chalindi va 1243 -yil 21-iyunida vafot etdi deb yozadi[3].

Ammo, Omonulla Bo‘riyev o‘z asarida yozishicha, Chingizxon vafot etgandan keyin Amir Qorachorning yaxshi ishlari va tadbiri natijasi o‘laroq, O‘qtoyxon bilan shunday maqto‘v va iltifotga sazovor tarzda bordi keldi qilar ediki ularning og‘a inilik rishtalari yanada mustahkamlandi deyilgan(10) va bunda Qorachorni asosiy sababchi qilib ko‘rsatgan. Undan keyin Omonulla Bo‘riyev Chig‘atoyxonning o‘limini O‘qtoy qoondan 7 oy ilgari , 638 -yilning Zulqida oyida ya‘ni 1241 -yil may iyun oyida vafot etganligini yozadi[1] Bu o‘rtadagi farq 2 yilni ko‘rsatadi.

Omonulla Bo‘riyev o‘z asarini yozishda Shomiyning va Ali Yazdiyning Zafarnomalaridan foydalanilganligini yozgan. Lekin, bu masalaga sharh berib o‘tmagan. Bundan tashqari, Nizomiddin Shomiy Chig‘atoyxon avlodlarini yozar ekan ularning hammasi ham Chig‘atoy avlodiga mansub emasligini yozmagan.Ya‘ni bu masalaga alohida to‘xtalmagan. Xususan u amir Qazog‘onni tariflar ekan u Donishmandcha va Bayonquli qo‘lida taxt bo‘lgan payda davlatni boshqargan deyilgan. Biroq, amir Qazog‘on, Donishmandcha va Bayonquli O‘qtoy qoon avlodiga mansub ekanligi yozilmagan. Faqat amir Qazog‘on O‘qtoy qoon avlodidan ekanligi aytilgan[3].

Omonullo Bo‘riyev asarida bu masalaga to‘xtalib, Chig‘atoy ulusida hukmronlik qilgan xonlar, umuman olganda, Chingizxon naslidan bo‘lsada, biroq hammasi ham

Chigʻatoy avlodidan emas edi. Chigʻatoy va uning bolalari yu nevaralarining saltanati muddati, to Qozon Sultonxongacha 109 yildir deb yoziladi. Bundan tashqari, Shomiy oʻz Zafarnomasida Amir Qazogʻonni adolatli va ehsonli uning bu fazilatlaridan olam ahliga koʻp foydalar yetardi. Shariat yoʻrigʻi va rostlik yoʻlini tutib, hammaga maqbul hayot kechirardi. Doimo mazlumlar dodiga yetib, xalqqa adolat eshigini ochib, olimlar va Sharaflil zotlarning hurmatini saqlardi. Raiyat va qoʻl ostidagilarni farovonchilikka tutardi,[1] deb yozgan.

Amir Temur ham oʻzining “Temur Tuzuklarida” amir Qozagʻon haqida shunday deydi: “Amir Qozagʻon unchalik qudratga molik hukmdor emas edi. Undan hokimiyatni osongina tortib olib qoʻyishim mumkin edi, lekin menga koʻrsatgan lutfu ehtiromiga hiyonat qilish koʻrnamaklik boʻlur edi”[4], deb yozadi.

Turgʻun Fayziyev ham oʻzining “Temuriylar Shajarasi” nomli asarida “Amir Qozagʻon oʻsha zamon hukmdorlariga nisbatan soddaroq va siyosat bobida oʻz burni tagidan narini payqamaydigan hukmdor edi. Ana shu tufayli ham oʻziga eng yaqin boʻlgan maslakdoshi va qudasi amir Xusrav Bayonqulini ranjitib oʻziga dushman ortiradi”, deb yozadi[2].

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asari oʻzida jamlangan tarixiy maʼlumotlarning ishonchliligi bilan XV-XVI asrlardanoq bir qancha asarlar uchun bosh manba boʻlib, xizmat qilib kelmoqda. Ushbu manbada keltirilgan ayrim maʼlumotlar Mustaqillik yillarida yaratilgan tarixiy adabiyotlardagi maʼlumotlar bilan qiyosiy solishtirilganda ayrim tafovutlar, qarama-qarshi fikrlarni yuzaga keltiradi. Biz yosh tarixchilar har qanday tarixiy manba va adabiyotlarni oʻrganib, unda yoritib berilmagan, ochilmagan yoki notoʻgʻri talqin qilingan tarixiy voqeliklarni toʻgʻri va xolis tahlil qilib, yuzaga chiqarishimiz zarurdir. Zero, tarixiy xolis tahlil haqiqiy tarixni paydo boʻlishiga va shakllanishiga zamin yaratadi.

Foydalanilgan adabiyotlar roʻyxati:

1. Boʻriyev O. Temuriylar davri yozma manbalarida Markaziy Osiyo. Toshkent. 1997. 9-10, 16-bb.
2. Fayziyev T. Temuriylar shajarasi. Toshkent. 1995. 16-b.
3. Nizomiddin Shomiy. Zafarnoma. Toshkent. 2019. 3-5, 26-27-bb.
4. Temur tuzuklari. Toshkent. Oʻzbekiston Milliy Ensiklopediyasi. 1991. 10-11-bb.
5. www.wikipedia.uz internet sayti

KUSHON PODSHOLIGI MADANIYATI VA UNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI

Abdig'apparov Orif Abdunazar o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi,

Mamanov Anvar Abduvohid o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi.

Annotatsiya. Mazkur maqolada Hindiston, Markaziy Osiyo va Xitoy o'rtasidagi savdo yo'llari bo'ylab, rivojlangan madaniyatni shakllantira olgan Kushon davlati madaniyati va uning o'ziga xos xususiyatlari tahlil qilinadi. Maqolada Kushon podsholigining me'morchilik, haykaltaroshlik, yozuv namunalari, savdo munosabatlarida madaniyatlar almashinuvi jihatlarida haqida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: Kushon podsholigi, Kanishka, Xalqaro simpoziumlar, Yunesko, haykaltaroshlik va me'morchilik, Dalvarzintepa, Ayritom, Fayoztepa, A. Asqarov, Sh. Pidayev, buddaviylik dini, Buyuk Ipak yo'li.

Kushon davlati Markaziy Osiyoning mintaqasidagi o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan diqqatga sazovor bo'lgan antik davr davlatlaridan biri sanaladi. Davlat hududi savdo yo'llari bo'yicha kesishgan joyda joylashgani sababli, xalqaro aloqalar va madaniy aloqalar o'rtasida kuchli aloqalar o'rnatildi. Kushon davlati madaniyati o'zining boy diniy me'yorlari, me'morchilik, san'at, yozuv va iqtisodiy tizimlaridagi rivojlanishlari bilan o'zining jahon miqyosida madaniy merosini qoldirdi.

Kushon podsholigi Rim, Parfiya va Xitoy bilan har jihatdan bellasha olgan qadimiy Sharqdagi eng qudratli saltanatlardan biri bo'lib, 2 asr mobaynida osiyoliklarning siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotiga katta ta'sir o'tkazgan. Bir saltanat tarkibida bir necha mamlakatlar, xalq va elatlarning birlashuvi turli madaniyatlarni o'zaro yaqinlashtirdi, davr madaniyatlari Baqtriya, yunon, sak va hind madaniyatlarini mujassamlashtirdi[5].

Ammo, Kushon podsholigi madaniyati tarixining ayrim jihatlarida hana noaniq bo'lib, tarixchi, sharqshunos va arxeolog olimlar ularga oydinlik kiritish uchun izchil va chuqur ilmiy tadqiqot olib bormoqdalar. Chunonchi, bu borada 1913 va 1960-yillarda London, 1968-yil Dushanbe, 1970-yil Kobulda xalqaro simpoziumlar o'tkazildi[5], YUNESKO qoshidagi Markaziy Osiyo tarixi va madaniyatini o'rganish komissiyasi esa kushonlar tarixi va madaniyatini o'rganishni o'z oldiga asosiy vazifalardan biri qilib qo'ydi.

Kushon davlati madaniyatining ajralmas qismi uning diniy konfessiyalari va ularning jamiyatdagi roli hisoblanadi. Davlat hududida bir nechta dinning mavjudligi bu davr madaniyatining shakllanishida muhim rol o'ynadi. Kushonlar buddaviylikni o'zlarining asosiy diniy tizimi sifatida qabul qilganlar. Bu din nafaqat diniy-psixologik jihatdan, balki siyosiy va madaniy jihatdan ham davlatni birlashtirishda asosiy unsur bo'lgan[3].

Kanishka hukmronligi davrida Budda dini davlat siyosati bilan chambarchas bog'lanib, Buddaning hayoti, falsafasi va diniy an'analari san'at, me'morchilik va yozuvlar orqali madaniyatga kiritildi. Fayoztepa va Dalvarzintepa kabi yodgorliklarda topilgan buddaviy haykallar va stupalarda o'zining diniy ta'siri seziladi. Shu bilan birga, Kushon davlati hududida zardo'shtiylik va hinduizm kabi boshqa diniy tizimlar ham ommalashgan. O'zbek olimlari Ahmadali Asqarov va Bahtiyor Bobojonovning tahlillariga ko'ra, bu dinlarning o'zaro integratsiyasi va ularning san'at va me'morchilikdagi aks-sadolarini kuzatish mumkin. Yozuvda, masalan, zardushtiylik diniy ramzlari bilan bog'liq bo'lgan bayroqlar va tangalarda ko'rinadi[1].

Kushon davlati me'morchiligi va san'ati ayniqsa yodgorliklar va haykallarni o'zida aks ettiradi. Ushbu san'at asarlari shaharsozlik va me'morchilikda birlashgan ko'plab madaniy elementlarning o'zgarishini aks ettirgan. Dalvarzintepa, Fayoztepa, Baghon, Surhko'tal va boshqa hududlardagi arxeologik qazilmalar Kushon davlati me'morchiligi va san'atining rivojlanish darajasini ko'rsatadi. Eng e'tiborlisi shundaki, bu joylarda topilgan dinlarga oid namunalar faqat Kushonlarning buddaviylik yondoshuvi bilan chambarchas bog'liq bo'lib qolmay, balki yunon, hind, zardo'shtiylik va mahalliy madaniyatlarning o'zaro ta'sirini ham ifodalagan. Fayoztepadagi stupalar, arxitektura yodgorliklari va bo'rilar va boshqa haykallarda hinduizm va buddaviylikning aralash tasvirlari ko'rinadi. Baxtiyor Babadjanovning tadqiqotlarida bu san'at asarlari singari ko'pgina yodgorliklar o'sha davrning diniy e'tiqodlarini, kosmologik fikrlarni o'zida mujassam etganligi haqida ta'kidlangan[2].

Kushon san'ati yunon va mahalliy san'at uslublarining uyg'unlashuvini aks ettirgan. Yunoncha haykaltaroshlikning dastlabki shakllari va buddaviy yodgorliklarning aralashishi bu davrdagi me'morchilik va san'atning noyob xususiyatlarini aks ettiradi. Ayniqsa, Kushonning o'ziga xos haykallari Hindiston va Yunon madaniyatlari ta'siri ostida yaratildi. Me'morchilikdagi naqshlar, haykallar va frizlar esa diqqatga sazovordir.

Kushon davlati strategik joylashuvi, Buyuk Ipak yo'li orqali o'tadigan savdo yo'llari, uning iqtisodiy o'sishini ta'minlagan asosiy omillardan biri bo'lgan. Ushbu davrda ishlab chiqarish va savdo sohasidagi madaniy aloqalar, hinduizmdan

buddaviylikka o'tgan dinlarning ilg'or qoidalari bilan chambarchas bog'liqdir. Savdo faoliyati Kushonlarning iqtisodiy asosini tashkil etgan.

Markaziy Osiyodan Xitoy, Hindiston, Rimga qadar bo'lgan savdo yo'llari ular orqali bir-biriga ta'sir ko'rsatgan. Tangalar zamonaviy iqtisodiy tarmoqlarning dastlabki asoslaridan biri sifatida, siyosiy hokimiyatning izchilligi va uzviyligini ta'minlagan. Davlat iqtisodiyotida zarbdor tanga (yuniya, kushon tangalari) birgalikda xalqaro savdo aloqalarini o'zaro ahamiyatga ega bo'lgan qudratli vositalarga aylangan[4]. Kushon iqtisodiyoti paxta, ipak va boshqa sanoat tarmoqlaridan iborat bo'lgan. Shuningdek, ishlab chiqarish sohasidagi taraqqiyot arkeologik qazilmalarda yuksak natijalar bermoqda. Kushon davlati o'zlarining tinchlik siyosati yordamida ichki iqtisodiy aloqalarni mustahkamladi.

Kushon davlati haqida tarix kitoblari keng ma'lumot beradi. Markaziy Osiyoda imperiyalarning eng qadimiysi, davriy jihatdan eng yashovchani (milodiy I-IV asrlar) Kushon davlati bo'lgan. O'z davriga nisbatan mislsiz ulkan mintaqalarni egallagan Kushon davlati chegaralari – sharqda Xitoy, g'arbda Kaspiy dengizi, janubda Hindiston va shimolda Orol bo'ylarigacha etib borgan. Qadimgi dunyo madaniyatining uch yirik manbasi – hind, fors va turk xalqlari tutashgan markaziy zaminda tashkil topgan ulug' davlatdir[3].

Xulosa qiladigan bo'lsak, Kushon davlati madaniyati o'zining muhim siyosiy, diniy va iqtisodiy taraqqiyoti bilan O'zbek davlatchiligi tarixida munosib o'rin egallagan. Savdo, din va me'morchilik orqali Kushonlar o'zlarining bilim va ma'naviy dunyoqarashlarini ko'plab yondosh antik davr davlatlariga yoyganlar. Xolchayon, Dalvarzintepa, Eski Termiz, Jondavlattepa, Ayritom, Fayoztepa, Qoratepa, Zartepa kabi yodgorliklar tadqiqotlari natijasida bu davr madaniyatining ilmiy tahlili ommaga ma'lum bo'ldi.

Kushon podsholigiga doir yozma manba va arxeologik topilmalar kushonlar madaniyatini o'rganish, ularning O'rta Osiyo, jumladan, O'zbekiston xalqlari madaniyati taraqqiyotida tutgan o'rnini ilmiy baholashda muhim ahamiyatga ega. Kushon podsholigi siyosiy tarixi va madaniyati o'tmishining hali to'la, haqqoniy yoritilmagan jihatlari ko'p bo'lib, O'zbekiston, Hindiston, Fransiya, AQSH, Italiya, Vengriya, Tojikiston, Afg'oniston, Rossiya, Yaponiya olimlari ularni aniqlash borasida chuqur, izchil ilmiy tadqiqotlarni davom ettirmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Asqarov A. Markaziy Osiyoning qadimiy madaniyati va Kushon davlati. Toshkent. 1998. 52-60-b.
2. Babadjanov B. Fayoztepada buddaviylik san'ati. Toshkent. 2005. 6-11-b.
3. Pidayev Sh. Sirli Kushonlar saltanati. Toshkent. 1990. 9-30-b.
4. Qurbonov R. Kushon tangalari va yozuvlari tahlili. Toshkent. 2012. 16-19-b.
5. www.wikipedia.uz internet sayti.

XIVA XONLIGIDAGI DAVLAT MANSABLARI VA ULARNING VAZIFALARI HAQIDA

Abduraximova Madina Akbar qizi

Jizzax davlat peadgogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbek davlatchiligi tarixi faoliyat ko'rsatgan Xiva xonligining davlat mansablari va ularning vazifalari xususida so'z boradi. Xiva xonligidagi davlat mansablari, Katta va Kichik kengashlar tartiboti faoliyati Buxoro amirligi va Qo'qon xonligi davlatlari mansablariga solishtirilgan holda tahlil qilingan

Kalit so'zlar: Xiva xonligi, Katta kengash, Kichik kengash, Xiva xoni, yasovulboshi, mehtar, ma'muriy birliklar, M.Xoldsvort, Feruz, Asfandiyorxon, Islomxo'ja, qozi.

Tarixdan ma'lumki, XVIII-XIX asrlarda O'rta Osiyo hududida uch xonlik faoliyat ko'rsatgan bo'lib, ular har doim ham bir biri bilan inoq tarzda kun kechirmagan. Ushbu uch davlatning davlat tuzumi, boshqaruv tartiboti, mahalliy amaldorlari va ularning vazifalarida ham ayrim tafovutlar, farqlar bo'lgan. Ushbu maqolada Xiva xonligidagi mahalliy amaldorlar va ularning vazifalaridan kelib chiqqan holda faoliyatlari tarixi haqida so'z boradi.

XIX asrda Xiva xonligida Buxoro amirligi va Qo'qon xonligidan farqli ravishda doimiy faoliyat ko'rsatuvchi Kengash amal qilgan. Bu Kengash (devon) ma'lum mansab va unvon egalaridan, chunonchi: inoq, mehtar, naqib, qushbegi, devonbegi, shayxulislom, mutavalli, mirob, qozi, farmonchi, darg'a, arbob, miroxo'r va boshqalardan iborat edi. Eng yuqori lavozimdagi amaldorlar a'zo bo'lgan bu Kengashning vakolatlari cheklangan, barcha qarorlar amalda xon tomonidan qabul qilingan bo'lsada, lekin saroy a'yonlarining, qabila boshliqlarining, mahalliy hokimlarning davlat boshqaruvidagi o'rnini e'tirof etish zarur. Kengash majlisida boshqa amaldorlardan ham ko'proq mehtar, qushbegi, devonbegi, inoq, shayxulislom va yasavulboshi hal etuvchi ovozga ega edilar. Kengash masalalarini hal etish darajasiga qarab Xon xohishi bilan majlis bo'lar edi¹.

Xiva xonligi ma'muriy jihatdan XVI—XVIII asrlarda viloyatlarga, XIX asr oxiri XX asr boshlarida 27 ta ma'muriy birlikka: undan bittasi —Xiva va uning atrofi bevosita xon va bosh vazirga bo'ysungan, hokimlar tomonidan boshqarilgan 20 ta hokimlikka va 2 ta noiblik hamda 4 ta turkmanlarga tegishli hududga bo'lingan. Turkmanlar urug' oqsoqollari

¹ Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr birinchi choragi). Toshkent.: 2007. B -13.

orqali boshqarilgan bo'lib, har bir urug' ma'muriy jihatdan qaysidir hokimlikka birlashtirilgan.

Tarixiy adabiyotlarda bu ma'muriy birliklar beklilik deb atalgani bilan Xorazmda asosan hokimlik deb yuritilgan. Hokim bu mansabga xon tomonidan tayinlangan bo'lib, unga faqat barcha masalalarda o'troq o'zbek aholisi bo'ysungan. Hokimlik hududidagi turkman, qozoq, qoraqalpoq aholisi o'z urug' boshliqlari: vakil, katxudo, otaliq va boylar (beklar) tomonidan boshqarilgan. Ular tepasida xon tomonidan tayinlangan beklarbegi turgan. Har qanday katta yer egasi hokimlik lavozimiga tayinlanishi mumkin bo'lsa, noiblik mansabiga o'zbeklarning taniqli urug' a'zolarigina tayinlanishi va uning hukmi faqat o'z urug'i ustidagina bo'lishi mumkin edi.

Hokimlikdagi qishloqlar, aholi istiqomat qiladigan joylar mahalla, machitqo'mlar orqali boshqarilgan. Machit va mahallalar boshqaruvi xonlikdagi eng quyi mansabdor — oqsoqol qo'l ostida bo'lgan. XX asr boshlarida Pitnak qal'asida Darg'onota va Sadvardan tashqari 17 ta machit, 4 ta mahalla bo'lgan². A.Abdurasulov Xiva shahri machitlarining soni haqida quyidagicha yozadi: XX asr boshlarida jami 79 ta masjid mavjud bo'lgani va ularning faqat 65 tasida aholi yashagan³.

Yuqorida ko'rsatilgan barcha mansabdorlar: inoqdan tortib oqsoqolgacha xazinadan oylik maosh olishmagan. Ular asosan o'zlariga tegishli yerdan olingan foyda va ishlab chiqaruvchilardan olingan soliqning bir qismi evaziga hayot kechirishgan. Bu haqda Turkiston general—gubernatorligi devonxonasiga tegishli hujjatlarning birida shunday yozilgan: — "...chorizm xonlikni bosib olgandan keyin... boshqaruv tizimi oldingidek saqlanib qoldi, beklar va boshqa hukumat vakillari... o'zlarining xizmat mavqelarining mustahkamligiga ishonch bo'lmaganligi sababli faqat o'zlarining foydalari haqidagina o'ylashdi, ...himoyadan butunlay mahrum bo'lgan turli xil soliq va majburiyatlar yuklatilgan aholining katta qismi ochlik va yo'qchilik holatida edi"⁴.

Ingliz olimi M.Xoldsvort o'z asarida Xiva xonligining ma'muriy tuzilishiga to'xtaladi. —Xiva xonligi Buxoro va Qo'qondan kuchli mahalliy va ajratuvchilik an'analariga asoslangan bekliliklardan iborat emasligi bilan farq qilardi, tez-tez avtonom bo'lgan qo'ng'irotlardan tashqari, ikkinchidan shaharlar kuchli mahalliy hokimiyatni namoyish etardi. Haqiqatan ham, mahalliy adabiyotlarda yozilishicha, Xiva xonligi bekliliklarga bo'linmasdan idora etilgan. Xonlikning yer egaligi masalasi to'g'risida esa, XX asr xorij tarixshunoslari bilan deyarli bir xil fikrga keladi: yer

² Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr birinchi choragi). Toshkent.: 2007. B -13.

³ Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar).-T.:1997.- B. 24-25.

⁴ Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr birinchi choragi). Toshkent.: 2007. B -13.

egaligi tadbirlari Buxoro va Qo'qondagiga o'xshash edi, —hadya yerlar xon tomonidan uning xizmatchilariga ulashilardi va ular juda ortiq bo'lgan barcha soliqlardan ozod qilinardi⁵.

Xiva xonligida idora tartib tamoillari, saroy qabul marosimlari, fuqoralarni qabul qilish tartiblari asrlar davomida sayqallanib, takomillashib borgan. XIX asrdan boshlab, taxtga munosabat masalasida oilaviy an'analar ustunligi to'la namoyon bo'ladi va bu holat odatiy holga aylanadi. Taxt merosxo'ri sifatida Xonning o'g'illari asosiy davogar bo'lib qola boshladi. Bunday odatning qaror topishida natijasida Xiva xonligida taxtga merosxo'rlik masalasida oilaviy manfaatlarning sulola manfaatlaridan to'la ustunlik qilganligini ko'ramiz. Qo'ng'irotlar sulolasi hukmronligi davrida joriy qilingan taxtga merosxo'rlik tartibiga birmuncha qat'iy amal qilingan. Lekin, shunga qaramasdan, ba'zi tadqiqotchilarning fikricha, Xiva xonligida taxtga merosxo'rlik masalasidagi davomiylik muayyan va aniq bir shaklga ega bo'la olmagan⁶.

Xon saylash marosimida Kengashning ahamiyati rasmiy jihatdan yanada oshgan. Odatda, oldingi xon vafotidan so'ng —valiahd Xon etib saylanar edi. Xon nomzodini ko'rsatishda inoq, mehtar, qushbegi va yasovulboshi katta rol o'ynaganlar. Lekin yuqori tabaqa a'yonlari va xon urug'lari tor doirada o'tkaziladigan saylov avvaldan kelishib qo'yilgan bo'lib, xon tayinlash rasmiy bir marosimdek bo'lgan. Odatga binoan yangi saylangan xon bir qator amaldorlarga sarpo ulashgan. Bu ularga bildirilgan ishonch ramzi hisoblangan. Manbalarning dalolat berishicha —Xon qabuliga kiruvchilarni dastlab mehtar qabul qilib, ularning arzini eshitgan. Shundan so'ng arzchining da'vosi jiddiyligidan kelib chiqib, uni Xon qabuliga kirishi yoki kirmasligi masalasi hal qilingan⁷.

Xiva xonligida davlat boshqaruv tizimi, mavjud amal va unvonlar va ularning egalari haqida mustaqillik davri tadqiqotchilaridan M. Matniyozov, A. Sotliqov, Q. Munirov, Davlatyor Raxim, Shihnazar Matrasul, Sh. Vohidov, N. Polvonov, S. Soburovalarning tadqiqotlarida o'z aksini topgan. Tadqiqotchi S. Soburova o'zining nomzodlik dissertatsiyasida xonliklagi amal va unvonlarning to'liq nomlarini, ularning ma'nosi, amaldorlarning shaxsi va ularga to'lanadigan maosh xususida fikr yuritgan⁸.

Umuman olganda, N. Polvonovning —Xiva xonligida mansabga qo'yish tartibi maqolasidagi fikriga qo'shilgan holda shuni aytish mumkinki, Xiva xonlari tomonidan davlat lavozimlariga bilimli, ishining haqiqiy ustasi bo'lgan shaxslar

⁵ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.9

⁶ Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. – Toshkent: Akademiya, 2006. – B. 126–127; Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B. 395–396

⁷ Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.-p.9

⁸ Dilmurod Bobojonov, Moqsudbek Abdurasulov. Firdavsmonand shaxar. Xiva-2008 yil. B 27.

tayinlangan bo'lib, bu kishilar xonlarga mamlakatda tinchlikni, osoyishtalikni saqlashda xizmat qilishgan⁹.

Xivada 1857—1864-yillarda asirlikda saqlangan Eron generali Ismoil Mirpanjiy xotiralariga ko'ra, —Har kimning xonga arzi bo'lsa, muayyan paytda, hech qanday qarshiliksiz uning huzuriga kira olardi. Xonga taalluqli har nima bo'lsa, uning o'zi chuqur tekshirib ko'rib, hukm qiladi. Agar shariat bilan bog'liq ish bo'lsa, qoziga murojaat etadi. Mahallalardagi mayda-chuyda ishlarni esa zikr etilgan kichkina mullolar hal qiladi. Xon devonidan chiqadigan hukm va farmonlar qisqa, lo'nda va aniq bo'ladi. Xonga murojaat qilish uchun esa eshikog'aga uchrash kerak lozim edi. Eshikog'asini arzga kelgan har bir kishi oyboltasidan tanirdi. Ana shu qurol uning mansab alomati edi. Eshikog'asi fuqarolarning nima xususida kelganini surishtirib, agar arzo'ylar ko'p bo'lsa, navbat belgilar va osoyishtalikni saqlashni qa'tiy buyurardi. 1873-yilda Xivaga rus qo'shinlari bilan kelgan Solomanin degan astronom —qo'lida tayoq ushlab, Xiva xoni saroyida tartib o'rnatib yurgan bir cholni ko'rdim deya yozgandi¹⁰. O'sha chol eshikog'asi bo'lgan.

Yasovulboshining vazifasi xonning farmoniga muvofiq askarini vaqtida urushga boshlab borish bo'lgan. Tinchlik vaqtlarida yasovulboshilar navbat bilan xon turli iltimoslarni qabul qilgan marosimlarda hozir bo'lganlar. Ma'lum bo'lishicha, xon huzuridagi rasmiy qabul marosimlarida yasovulboshilarning doimiy o'rinlari bo'lmas edi, lekin ular xon huzurida bo'ladigan tor kengashda mehtar, qushbegi va devonbegi bilan bir qatorda qatnashar edilar. M.Yo'ldoshev —Yasovulboshiga yasovullar, mirshablar, shotirlar, eshik oqolari itoat qilardi, deb yozadi, lekin negadir mirshablarning bevosita rahbarlari dorug'alar to'g'risida ma'lumot bermaydi. Shahar va qal'alarning harbiy holati boshqaruvi dorug'alar qo'lida bo'lgan.

So'nggi jumladan ma'lum bo'ladiki, dorug'alarning raisi bo'lgan va yasovulboshilar u orqali boshqa dorug'alarga va mirshablarga murojaat qilgan bo'lsa kerak. Xonlikda ichki tartibni saqlab turish mirshablar zimmasida edi. Ular shahar bosh darvozalarida turib kelib-ketuvchilarni kuzatib turganlar. Bundan tashqari, safarbarlik xolatlarida askarlar bilan harbiy yurishlarda qatnashadigan mirshablar ham bo'lgan. Naqib - sayyidlar va xo'jalar uchun yuqori faxriy unvon edi. Naqib xonning eng yaqin maslahatchilaridan biri bo'lib, safarlarda unga hamroh bo'lardi. Naqib madrasani tugatgan kishi bo'lib, payg'ambar naslidan bo'lishi kerak edi. Rasmiy qabul marosimlarida naqib xonning so'l tomonida birinchi o'rinda o'tirgan¹¹.

⁹ Polvonov N.T. Xiva xonligida davlat mansablariga tayinlash tartibi // Jamiyat va boshqaruv - T., 2009. - № 4. - B. 48-49.

¹⁰ "Военный сборни", 1874 йил, 3-сон

¹¹ Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. —T., 1959. —B.286

Xiva xonligi davrida, mahalliy amaldorlar fuqarolarni odatda mahalliy jamoat tashkil etish orqali qabul qilishgan. Bu jamoatlar, odatda qishloqlarda yashovchi oilalar tomonidan tashkil etilgan edi. Bu jamoatlarda mahalliy amaldorlar, madaniyat va sanʼat taraqqiyoti, taʼlim muammolari, xonadonlar va yoʻllar tuzish muammolari, suv taʼminoti va boshqa koʻplab muammolarni hal qilish uchun ishlardan javob berishgan edi.

Davlat lavozimlari haqida fikr yuritganda shuni taʼkidlash lozimki, —Sayid Islomxoʻja risolasida davlat amaldorlarining avlodlari ham shu kasb-kor egalari boʻlganligi taʼkidlanadi. Jumladan, Xiva xoni Asfandiyorxonning bosh vaziri Sayid Islomxoʻjaning otasi Ibrohim xoʻja, keyin amakisi Sayid Abdullaxoʻjalar Muhammad Radimxon II davrida vaziri aʼzam lavozimida boʻlganlar¹².

Feruz vafotidan soʻng taxtga chiqqan Isfandiyorxon (1910-1918) oʻzi uchun yangi uslubdagi Nurullaboy saroyini qurdirib, bu bogʻdagi qurilishlarga nuqta qoʻyadi. Yangi qurilgan qabulxona chet ellik (rossiyalik) mehmonlarni qabul qilish maqsadida qurilgan. Qabulxona 1906 – 1912-yillarda qurilgan, oʻyma naqshi juda nafis qilib ishlangan va bronza rang bilan boʻyalgan. Xon saroyini Xivadagi xonlar qarorgohining yangi binolari Toshhovli saroyi va Nurullaboyda koʻrinishxonalar qurilishi qadimgi xonlar qasrini Koʻhna ark nomi bilan atalishiga sabab boʻlgan. Xonning qarorgohi – Arkda davlat hayotiga tegishli siyosiy, iqtisodiy, diniy va boshqa barcha masalalar hal etilgan. Arkda xon va uning oilasidan tashqari xonlikning butun bosh mahkamasi joylashgan. Ark oldidagi maydonda xonlikning har xil bayram tantanalari oʻtkazilgan. Xon chiqishi marosimi oʻtkazilgan, hukmdorning farmoni oliylari xalqqa oʻqib eshittirilgan.

Xulosa oʻrnida aytish mumkinki, Xiva xonligida mahalliy amaldorlar, ularning vazifalari, saroy qabul tartiblarini, saroy marosimlari tarixini oʻrganish orqali oʻzbek davlatchiligida soʻnggi oʻrta asrlarga xos boʻlgan bir qator anʼanalarni, oʻziga xosliklarni koʻrish mumkin. Xiva xonligidagi Katta va Kichik Kengashlar, ularda faoliyat koʻrsatgan ayrim mansablar va ularning faoliyati hozirgi kun davlatimiz boshqaruvidagi amaldorlarining vazifalariga oʻxshashliklari ham mavjud. Ularni oʻrganish boʻyicha kelajakda olib boriladigan tadqiqotlar bu masalada yangi maʼlumotlarni ilmiy doiraga kiritilishiga olib keladi. Bu esa oʻz navbatida oʻzbek davlatchiligi va davlat boshqaruviga, saroy qabul tartiblari va saroy marosimlariga xos yangi jihatlarni aniqlashtirilishda muhim oʻrin tutadi.

¹² Sadullaev A., Sotliqov A., Abdullaev O. Sayid Islomxoʻja (siyosiy, madaniy-maʼrifiy faoliyati). - Toshkent, 2005.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. Sadullaev A., Sotliqov A., Abdullaev O. Sayid Islomxo'ja (siyosiy. madaniy-ma'rnfiy faoliyati). - Toshkent. 2005.
2. "Военный сборни", 1874 йил, 3-сон
3. Yo'ldoshev M. Xiva xonligida feodal yer egaligi va davlat tuzilishi. Toshkent. 1959.
4. Holdsworth M. Turkestan in the nineteenth century. – Oxford, 1959.
5. Dilmurod Bobojonov, Moqsudbek Abdurasulov. Firdavsmonand shaxar. Xiva.2008 yil.
6. Polvonov N.T. Xiva xonligida davlat mansablariga tayinlash tartibi // Jamiyat va boshqaruv № 4. Toshkent. 2009.
7. Sagdullaev A., Mavlonov O'. O'zbekistonda davlat boshqaruvi tarixi. Toshkent. 2006.
8. Eshov B. O'zbekistonda davlat va mahalliy boshqaruv tarixi. Toshkent. 2012.
9. Qo'shjonov O., Polvonov N. Xorazmdagi ijtimoiy-siyosiy jarayonlar va harakatlar (XIX asr ikkinchi yarmi XX asr birinchi choragi). Toshkent. 2007.
10. Abdurasulov A. Xiva (tarixiy-etnografik ocherklar).Toshkent.1997.
11. Sagdullaev A., Aminov B., Norqulov N., Mavlonov O'. O'zbekiston tarixi: davlat va jamiyat taraqqiyoti. Toshkent. 2000.

QADIMGI XALQLARNING ILK DINIY E'TIQOD SHAKLLARI HAQIDA

Hasanboyev To'raqul Foziljon o'g'li

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti o'qituvchisi,

Bosimova Ruxshona Ismatilla qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Mazkur maqolada ibtidoiy odamlarning hayot faoliyati bilan bog'liq, kundalik turmushi ajralmas bo'lagi hisoblangan ilk diniy e'tiqod shakllari xususida so'z boradi. Maqolada ilk diniy qarashlar, uning paydo bo'lishi va shakllanishi, qadimgi xalqlar hayotida ilk diniy e'tiqodlarning roli va ahamiyati haqida yetarlicha ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: ilk diniy e'tiqod shakllari, ibtidoiy odamlar, fetishizm, animizim, totemizim, magiya, Ch. Darvin, Avgust Kont, Lyudvig Buxner, o'jibve qabilasi, dunyo dinlari.

Insonlar ilk davrlardanoq o'zlarini o'rab turgan olam tabiatda yuz berayotgan jarayonlar oldida ojiz bo'lishgan. Jamiyatda insonlarni bir-biriga yaqinlashtiruvchi, jipslashtiruvchi, ijtimoiylashuv jarayonlaridan biri bu-din, e'tiqod hisoblanadi. Bu jarayonlarni tushunishga harakat qilishgan. Momaqaldiroq, chaqmoq, yashin va boshqa tabiat hodisalariga e'tiqod qilishgan. Misol uchun qadimgi Yunonistonda quyosh xudosi- Gelios, Italiyada(Rim respublikasida) Yupiter -chaqmoq va momaqaldiroq xudosi, Hindistonda momaqaldiroq xudosi Indra hisoblangan. Ularning hayolida bu xudolar qattiqqo'l va qasoskor deya tasavvur etilgan.

Din va diniy e'tiqod to'g'risida so'z ketganda ilk diniy qarashlar qachon paydo bo'lgan degan savol tug'ilishi mumkin. Bu savol tarix fanining eng murakkab masalalaridan biri hisoblanadi. Bu jarayon bilan bo'liq turli xil frazalar mavjud. Bu dinning tarixiy masalasi bo'lib, unga ikki xil javob berganlar. Birinchisi, qandaydir, muddat insoniyat dinisiz yashagan va jamiyatning muayyan bosqichida -yuqori paleolit davridan, bundan 20-40 ming yil avval din paydo bo'lgan. Ikkinchisi, dinning kelib chiqishi insoniyatning paydo bo'lishi bilan bo'liq degan fikrlar mavjud"[3].

Diniy e'tiqodning eng primitiv shakllari bu - totetimizm, fetishizm, animizm, shomoniylilik, sehrgarlik kabi turlari mavjud hisoblanadi. Totemizim-bu ilk diniy e'tiqodlarning eng qadimgi shakllaridan biri hisoblanadi. Bu e'tiqodda asosan insonning paydo bo'lishida uning ba'zi hayvon yoki o'simlik turlari bilan qarindoshlik aloqasi borligiga ishonish.

Yuqorida keltirilganidek, dinning paydo bo'lishi - bugungi kunda fanda dinlarning shakllanishi tarixiga oid ikki xil qarash mavjud.

Birinci qarashga ko'ra dinning paydo bo'lishi bevosita insoniyatning yaralishi bilan bog'liq. Xudo ilk insonlarni yaratishi bilan ularga o'zini tanitdi, natijada inson ilk dinga e'tiqod qila boshladi. Bunday qarash fanda "teologik yondashuv" deb nomlanadi. Bugun mavjud bo'lgan har qanday din o'zining tarixini insoniyat yaralishi-ilk inson bilan bog'lashini ko'rishimiz mumkin. Jumladan, islom dinida-Odam va Havvo, yahudiylilik va xristianlikda-Adam va Yeva, zardushtiylikda Govmard, sintoizm da-Mikado va boshqalar[2].

Mazkur ta'limotlar dinlarning muqaddas manbalarida bayon qilingan. Teologik yondashuvga ko'ra, turli buyumlarga sig'inish va ko'pxudolik, jumladan animizm, totemizm, fetishizm va shomonlik yakkaxudolilikdan keyin yuzaga kelgan.

Dinlarning kelib chiqishi haqidagi ikkinchi qarash fanda "materialistik yondashuv" deb nomlanadi. Mazkur qarashlarning paydo bo'lishi antik davrga borib taqalib, ilk bor qadimgi yunon faylasuflari qarashlarida aks etgan. XVII asrga kelib Yevropada cherkov hokimiyatining susaya boshlashi, hurfikrlilik namoyandalari -din tanqidchilarining paydo bo'lishi, XIX asrning ikkinchi yarmida Charlz Darvin tomonidan "Turlarning kelib chiqishi" (1859) nomli asarning chop etilishi ham turtki bo'ldi. Keyinchalik mazkur qarashlar Avgust Komt va Lyudvig Buxnerlar tomonidan eng cho'qqisiga ko'tarildi. Unga ko'ra din bu ijtimoiy hodisa, inson tafakkuri, emotsiyalari mahsulidir[5].

Mazkur qarash tarafdorlari fikricha, dinlar soddadan-murakkabga, umumiylikdan-xususiylikka, ko'pxudolikdan-yakkaxudolikka tomon uzoq tarixiy evolyutsion jarayonni bosib o'tgan. Unga ko'ra, ilk davrdagi ibtidoiy odamning jismoniy, fiziologik, asab-endokrin, biologik, psixologik va boshqa sohaları o'ziga xosxususiyatlarga ega edi. Bu nafaqat uning hayoti va faoliyatiga, fe'l-atvoriga, balki uning fikrlash darajasiga, kuchli hayajonlanishiga, tasavvur etishiga, mustahkam, haqiqiy yoki soxta mantiqiy qonuniyatlarni kashf etishiga ta'sir ko'rsatadi. Uyqu, tush va nafas olish kabi holatlarda tanani boshqaruvchi va o'lim bilan undan ajratib turuvchi, hayot bag'ishlovchi qandaydir kuch mavjudligiga ishongan ajdodlarimiz, mazkur kuch harakat qiluvchi har bir narsa: daryo, quyosh, oy, daraxt kabi mavjudotlarda bor deb tasavvur qilganlar[1]. Natijada, inson qo'rquvi, hurmati, ehtiyoji va zarurati darajasida ularga sig'ina boshlagan.

Ilk diniy qarashlar va e'tiqod shakllariga Animizm, Fetishizm, Totemizm va Magiya(sehrgarlik)lar kirib, ularning qisqacha sharxiga to'xtalib o'tamiz.

Animizm bu- lotincha jon-ruh ma'nolarini anglatgan bo'lib, tabiatda jon va ruhlar borligiga ishonishdir. Ibtidoiy odamlar tabiat kuchlariga qarshi kurashda ojizlik qilgan, o'z hayoti va tanasidagi turli hodisalar (tush ko'rish, [gallyusinatsiya](#), o'lim va hokazo)ni tushunmagan. Ular jon tana bilan bog'langan va u tanadan chiqib keta oladi, deb hisoblaganlar. Insonda asta-sekin abstrakt tafakkur rivojlanishi bilan

moddiy narsalarga bog'liq ruh to'g'risidagi tasavvurlar paydo bo'lgan. Ruhlar yaxshi, saxiy hamda yomon, yovuz ruhlarga bo'lingan. Ruhlar odamlar hayotiga, turmushiga ta'sir ko'rsata oladi deb tasavvur qilingan. Shu sababli zarur paytlarda ularga qurbonliklar qilganlar[1]. So'zning magik-mo'jizaviy kuchidan foydalanib, inson ruhiyatiga ta'sir etish, uni xastalikdan ozod qilish, tabiatiga ruhiy tetiklik bag'ishlash animizm fazilatlarini hisoblanadi. Shuning uchun xalq baxshilari deganda baxshilik, ya'ni shifo bag'ishlash ma'nosi saqlanib qolgan.

Fetishizm – fransuzcha so'zdan olingan bo'lib, yasalgan, munchiq ma'nolarini anglatadi. Fetishizm g'ayritabiiy xususiyatlarga ega deb hisoblanadigan jonsiz narsalar – fetishlarga sig'inish demakdir. Sig'inish obyektlari, ya'ni fetishlar – tosh, tayoq, ko'zmunchiq, tumor yoki boshqa har qanday buyum bo'lishi mumkin. Fetishizm dinning qadimiy unsurlaridan biridir. Barcha ibtidoiy xalqlarda bo'lgan[5].

Totemizizm (Shimoliy Amerika indianslarining oqibve qabilasi tilidagi „ototem“ – „uning urug'i“ so'zidan) – ibtidoiy diniy e'tiqodlarning ilk shakllaridan biri. U kishilarning ma'lum guruhi bilan hayvon va o'simliklarning muayyan turlari (ba'zan tabiat hodisalari, jonsiz narsalar) o'rtasida g'ayritabiiy aloqa, qon-qarindoshlik bor degan e'tiqodga asoslanadi. Hayvonlar, o'simliklar, jonsiz predmetlar totem hisoblangan. Totemlar (ko'pincha hayvonlar) ov qilinmagan, o'ldirilmagan, go'shti yeyilmagan, ular go'yo kishilarning qudratli himoyachisi hisoblangan. Qabila, urug' har bir a'zosining hayoti va farovonligi totemga bog'liq deb qaralgan. Ular o'z totemini qarindoshi, akasi, otasi, do'sti deb hisoblagan. Har bir qabila, urug' o'z totemining nomi bilan atalgan. Totemistik e'tiqod va marosimlar muayyan ko'rinishda ko'p xalqlarda, ayniqsa, Avstraliyadagi qabilalarda saqlanib qolgan[4].

Magiya bu- yunoncha so'zdan olingan bo'lib, sehrgarlik, afsungarlik demakdir. Ibtidoiy odamlarning diniy tasavvurlari majmuasi hisoblangan magiya seyr-jodu, kuf-suflar orqali tabiat hamda hayotdagi yaxshilik va yovuzlik kuchlariga, shayton-u iblislarga ta'sir ko'rsatish amallari hisoblanadi[5].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, ibtidoiy davr odamlari hayotida ilk din va diniy qarashlar qaysidir ma'noda tabiat kuchi oldida ularni oqizligi yoki tabiat hodisalarini tub mohiyatini tushunib yetmasligi natijasida vujudga kelgan va keyinchalik, din sifatida shakllangan. Ibtidoiy diniy qarash shakllaridan animizm, fetishizm, totemizm kabi turlari mavjud bo'lib, ular odamlar yashash jarayoni, kundalik turmushining ajralmas qismi sifatida qaralgan. Har bir din va diniy e'tiqod shakllarida o'ziga xos ikki qarama qarshilik ezigulik va yovuzlik kabi unsurlar faoliyati talqin qilingan. Bu ibtidoiy diniy qarashlar, e'tiqod shakllari eng qadimgi xalqlar hayotida keyingi davrlarda dinlarni, u esa jahon dinlarini vujudga kelishiga zamin yaratgan.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Narbekov A. V. Dinshunoslik asoslari (o'quv qo'llanma). Toshkent. 2007. 4-23-b.
2. Najmiddinov J., Karimov J., Turdiyeva D.. Dinshunoslik. Qomusiy lug'at. Toshkent. 2017. 480-b.
3. Raximjanov D.A., Ernazarov O.K. Dinshunoslikka kirish. Toshkent. 2018. 29-b.
4. O'zbek milliy ensiklopediyasi. Toshkent. 2004. 512-b.
5. www.wikipedia.uz internet sayti.

XONQA TUMANI VA UNING TARIXIDAN AYRIM MA'LUMOTLAR

Rajabova Xurshida Muzaffar qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Xorazm viloyatining tumanlaridan biri sanalgan Xonqa tumani, uning voqea tarixida tutgan o'rni, aholining ijtimoiy-iqtisodiy hayoti haqida ma'lumotlar keltirilgan. Xiva xonligining tayanch markazlaridan biri bo'lgan Xonqada hunarmandchilikning bir necha sohalari rivojlangan, boy madaniy meros, xalq san'ati, milliy urf-odatlar va tarixiy obidalar bilan ajralib turadi.

Kalit so'zlar: Xonqa tumani, Xorazm viloyati, Xonaqoh, Y.G'ulomov, hunarmandchilik va qishloq xo'jaligi, Amudaryo, tarixiy-madaniy meros yodgorliklar, xalq urf odat va an'analari, folklor san'ati, turizm, ta'lim muassasalari.

O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyatida joylashgan Xonqa tumani 1926-yilda tashkil etilgan bo'lib, markazi Xonqa shaharchasidir. Xonqa tumani Xorazm viloyatining janubiy qismida joylashgan. U Amudaryo daryosining g'arbiy qismida, viloyat markazidan 12 kilometr masofada joylashgan. Tuman o'zining tabiiy go'zalligi, suv resurslari va qishloq xo'jaligi uchun qulay sharoitlari bilan ajralib turadi. Tumanda asosan qishloq xo'jaligi rivojlangan. Aholi paxta, sabzavot, meva va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan shug'ullanadi. Shuningdek, tumanda kichik sanoat korxonalari ham mavjud bo'lib, ular mahalliy aholini ish bilan ta'minlashga xizmat qiladi[5].

Xonqa tumani o'zining boy madaniy merosi va an'anaviy urf-odatlar bilan mashhur. Mahalliy aholi o'zining folklor san'ati, milliy kiyim-kechaklari va bayramlari bilan ajralib turadi. Tuman hududida ko'plab tarixiy yodgorliklar va madaniy obidalar mavjud.

Tuman hududida ta'lim muassasalari, jumladan, maktablar va kollejlari mavjud. Sog'liqni saqlash sohasida ham bir nechta tibbiyot muassasalari faoliyat yuritadi, bu esa aholi salomatligini ta'minlashga xizmat qiladi. Xonqa shahri O'zbekistonning Xorazm viloyatida joylashgan, qadimiy va zamonaviylik uyg'unligini o'zida aks ettirgan kichik shaharlardan biridir. Bu hudud o'zining boy tarixi, madaniy merosi va mehnatkash aholisi bilan ajralib turadi.

Xonqa shahri Xorazmning janubiy qismida joylashgan bo'lib, Xorazmning asosiy shaharlariga yaqin masofada joylashgan. Shahar atrofida Amudaryo suvlari yordamida sug'oriladigan unumdor yerlar bor. Hududning iqlimi kontinental bo'lib, yoz oylarida issiq va quruq, qishda esa sovuq va salqin bo'ldi. Xonqa hududi qadimdan madaniy va iqtisodiy jihatdan rivojlangan. Ushbu joydan qadimgi karvon yo'llari o'tgan bo'lib, bu hudud savdo va madaniy aloqalar markaziga aylangan. Sovet davrida shahar sanoati va qishloq xo'jaligi rivojlanib, hozirgi Xonqa o'sha davr infratuzilmasining asosida shakllangan[3].

Xonqa iqtisodiyoti asosan qishloq xo'jaligiga asoslangan. Paxta yetishtirish, g'alla, meva va sabzavotlar bu yerda asosiy ekinlar hisoblanadi. Shuningdek, kichik

va o'rta biznes rivojlanib, mahalliy ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasi ham ahamiyatli o'rinni egallaydi. Xonqa hududi tarixiy yodgorliklar va an'analar bilan boy. Hududda qadimiy masjidlar, ziyoratgohlar va mahalliy urf-odatlar saqlanib qolgan. Har yili bu yerga tashrif buyuruvchi sayyohlar Xorazmning betakror madaniyatini his qilish imkoniga ega. Ayniqsa, xalq hunarmandchiligi va milliy taomlari sayyohlarni o'ziga jalb qiladi.

Bugungi kunda Xonqa zamonaviy infratuzilma va xizmat ko'rsatish tarmoqlarini rivojlantirish yo'lida jadal ishlamoqda. Ta'lim muassasalari, madaniy markazlar va savdo inshootlari aholining turmush darajasini yaxshilashga hissa qo'shmoqda. Kelgusida shahar transport va turizm yo'nalishida yanada rivojlanishi kutilmoqda[5].

Xonqa shahri o'zining boy tarixi va madaniy merosi bilan, ayni paytda, zamonaviy rivojlanish yo'lida barqaror qadam tashlayotgan shahar hisoblanadi. Bu hududning tabiiy va insoniy boyliklari uni O'zbekistonning muhim ahamiyatga ega maskanlaridan biriga aylantiradi.

Xonqa – qadimiy Xorazmning ko'hna go'shalaridan biridir. Xonkaliklar qadim-qadimdan o'zlarining qo'ligul usta, hunarmandlari bilan nafaqat vohada, balki respublikamizda ham mashhur durlar. Xonqa tumanida hunarmandchilikning 50 dan ortiq turi bilan shug'ullanishadi. Xonlik davrida hattoki qishloqlar hunarmandchilik sohaslariga ixtisoslashgan va dong taratgan. Masalan, Olaja aholisi to'qigan matolari, Navxos aholisi yog'och va metall buyumlari, Durgadik qishlog'i shoyi matolari, Madir esa kulolchilik mahsulotlari bilan butun xonlikka tanilgan[3].

Bugungi kunda Xonqa tumanida hunarmandchilikka yanada ko'proq e'tibor berilmoqda va taraqqiy etishiga yo'l ochilmoqda. Hattoki tashkil etilgan kollejlarda hunarmandchilikning turli sohalari bo'yicha mutaxassislar tayyorlanmoqda. Hozirda tumanda mebelchilik, sandiqchilik, elakchilik, xarrotlik, kulolchilik, shirapazlik, temirchilik, tunukasozlik, misgarlik, zargarlik, tikuvchilik, to'quvchilik, qandolatchilik, oshpazlik kabi kasb-hunar turlaririvojlanmoqda. U o'z vaqtida Xiva xonligining tayanch bekligi bo'lgan va hozirda Xorazm viloyatining ilg'or tumanlaridan biriga aylangan.

Xonqa asrlar davomida vohaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim o'rin egallagan. Amudaryo sohilida joylashgan bu hududda vaqtning o'tib borayotgan har bir daqiqasini qadrlay oladigan ajoyib fe'l-atvor egalarining istiqomat qilishi bilan ajralib turadi. Xorazm vohasi haqida gap ketganda, albatta, Xonqa va xonqaliklar tilga olinadi. Zero, ular har doim o'zlarining qadimiy urf-odatlari va ajoyib xislatlari, ijodlari hamda hayot tajribalari bilan voha tarixining yorqin sahifalarini to'ldirib kelishgan. Chindan ham, Islomxo'ja, Ibrohimxo'ja, shoir Andolib, Dilovarxo'ja, "Buyuk xizmatlari uchun" ordeni sohibi, O'zbekiston xalq hofizi Do'stxon Boltayev, mehnat qahramonlari Vaisov Mahmudov, Tura Ro'zimov, Ahmadjon Yo'ldoshev, Dilich Davlatov kabi ming-minglab darajoti baland insonlar shu tumanning ulug' farzandlaridandir[3].

Albatta, Xonqa tumanining o'ziga xos tarixiy o'rni bor. Bugungi kunda izchil tadqiqotchi olimlar tomonidan aholining siyosiy, ijtimoiy, iqtisodiy va etnik tarixi,

madaniyati hamda tumaning o'ziga xos xususiyatlari haqida ko'plab risolalar chop etilgan. Bundan ancha avval Xonqa tumanining tarixi ocherk shaklida ham chop etilgan edi. Shunday bo'lishiga qaramasdan, mualliflar bu mavzuga qayta murojaat etganlar. Chunki ilgari chop etilgan ma'lumotlarni to'ldirish, kamchiliklarini bartaraf etish, yangi dalillarni jamlash zaruriyati paydo bo'lgandi. Bu tabiiy holat, zero, respublikamiz mustaqillikka erishgandan keyin, butun yurtdagi singari Xonqa tumanida ham katta o'zgarishlar sodir bo'ldi. Xalq hayoti rivojlanish sari yuz tutdi.

Xonqa haqida tarixiy manbalarda, ilmiy risola va maqolalarda ko'plab ma'lumotlarni uchratish mumkin. Zero, bunday ma'lumotlar o'rta asr manbalaridayoq uchray boshlaydi. Bir vaqtlar O'rta Osiyo bo'ylab sayohat qilgan eron va arab sayyohlarining ko'pchiligi Xorazmda ham bo'lgan. Ayniqsa, XII asrda, ya'ni Xorazmshohlar davlati rivojlanishning eng yuksak darajasiga erishgan davrda bu maskanga ko'plab sayyohlar, olim va mutafakkirlar, davlat arboblari va harbiylar tashrif buyurgan. Ular o'z asarlari, esdalik va kundaliklarida Xorazmning shahar va qishloqlari haqida qimmatli ma'lumotlarni yozib qoldirganlar. Jumladan, Ibn Battuta, Istaxriy, Maqdisiy, Ibn Rusta kabi eroniy va arab mualliflari, Xitoy sayyohchisi Chjan Syan, vengriyalik Herman Vamberi asarlarida Xonqa haqidagi ma'lumotlarni uchratish mumkin[5].

Shaharcha tarixiy adabiyotlarda Safardiz nomi bilan tilga olinadi. XIII asrda mo'g'ullar tomonidan vayron etilganidan so'ng bu yerda masjidning birgina xonaqohi saqlanib qolgan. Akademik Yahyo G'ulomovning ta'rificha, tuman nomi (Xonaqoh — Xonaqo — Xonqa) shundan kelib chiqqan.

Xonqa X asrda Darxos deb ham atalgan va u "Zikrxona" so'zidan olinganligi haqida ma'lumotlar adabiyotlarda keltiriladi. V.V.Bartold "xonaqo" forscha "xona" so'zining so'g'diylar tilida talaffuz qilinishidir, degan fikrni keltiradi. Xonqa ko'hna va hamisha navqiron Xorazmning qadimiy qal'alaridan biri bo'lgan. U asrlar davomida Quyi Amudaryo mintaqasida vohaning iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy hayotida muhim rol o'ynab kelgan. Uning Buyuk Ipak yo'llari hamda ko'hna Xorazmning qadimiy poytaxtlari; Qo'yqirilgan qal'a, Kat va Xiva shaharlariga yaqinligi, iqtidorli va mehnatkash kishilari uning gullab yashnashiga sabab bo'lgan[2].

Xorazm tarixini keng va chuqur biladigan S.P.Tolstov, V.V.Bartold, Yahyo G'ulomov, Bo'riboy Axmedov, Axmadali Asqarov kabi olimlarimiz bir-biriga qarama-qarshi fikrlarni o'rtaga tashlaganlar. Masalan, Akademik Yaxyo G'ulomov o'zining "Xorazmning sug'orilishi tarixi" nomli asarida "Xonqa atamasi "Xonaqoh"so'zidan kelib chiqqan va mo'g'ullar istilosi davrida vayron etilib, faqat bitta Xonaqoh saqlanib qolgan edi. Bu Xonaqoh atrofida keyinchalik hayot tiklangan va o'sha vaqtdan boshlab shahar Xon-(a)-qo (Xonqa) deb atalgan",-deb ko'rsatadi. Y.G'ulomovning yozishicha, shaharda mashhur yassaviycha Said otaning o'g'li yoki jiyaniga atab qurilgan xonaqo bo'lgan. Shahar mo'g'ullar istilosi davrida vayron etilgan va faqat xonaqo saqlanib qolgan. Keyinchalik xonaqo atrofida hayot boshlangan. Natijada bu xonaqo shahar nomiga aylangan[4].

Urganch Davlat Universitetining professori, filologiya fanlari doktori Zarifboy Do'simov "Xonqa" atamasi masalasiga aniqlik kiritib, bunday deb yozadi: "Xonaqo so'zining Xonqaga aylanishi hodisasini fonetik jihatdan izohlash qiyin. Chunki "a" harfi so'z o'rtasida puxta o'rnashib qolgan. Umuman turkiy tillarda undoshlar orasidan unli tovush tushishi deyarli uchramaydi. Shunday ekan, Xonqa eron tillariga xos "Kantxo" - qishloq, mustahkamlangan shahar so'zi bilan bog'liq[1].

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, Xonqa tumani Xorazm viloyatining muhim iqtisodiy, madaniy va tarixiy maskanlardan biri bo'lib, boy madaniy va tarixiy merosga egadir. Hudud xalq hunarmandchiligining markazi hisoblanib, turli hunar turlari—kulolchilik, yog'och o'ymakorligi, to'quvchilik, zargarlik va boshqalar rivojlangan. Tuman aholisi o'zining qadimiy urf-odatlarini, milliy san'ati va folklorini avaylab saqlab kelmoqda. Xonqa so'zining etimologiyasi xususida bir qancha fikrlar mavjud bo'lib, olimlarning ayrimlari Xonaqoh(me'moriy inshoot) nomidan kelib chiqqan, degan firlarni keltirsalar, ayrim mutaxassislar Xonqani-mustahkamlangan shahar, qishloq nomi bilan atalganligini o'z tadqiqotlarida keltirib o'tadilar. Bugungi kunda Xonqa zamonaviy infratuzilmasi, ta'lim muassasalari, sanoati va xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan aholi turmush darajasini oshirish yo'lida jadal rivojlanmoqda. Xonqa o'zining tarixiy o'tmishi, xalq ijodi va zamonaviy taraqqiyoti uyg'unlashgan holda, kelajakda yanada yuksak taraqqiyot sari intilayotgan hudud hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Do'simov Z., Egamov X. Joy nomlarining qisqacha izohli lug'ati. Toshkent. 1977. 142-bet.
2. Do'simov Z. "Xorazm toponimlari". Toshkent. Fan nashriyoti. 1985.26-bet.
3. Nurjonov K., Jumaniyozova M. Xonqa tarixi. Urganch. 2015. 19-31-b.
4. G'ulomov Y. Xorazmning sug'orilish tarixi. Toshkent. 1959. 150-bet.
5. www.wikipedia.uz internet sayti

TOG'LI QORABOG' MUAMMOSINING KAVKAZORTI MINTAQASI VA DUNYO HAMJAMIYATIGA TA'SIRI

Tugalova Madina Erkin qizi

Jizzax davlat pedagogika universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotasiya: Ushbu maqolada Tog'li Qorabog' muammosinining Ozarbayjon va Armaniston uchun ahamiyatli jihatlari, bu hudud uchun ikki davlat o'rtasida bo'lib o'tgan harbiy to'qnashuvlar, boshqa davlatlarning bu mojarolarda ishtirok etishi, ularning ko'zlagan maqsadlari va manfaatlari bo'yicha atroflicha fikrlar keltirilgan. Tog'li Qorabog' muammosi, u keltirib chiqargan vaziyat xalqaro miqyosda qay darajada muhim ekanligi va uning jahon hamjamiyatiga bo'lgan ta'siri masalalari mavjud adabiyot va manbalar ma'lumotlari asosida tahlil qilindi.

Kalit so'zlar: Kavkazorti, jahon hamjamiyati, Tog'li Qorabog' muammosi, Ozarbayjon, Armaniston, harbiy to'qnashuvlar, etnik holat, davlatlar o'rtasidagi munosabatlar, Rossiya munosabati, BMT bosh assambleyasi, R. Erdo'g'an, Eron va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar.

Tog'li Qorabog'dagi vaziyat Ozarbayjon va Armaniston o'rtasidagi munosabatlarga bevosita o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi. Sababi, ikki davlat ham bu hududga ega bo'lishda birdek manfaatdor. Bu davlatlarga chegaradosh bo'lgan boshqa davlatlar ham o'z manfaatlari nuqtai nazaridan yoki Ozarbayjon yoki Armanistonni qo'llab quvvatlashga tayyor. Tog'li Qorabog'dagi muammoli vaziyat nafaqat Kavkazorti mintaqasiga balki dunyo hamjamiyati uchun muhim hisoblanadi. Tog'li Qorabog' vujudga keltirgan vaziyat mintqa va xalqaro vaziyat uchun bir qator keskin holatlarni keltirib chiqardi. Har bir davlat o'z maqsadi va manfaatlari yuzasidan bu vaziyatdan foydalanishga harakat qiladi.

Tog'li Qorabog' muammosi hozirgi kunda biroz yumshagan bo'lishiga qaramasdan, u o'z tarixida xalqaro munosabatlarda eng dolzarb muammolardan biri edi. Bu muammoning kelib chiqishi 1920-yillardagi SSSRning xatti-harakatlariga bog'liq. U asosan arman millatiga mansub aholi yashaydigan Tog'li Qorabog' hududini Ozarbayjonga anklav hudud sifatida beradi. Tog'li Qorabog' Ozarbayjonning janubi-sharqiy qismida joylashgan bo'lishiga qaramasdan, arman yetakchilari tomonidan boshqariladi. Bu hudud ustida Ozarbayjon va Armaniston o'rtasida uch marotaba harbiy to'qnashuvlar bo'lib o'tgan.

Birinchi to'qnashuv 1988-1994 yillarni o'z ichiga oladi va bu to'qnashuv natijasida bu hudud Armaniston ixtiyoriga o'tadi. Bu hudud uchun ikkinchi harbiy harakatlar esa 2020-yilda sodir bo'ladi va to'qnashuv natijasiga ko'ra Ozarbayjon bu

hududni o'ziga qaytarib oldi. Uchinchi to'qnashuv 2022-yilda ikkala davlat o'rtasida sodir bo'ldi va Tog'li Qorabog' hududi to'laqonli Ozarbayjon tarkibiga o'tqazildi¹.

Bu hudud uchun urush kelib chiqishiga turli xil sabablar keltirish mumkin. Birinchidan bu hudud geosiyosiy jihatdan juda muhim hisoblanadi. U G'arb va Sharqni bog'lab turuvchi geosiyosiy strategik nuqtada joylashgan. Bu hududga ega bo'lish, o'z navbatida xalqaro munosabatlarda bir qator imkoniyatlar berishi mumkin. Ikkinchidan bu muammoning asosiy ishtirokchilari bo'lgan Armaniston va Ozarbayjon ikki xil diniy tarkibga ega. Armanistonda asosan xiristianlik diniga mansub aholi istiqomat qiladi. Ozarbayjonda esa musulmonlar aholining eng ko'p tarkibini tashkil qiladi². Uchinchidan, bu muammoning asosiy ishtirokchilari bo'lgan Armaniston va Ozarbayjon Tog'li Qorabog' haqida o'z qarashlariga ega va bu qarashlarini davlat siyosatiga aylantirishga harakat qiladilar. Ozarbayjon uchun Tog'li Qorabog' davlatning madaniy markazi, millatning o'zligi hamda ko'pgina Ozarbayjonlik shoir va yozuvchilar uchun tug'ilib o'sgan ona makon hisoblanadi.

Tog'li Qorabog'ni yo'qotish Ozarbayjon uchun milliy o'zligini yo'qotish va Ozarbayjon madaniyatining butunlay yo'q bo'lib ketishini anglatar edi. Armaniston nuqtai nazariga ko'ra, Tog'li Qorabog' xristian sivilizatsiyasining oxirgi o'choqlaridan biri va qadimiy Arman shahzodalari va yepiskoplari uchun ajoyib makon hisoblangan. Ular "Tog'li Qorabog' - Armanistonning Quddusi" iborasi orqali o'zlarini bu hudud ustidan nazorat o'rnatishga undaydi³. Yuqorida keltirib o'tilgan sabablar bu hudud bo'yicha ikki davlat munosabatlariga o'z ta'sirini o'tkazmasdan qolmaydi.

Tog'li Qorabog' uchun ikki davlat o'rtasidagi mojarolar birinchi navbatda bu hududda yashovchi aholiga o'zining ulkan salbiy ta'sirini ko'rsatdi. Ular bu to'qnashuvlar natijasida ko'plab o'z yaqinlarini, turar joylarini va o'z mol mulkini yo'qotishgan. Urush boshlangan vaqtda 18 yoshdan 55 yoshgacha bo'lgan erkaklar urush bo'lgan hududlarda volontyor sifatida qatnashib, jabr ko'rganlarga yordam berishda ishtirok etishadi⁴. Bu to'qnashuvning oqibatida kelib chiqqan og'ir vaziyatlar bu yerda yashovchi aholiga ulkan psixologik ta'sirini ko'rsatdi. Ular uchun inson qadri va inson huquqlari yer bilan yakson bo'ldi. U yerdagi bolalar xunrezlik

¹Adam Zeidan. Nagorno-Karabakh-History, Map, & Conflict. 2023. Kirish tartibi: <https://www.britannica.com/place/Nagorno-Karabakh> (Murojaat qilingan sana: 21.12.2023)

²Armenia-Azerbaijan: Why did Nagorno-Karabakh spark a conflict? 2020. Kirish tartibi: <https://www.bbc.com/news/world-europe-54324772> (Murojaat qilingan sana: 21.12.2023)

³Anzhela Mnatsakanyan. Why Nagorno-Karabakh matters – New Eastern Europe. 2020. Kirish tartibi: <https://neweasterneurope.eu/2020/04/14/why-nagorno-karabakh-matters/> (Murojaat qilingan sana: 21.12.2023)

⁴Ahmed Muxtar. Armenia/Azerbaijan: Nagorno-Karabakh conflict caused decades of misery for older people – new reports - Amnesty International. 2022. Kirish tartibi: <https://www.amnesty.org/en/latest/news/2022/05/armenia-azerbaijan-nagorno-karabakh-conflict-caused-decades-of-misery-for-older-people-new-reports/> (Murojaat etilgan sana: 22.12.2023)

va vayronagarchiliklardan aziyat chekadi va ularning aqliy rivojlanishi va sog'lig'iga salbiy ta'sirini o'tkazdi.

Psixologik katta bosimdan tashqari bu hududdagi armanlar o'zlarining yillar davomida qurib, obod qilgan manzillarini tashlab ketishga majbur bo'lishdi. Sababi, to'xtovsiz harbiy harakatlar va otishmalar natijasida ular yashab kelgan hudud vayronaga aylantirdi. Bu hududdagi uylar, maktablar, shifoxonalar va boshqa madaniy joylar vayronaga aylandi. Natijada odamlar oddiy hayot uchun kerakli bo'lgan xizmatlardan ham foydalana olmadilar va o'z makonlarini tashlab ketishga majbur bo'lishdi. Bu salbiy oqibatlardan tashqari, odamlarning ko'p miqdorda halok bo'lishi eng dahshatli natija edi. Ikki tomondan 7 mingdan ziyod askarlar va oddiy fuqarolar halok bo'lishdi. Minglab kishilar esa mayib majruh bo'lib qolishdi⁵.

Tog'li Qorabog' muammosining asosiy ishtirokchilari bo'lgan Armaniston va Ozarbayjon ham bu mojarodan ko'p aziyat chekdi. Birinchi navbatda ikki davlat o'rtasidagi qo'shnichilik munosabatlari yomonlashdi. Asrlar davomida yonma-yon yashab kelgan xalqlar o'rtasidagi aloqalar ma'lum bir ma'noda yomonlashdi. Ayniqsa, to'qnashuvlar natijasida Tog'li Qorabog'dagi armanlarning halok bo'lishi, Armaniston fuqarolari uchun Ozarbayjonni begunoh kishilarni o'ldirayotgan davlat sifatida gavalantirdi. Bu esa o'z navbatida ikki xalq o'rtasida o'zaro ishonch va do'stlik yo'qolganligini bildirar edi. Ular uchun o'z qardoshlarini yo'qotish juda og'ir va alamli vaziyat edi. Ular har doim Tog'li Qorabog'dagi armanlar bilan bir mamlakatda yashashni xohlar edilar. Sababi, Tog'li Qorabog'dagi armanlar ham Armanistonga qo'shilishdan xayrixoh edilar.

Tog'li Qorabog' mintqasi uchun bo'lgan to'qnashuvlar o'z navbatida Ozarbayjonga ham o'z ta'sirini ko'rsatdi. Armanistonga to'qnashuvda mag'lub bo'lmaslik uchun amalga oshirilgan keng miqyosda harbiy harakatlar katta miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab etar edi. Shu sababli, Ozarbayjon iqtisodiyoti bu to'qnashuvlar davrida biroz susaydi. 1994 va 2020-yillarda sodir bo'lib o'tgan ikki davlat o'rtasidagi to'qnashuvlar Ozarbayjonning Yalpi ichki mahsulot hajmiga o'z ta'sirini ko'rsatgan.

1993-yilda Ozarbayjon YIMi 1.57 mlrd AQSh dollarini tashkil etsa, 1994-yilgi Tog'li Qorabog' uchun bo'lgan to'qnashuv natijasida bu miqdor 1.19 mlrd AQSh dollariga tushadi. 2020-yilda bu to'qnashuvlarning takrorlanishi tufayli, Ozarbayjon YIMi 2019-yilgi 48.17 mlrd AQSh dollaridan 42.69 mlrd AQSh dollariga pasayib ketdi. Bu kabi ta'sirlar Armanistonda ham kuzatildi. Ko'p miqdordagi arman millatiga mansub aholining o'limi bu davlat duch kelgan asosiy qiyinchiliklardan biri. Bu esa aholining qolgan qismiga ulkan psixologik salbiy ta'sirini ko'rsatdi.

⁵ Nagorno-Karabakh Conflict | Global Conflict Tracker. 2023. Kirish tartibi: <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/conflict/nagorno-karabakh-conflict> (Murojaat etilgan sana: 23.12.2023)

Ozərbaycan iqtisadiyyoti kabi, bu hərbiy to‘qnashuvlar natijasida Armanistonda ham biroz iqtisodiy pasayish holatlari kuzatildi.

2019-yildagi 13.62 mlrd AQSh dollariga teng miqdordagi YIM hajmi, 2020-yildagi Ozərbaycan va Armaniston o‘rtasidagi ikkinchi hərbiy to‘qnashuv natijasida bu YIM hajmi 12.64 mlrd AQSh dollariga pasayib ketdi. Sababi, bu hərbiy to‘qnashuvlar ko‘p miqdordagi moliyaviy xarajatlarni talab etadi⁶. Bu kabi salbiy oqibatlarga qaramasdan, ikki davlat ham bu mintaqani qo‘lga kiritishdan birdek manfaatdor. Sababi, bu mintaqqa Sharq va G‘arbni bog‘lab turuvchi Kavkazorti hududining markazida joylashgan edi. Bundan tashqari, bu hududni qo‘lga kiritish ko‘p miqdorda mineral resurslardan foydalanish imkonini beradi. Bu esa mamlakat iqtisodiyotida o‘lishga olib keladi. Shuningdek, aholi soni ham davlat rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etadi.

Tog‘li Qorabog‘dagi hərbiy mojarolarga Ozərbaycan va Armanistondan tashqari dunyoning bir qator davlatlari ishtirok etishgan: Rossiya, Turkiya, Eron, Isroil va AQSh. Ularning har birida o‘zi uchun manfaatli bo‘lgan maqsadlari va bundan ko‘zlangan vazifalari mavjud edi. Bu mojarolarda boshqa davlatlardan ko‘ra faol ishtirok etgan davlat bu Turkiya edi. U Ozərbaycani o‘zi uchun do‘st va madaniy jihatdan bir biriga juda yaqin bo‘lgan qardosh xalq sifati qabul qilgan. 2020-yilgi hərbiy harakatlar vaqtida Turkiya o‘zini Janubiy Kavkazda tinchlikni ta‘minlovchi davlat sifatida e‘lon qilgan edi. Turkiya prezidenti Rajab Toyib Erdo‘gan 2020-yil oktyabr yida Ozərbaycan va Armaniston o‘rtasidagi tinchlik sulhini tuzish bo‘yicha bir qator takliflar bergan edi.

2022-yil sentyabr oyidan Turkiya Armanistonni 2020-yildagi urush harakatlarini to‘xtatish bo‘yicha imzolangan kelishuvni zaiflashtirishga harakat qilishda ayblaydi. 19-sentyabrdagi BMT Bosh Assambleyasida Turkiya prezidenti Rajab Toyib Erdo‘gan nutq so‘zlaydi: Biz bir millat ikki davlat shiori ostida Ozərbaycaning o‘z hududini himoya qilish uchun olib borayotgan harakatlarini qo‘llab quvvatlaymiz. Bundan ko‘zlangan maqsad, Ozərbaycan bilan Tog‘li Qorabog‘ integratsiyasi orqali vujudga keladigan geostrategik imkoniyatlardan foydalanish edi. Shuningdek, Turkiya Ozərbaycaning Zanguzar yo‘lagini qurishdan ham manfaatdor edi. Sababi, bu yo‘lak “Turkiya dunyosining” madaniy va iqtisodiy jihatlari rivojlanishi uchun keng imkoniyatlar yaratib beradi. Shuning uchun Ozərbaycaning Tog‘li Qorabog‘ ustidan qozongan g‘alabasi Turkiya uchun o‘zining Janubiy Kavkazdagi o‘z rejalarini amalga oshirish yo‘lidagi katta g‘alaba edi. Bu mojarolarda faol qatnashib kelayotgan yana bir davlat bu Rossiya hisoblanadi. Dastlab, Rossiya

⁶GDP (current US\$) - Azerbaijan | Data. 2023. Kirish tartibi:
<https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?end=2022&locations=AZ&start=2022&view=map>
(Murojaat etilgan sana: 25.12.2023)

2000 kishilik harbiy guruhni tinchlikni o'rnatish maqsadida yuborgan edi, biroq Ozarbayjonning tasodifiy harbiy o'qotishlari tufayli bir qismi halok bo'lgandan so'ng, Rossiya o'zizni harbiy harakatlarga aralashishni to'xtatdi.

2020-yilda Armanistonning Kollektiv xavfsizlik va hamkorlik tashkilotidan Tog'li Qorabog'dagi harbiy harakatlar uchun yordam so'rab qilgan murojaati Rossiya tomonidan rad etildi. Buning natijasida ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar biroz yomonlashdi. Bundan tashqari Rossiya va Ozarbayjon o'rtasida ham yaxshi munosabatlar mavjud edi. 2022-yil noyabr oyida Rossiyaning Gazprom kompaniyasi Ozarbayjonning SOCAR kompaniyasiga 1 mlrd kub metr miqdordagi gaz sotishga rozi bo'lgan edi. 2023-yilning yanvar-aprel oylarida Rossiya va Ozarbayjon o'rtasidagi savdo 2022-yilga nisbatan 55.3 % gacha oshdi.

Eron va Ozarbayjon o'rtasidagi munosabatlar haligacha tarang ahvolda. Ozarbayjonning Isroil bilan xavfsizlik masalasi bo'yicha hamkorligi va 2023-yil Yanvar oyidagi Tehron shahridagi Ozarbayjon elchixonasiga uyushtirilgan hujum bu munosabatlarni yanada yomonlashtirmoqda. Shuningdek, Eron Ozarbayjonning Zanguzar yo'lagini qurishiga qarshi, sababi bu yo'lak Eronni Armaniston chegarasidagi savdodan uzib qo'yishi mumkin. Shunday bo'lsada, Eron Ozarbayjon bilan yaxshi munosabatda bo'lishdan manfaatdor⁷. Shuningdek, bu mojarolarga aralashgan davlatlardan biri Isroil edi. Isroil Ozarbayjonni harbiy texnika va dronlar bilan ta'minlab turgan. Buning sababi, Isroil va Ozarbayjon o'rtasidagi diplomatik munosabatlar kuchayotgan edi.

Ikki davlat poytaxtlarida elchixonalar ochildi va Isroilning Bokudagi elchisi o'z nutqida Ozarbayjonni do'st va muhim geostrategik tayanch sifatida ta'kidlab o'tdi. Bundan tashqari, Isroilva Ozarbayjondan gaz va neft sotib olishni reja qilgan edi. Sababi, dunyoning yetakchi neft va gaz export qiluvchi Arab davlatlari bilan Isroilning munosabatlari yaxshi emas. Shuning uchun Isroil Ozarbayjon bilan aloqalarni har qachongidan ko'ra rivojlantirishga harakat qilmoqda. Biroq Ozarbayjonning bu harakatlari Eron Islom Respublikasi tomonidan norozilikka sabab bo'lmoqda. Eronning fikricha Isroil Ozarbayjonning Eron bilan chegaradosh bo'lgan hududida o'zi uchun harbiy bo'lim qurishga tayyorlanmoqda. Bu esa Eron Islom Respublikasining xavfsizligiga tahdid solishi mumkin. Chunki, Isroil va Eron munosabatlari anchagina tarang ahvolda⁸.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, maqsadli olib borilayotgan siyosat natijasida Tog'li Qorabog' muammosi jahon hamjamiyatining diqqat markazida

⁷ Samuel Ramani. The geopolitical implications of Nagorno-Karabakh's demise. 2023. Kirish tartibi: <https://www.newarab.com/analysis/geopolitical-implications-nagorno-karabakhs-demise> (Murojaat etilgan sana: 26.12.2023)

⁸Giorgio Cafiero. Why Azerbaijan is moving to closer to Israel. 2023. Kirish tartibi: <https://www.newarab.com/analysis/why-azerbaijan-moving-closer-israel> (Murojaat etilgan sana: 26.12.2023)

saqlanib kelmoqda. Ko'pchilik mutaxassislar fikricha urushda "g'oliblar bo'lmaydi", ha albatta g'oliblar bo'lmaydi. Urushning yaxshigina zarari va talofatini, undan keyingi qayta tiklash ishlaridagi qiyinchiliklarni oddiy xalq his qila oladi. Mustaqil xorijiy tadqiqodchilar muammo yuzasidan seminarlar o'tkazishmoqda, matbuotda chiqishlar qilib, kitoblar nashr qilishmoqda. Obyektiv izlanishning so'nggi mahsullaridan biri bu Moskva Davlat Universiteti tomonidan 2011-yilning yanvar oyida chop etilgan „Mayendorfdan Ostonagacha: arman - ozarbayjon tog'li qorabog' mojarosining prinsipial jihatlar“ kitobidir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Adam Zeidan. Nagorno-Karabakh-History, Map, & Conflict. 2023. Kirish tartibi: <https://www.britannica.com/place/Nagorno-Karabakh> (Murojaat qilingan sana: 21.12.2023)
- 2.Armenia-Azerbaijan: Why did Nagorno-Karabakh spark a conflict? 2020. Kirish tartibi: <https://www.bbc.com/news/world-europe-54324772> (Murojaat qilingan sana: 21.12.2023)
- 3.Anzhela Mnatsakanyan. Why Nagorno-Karabakh matters – New Eastern Europe. 2020. Kirish tartibi: <https://neweasterneurope.eu/2020/04/14/why-nagorno-karabakh-matters/> (Murojaat qilingan sana: 21.12.2023)
- 4.Ahmed Muxtar. Armenia/Azerbaijan: Nagorno-Karabakh conflict caused decades of misery for older people – new reports - Amnesty International. 2022. Kirish tartibi: <https://www.amnesty.org/en/latest/news/2022/05/armenia-azerbaijan-nagorno-karabakh-conflict-caused-decades-of-misery-for-older-people-new-reports/> (Murojaat etilgan sana: 22.12.2023)
- 5.Nagorno-Karabakh Conflict | Global Conflict Tracker. 2023. Kirish tartibi: <https://www.cfr.org/global-conflict-tracker/conflict/nagorno-karabakh-conflict> (Murojaat etilgan sana: 23.12.2023)
- 6.GDP (current US\$) - Azerbaijan | Data. 2023. Kirish tartibi: <https://data.worldbank.org/indicator/NY.GDP.MKTP.CD?end=2022&locations=AZ&start=2022&view=map> (Murojaat etilgan sana: 25.12.2023)
- 7.Samuel Ramani. The geopolitical implications of Nagorno-Karabakh's demise. 2023.<https://www.newarab.com/analysis/geopolitical-implications-nagorno-karabakhs-demise> (Murojaat etilgan sana: 26.12.2023)
- 8.Giorgio Cafiero. Why Azerbaijan is moving to closer to Israel. 2023. Kirish tartibi: <https://www.newarab.com/analysis/why-azerbaijan-moving-closer-israel> (Murojaat etilgan sana: 26.12.2023)

GURLAN SHAHRI TARIXIDAN LAVHALAR

Matyoqubova Sevara Davron qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti Tarix fakulteti talabasi

Annotatsiya. Ushbu maqolada Xorazm diyoridagi davlatlar faoliyatida munosib o'rin egallagan Gurlan shahrining tarixiy shakllanishi, rivojlanishi, yozma va arxeologik manbalarda tahlillari natijasida olingan ma'lumotlar masalalarini yoritib bergan. Arxeologik tadqiqotlar natijasida yuzaga chiqqan qadimgi sug'orish tizimlari, mudofaa devorlari, kulolchilik buyumlari va tangalar kabi topilmalar shahar iqtisodiyoti va madaniy hayotini to'laqonli o'rganishga imkon beradi.

Kalit so'zlar: Qadim Xorazm diyori, Gurlan shahri, S.P.Tolstov, qo'rg'on, qal'alar, tangalar, Yunesko, Ibn Havqal, Al - Istahriy, qadimiy yozuvlar.

Qadim Xorazmning ko'hna shaharlaridan biri bo'lgan Gurlan shahri Buyuk Ipak yo'lining muhim savdo markazlaridan biri bo'lib, Xorazm davlatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy hayotida muhim o'rin tutgan. Gurlan hududi qadimiy Xorazm sivilizatsiyasining markazlaridan biri bo'lgan. Shahar qadimdan suv bilan ta'minlanish tizimlari va sug'orish kanallari orqali dehqonchilik markazi bo'lib kelgan. Gurlan O'rta Osiyo tarixida katta o'rin tutgan Xorazm davlatining bir qismi bo'lib, uning iqtisodiy va madaniy markazlaridan biri sifatida tanilgan.

Xorazmshohlar davrida shahar mudofaa devorlari bilan o'ralgan va strategik ahamiyatga ega bo'lgan. Gurlan shahri qadim zamonlardan beri aholi yashaydigan hudud bo'lgan. Bu yerda turli davrlarda turli xalqlar yashagan va o'z madaniyatlarini rivojlantirgan. Gurlan va uning atrofidagi hududlar Islomdan oldin ham muhim savdo yo'llarida joylashgan. Bu joylar orqali karvonlar o'tgan va savdo-sotiq faoliyatlari amalga oshirilgan.

VIII asr birinchi choragida Islom dini kirib kelishi bilan Gurlan shahri yanada rivojlandi. Bu davrda Gurlan musulmonlar uchun muhim madaniyat va ta'lim markaziga aylandi. Shaharda masjidlar, madrasalar va boshqa diniy obidalar qurildi. O'rta asrlar davomida Gurlan shahrida turli davlatlar va imperiyalar ta'siri ostida rivojlanish davom etdi. Gurlan o'zining madaniyati, san'ati va ilm-fani bilan mashhur bo'ldi. Gurlan shahrining nomi Gurlan nomi turkiy tilidan kelib chiqadi va "gullar" yoki "gullash" ma'nosini anglatadi[4].

Xorazmning Gurlan shahridagi o'tkazilgan arxeologik tadqiqotlar natijasida qadimiy shaharning qoldiqlari, jumladan qadimiy mudofaa devorlari, istehkomlar va shaharning turar-joy qoldiqlari aniqlangan. Bu joylar qadim zamonlardagi shaharsozlik va mudofaa tizimlarini o'rganishga imkon berdi. Gurlan atrofida

joylashgan qadimiy qo'rg'on va qal'alar, jumladan, minoralar va g'orlar arxeologlarning diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Bu obidalar asosan ilk o'rta asrlarga tegishli ekanligini tadqiqotlarda aniqlandi.

Qazishma jarayonida topilgan kulolchilik buyumlari, sopol idishlar, tangalar va turli metall ashyolar Gurlan aholisi hayot tarzi va iqtisodiy faoliyati haqida qimmatli ma'lumot beradi. Tadqiqotlar davomida bu yerda Islom tarixi bilan bog'liq maqbara va masjid qoldiqlari ham aniqlangan. Bu obidalar diniy va madaniy merosni o'rganishda muhim ahamiyatga egadir.

Gurlan shahridagi arxeologik izlanishlar Markaziy Osiyo tarixini, ayniqsa Xorazm davlatining rivojlanish jarayonlarini chuqurroq tushunishga xizmat qiladi. Ushbu tadqiqotlar natijasida topilgan moddiy-madaniy yodgorliklar mintaqaning uzoq tarixiy davrlardagi turmush tarzi, hunarmandchilik, savdo va ijtimoiy hayoti haqida boy ma'lumotlar beradi[2].

Gurlan shahri va uning atrofidagi arxeologik yodgorliklarni o'rganish ishlari asosan XX asrning o'rtalaridan boshlanib, hozirgi kungacha davom etmoqda. 1937-1940-yillarda Xorazm AEKE rahbari Sergey Tolstov boshchiligidagi Gurlan tumani va Xorazmning boshqa hududlarida ilk keng ko'lamli qazishmalar olib borildi. Bu davrda Xorazmning qadimiy shahar va qo'rg'onlari, jumladan Gurlan atrofidagi bir nechta arxeologik yodgorliklar aniqlangan. 1950-1960-yillarda ham bu eyrda tadqiqotlar davom ettirilib, Gurlan va Xorazmning boshqa hududlarida joylashgan yodgorliklarda chuqur qazishmalar o'tkazildi[3]. Natijada arxeolog mutaxassislar mudofaa devorlari, qadimiy turar-joylar va sug'orish tizimlari qoldiqlarini o'rgandilar. Ushbu tadqiqotlar zamirida Xorazm tarixi va arxeologiyasi bo'yicha bir qator ilmiy maqolalar va kitoblar chop etildi.

Xorazm tarixi xususan Gurlan shahrini o'rganishimizda avvalo biz o'sha davrdagi manbalarga tayanib ham, shahar hayoti haqida ma'lumotlar olishimiz mumkin. Xorazm hududi haqida qimmatli ma'lumot beruvchi asosiy manbalardan biri arab geograf va tarixchilari Al-Istahriy va Ibn Havqalning asarlaridir. Ularning mashhur geografik asarlari "Kitab al-Masalik va al-Mamalik" (Yo'llar va mamlakatlar kitobi) IX-X asrlarda yozilgan bo'lib, Xorazm haqida batafsil tasvirlarni o'z ichiga oladi[4].

Al-Istahriy Xorazmni o'sha davrdagi muhim savdo va sug'orish markazi sifatida tasvirlab, uning shaharlarini sanab o'tadi. Xorazmning asosiy shaharlaridan biri bo'lgan Kat, Vazir, Jurjaniya (hozirgi Urganch) va ularning atrofidagi qishloqlar haqida so'z yuritadi. Gurlan, ehtimol, o'sha davrdagi kichikroq shahar yoki mustahkam qishloq bo'lgan. Ibn Havqal Al-Istahriy asarini qayta ishlagan va boyitgan geograf hisoblanadi. U Xorazmning sug'orish tizimi, Amudaryoning geografik o'рни va shaharlarining iqtisodiy ahamiyati haqida yozgan. Unga ko'ra,

Xorazm yirik savdo yo'llarining chorrahasida joylashgan bo'lib, dehqonchilik va hunarmandchilik rivojlangan edi[1]. Ushbu asarlar orqali Xorazmning iqtisodiy, ijtimoiy va geografik muhim jihatlarini o'rganish Gurlan tarixini ham chuqurroq tushunishga yordam beradi.

Shu o'rinda Gurlan so'zi etimologiyasiga to'xtalsak, Professor A.Nabiyevning Tarixiy o'lkashunoslik kitobida keltirilishicha "Bir vaqtlar bu yerda ko'r chol va cho'loq kampir ko'chib kelgan. Ular hunarmand bo'lib, bozorda o'zlari yasagan narsalarni sotishar ekan. Ular yasagan narsalar juda talabgir bo'lib, aholi kosiblarda bir sir bor deb ularning atrofiga joylasha boshlabdilar. Zamonlar o'tishi bilan bu yerlar (ko'r va lang-ko'rlang)Gurlan nomini olibdi[6].

Z. Do'simovning aytishicha, Gurlan so'zining paydo bo'lishi turkiy-mo'g'ul davri bilan bog'liqdir. Mahalliy aholi Gurlan asli Ko'rlang bo'lib aholi tomonidan Gurlan deya talqin qilinadi deydi. Mo'g'ul tilida bog', hovli ma'nosini anglatuvchi Xurelen so'zi bo'lib, bu talqinga ko'ra, to'xtash joyi degan ma'noni anglatadi.

1991-2000-yillar O'zbekiston Fanlar akademiyasining arxeologlari Gurlan va uning atrofidagi obidalarda izlanishlar olib bordilar. 2000-yillardan hozirgi kungacha Gurlan atrofidagi tarixiy obidalar bo'yicha ilmiy-ekspeditsiyalar muntazam amalga oshirilmoqda. 2014-yilda Xorazmning qadimiy yodgorliklari, jumladan Gurlan bilan bog'liq tarixiy joylar YuNESKOning Jahon merosi ro'yxatiga taklif etilgan[6].

Xorazmning Gurlan shahri va uning atrofida olib borilgan arxeologik tadqiqotlar mintaqaning qadimiy tarixi, madaniy va iqtisodiy hayoti haqida qimmatli ma'lumotlar beradi. Tadqiqotlar asosan O'zbekiston Fanlar akademiyasi, Xorazm arxeologiya ekspeditsiyasi va boshqa xalqaro ilmiy guruhlar tomonidan olib borilgan.

Ko'p yillar davomida Gurlanda amalga oshirilgan tadqiqotlar natijasida Gurlan hududida qadimiy shahar devorlari, qo'rg'on va istehkomlar qoldiqlari topilgan. Arxeologlar mudofaa tizimi qoldiqlarini aniqlab, bu yerda mustahkam shahar bo'lganini tasdiqlashdi. Ariq va kanal tizimlari shahar dehqonchilik bilan shug'ullanganini ko'rsatadi. Amudaryo yaqinidagi Gurlanda qadimiy sug'orish tizimi qoldiqlari aniqlandi. Qazishmalar davomida sopol idishlar, kulolchilik mahsulotlari, pichoqlar va bronza ashyolar topilgan. Bu topilmalar Gurlanda rivojlangan hunarmandchilik markazi bo'lganini ko'rsatadi[5].

Gurlanda qadimgi Xorazm davlatiga tegishli tangalar, shuningdek, bitiklar topilgan bo'lib, bu shahar qadimiy savdo markazi bo'lganligini tasdiqlaydi. Tadqiqotlar davomida Gurlanda qadimiy zardushtiylikka oid dafn marosimlari, qabristonlar va islom davriga oid maqbaralar topilgan. Gurlan yaqinida bir nechta qadimiy qal'a va qo'rg'onlar o'rganilganligidan ko'rish mumkinki, shaharning devor qoldiqlari va minoralari qadimgi mudofaa tizimining murakkabligini ko'rsatadi[1].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, Xorazmning Gurlan shahri Markaziy Osiyoning qadimiy madaniy va tarixiy markazlaridan biri bo'lib, uzoq asrlik boy tarixga ega. Arxeologik tadqiqotlar natijasida bu hududda qadim zamonlardan beri rivojlangan shaharsozlik, savdo-sotiq va madaniy hayot mavjud bo'lganligi aniqlangan. Qazishmalar davomida topilgan mudofaa devorlari, turar-joylar, sug'orish tizimlari va madaniy-maishiy buyumlar Gurlanning tarixiy rivojlanishini o'rganishda muhim ilmiy manba bo'lib xizmat qiladi. Shahar tarixi asosan miloddan avvalgi davrlardan to o'rta asrlargacha bo'lgan davrlarni o'z ichiga olib, Xorazm davlatining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyotida katta rol o'ynagan. Bugungi kunda Gurlan hududida olib borilayotgan ilmiy izlanishlar uning tarixini yanada chuqurroq o'rganishga va milliy madaniy merosni saqlashga yordam beradi. Shu sababli, Gurlan shahri mintaqaning bebaho tarixiy obidalari qatorida alohida e'tiborga loyiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

- 1.Ahmedov M. O'rta Osiyo me'morchiligi tarixi. Toshkent. 1995. 69-81-b.
- 2.Davletov S., Abdullayev M. O'zbekistonning me'moriy yodgorliklari tarixi. Toshkent. 2022. 98-109-b.
3. To'pchiyev U. O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari. (uslubiy qo'llanma). Jizzax. 2024. 107-113-b.
- 4.Umid Bekmuhammad. Xorazm va xorazmliklar. Buxoro. 2023. 23-27-b.
- 5.O'rta Osiyo me'moriy yodgorliklari-Vatanimiz tarixini o'rganishning moddiy manbalari(majmua). Samarqand. 2011. 131-138-b.
6. www.wikipedia.uz internet sayti

DEVIANT XULQLI O'SMIRLARDA KASB TANLASH MOTIVATSIYANING NAMOYON BO'LISHINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

Marjona Tolibova Tolibovna

Buxoro davlat universiteti Psixologiya yo'nalishi

1-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Mazkur maqolada deviant xulqli o'smirlarda kasb tanlash jarayonida motivatsiyaning shakllanishi va uning namoyon bo'lishining psixologik xususiyatlari tahlil qilinadi. O'smirlar davridagi shaxs rivojlanishining psixologik asoslari, ijtimoiy va shaxsiy omillar, shuningdek, deviant xulqning motivatsion strukturasiga ta'sir etuvchi faktorlar nazariy va amaliy jihatdan ko'rib chiqiladi.

Ishda deviant xulqli o'smirlarni kasb tanlashga jalb etishda qo'llaniladigan psixodiagnostik va psixokorreksion metodlar bayon qilinadi. Xususan, motivatsiyaning shakllanishi uchun ijtimoiy-madaniy muhit, oila, ta'lim va psixologik maslahatlarning ahamiyati muhokama qilinadi. Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundaki, unda o'smirlarni mehnat faoliyatiga yo'naltirish orqali ularda ijobiy motivatsiyani rivojlantirish usullari haqida tavsiyalar beriladi.

Kalit so'zlar: *deviant xulq, motivatsiya, o'smirlik davri, kasb tanlash, psixokorreksiya, ijtimoiy omillar, psixologik maslahat, motivatsion struktura.*

KIRISH

Hozirgi globallashuv davrida yoshlar tarbiyasi va ularning kasb tanlash jarayoni jamiyatning dolzarb muammolaridan biriga aylangan. Ayniqsa, deviant xulqli o'smirlarning kasb tanlash motivatsiyasi va bu jarayonning psixologik xususiyatlarini o'rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Deviant xulq, ya'ni me'yorlardan chetga chiqadigan xatti-harakatlar, yoshlar orasida qator psixologik, ijtimoiy va iqtisodiy sabablar bilan bog'liq bo'lib, ularning kelajakdagi kasbga bo'lgan munosabatlari va motivatsion yo'nalishini belgilashda o'z ta'sirini ko'rsatadi.

- **Shaxsiy omillar:** O'smirlarning qiziqishlari, maqsadlari, hayotiy qadriyatlari va psixologik holati.

- **Motivatsion omillar:** Ularning mehnat faoliyatiga qiziqishi va kasbga bo'lgan intilishlarini aniqlash.

ASOSIY QISM

Mazkur tadqiqotning nazariy asoslari motivatsiya nazariyalari va deviant xulqni o'rganish tamoyillariga asoslanadi. Xususan, Maslou, Xekhausen, Deci va Rayan kabi olimlarning motivatsion nazariyalari, shuningdek, deviant xulqning psixologik ildizlarini o'rganishga oid nazariy qarashlar tadqiqotning metodologik bazasini tashkil etadi. Bu nazariyalar asosida deviant xulqli o'smirlarning kasb tanlashga bo'lgan motivatsiyasi hamda ular uchun ijobiy mehnat faoliyatiga yo'naltirilgan tavsiyalar ishlab chiqiladi.

Amaliy jihatdan, deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda psixologik diagnostika va psixokorreksiya metodlari muhim rol o'ynaydi. Tadqiqot davomida quyidagi metodlar qo'llanilishi mumkin:

1. **Psixodiagnostik usullar:** O'smirlarning individual psixologik xususiyatlarini aniqlash uchun so'rovnomalar, testlar va intervyu usullari qo'llaniladi. Bu usullar ularning qiziqishlari, qobiliyatlari va motivatsion ehtiyojlarini aniqlashga yordam beradi.

2. **Psixokorreksiya metodlari:** Motivatsiyani rivojlantirish va deviant xulqni to'g'rilash uchun maxsus treninglar, psixoterapiya usullari va guruh mashg'ulotlari o'tkaziladi.

3. **Kasbiy yo'naltirish bo'yicha dasturlar:** O'smirlarni turli kasblar bilan tanishtirish, ularning mehnatga qiziqishini oshirish va ijtimoiy moslashuvini yaxshilash uchun seminar va master-klasslar tashkil etiladi.

Nazariy va amaliy qarashlarni birlashtirish orqali deviant xulqli o'smirlarning kasb tanlash motivatsiyasini shakllantirish jarayonida quyidagi masalalarga alohida e'tibor qaratiladi:

- **Ijtimoiy omillar:** Oila muhiti, maktabdagi tarbiya, tengdoshlari bilan munosabatlar va jamiyatning ta'siri.

- **Shaxsiy omillar:** O'smirlarning qiziqishlari, maqsadlari, hayotiy qadriyatlari va psixologik holati.

- **Motivatsion omillar:** Ularning mehnat faoliyatiga qiziqishi va kasbga bo'lgan intilishlarini aniqlash.

Ushbu tadqiqot natijalari deviant xulqli o'smirlarning ijtimoiy hayotga muvaffaqiyatli integratsiyasini ta'minlash va ularni mehnat bozorida raqobatbardosh shaxs sifatida shakllantirishga qaratilgan strategiyalarni ishlab chiqishda muhim ahamiyatga ega.

Deviant xulqli o'smirlarda kasb tanlash motivatsiyasining psixologik xususiyatlari turli nazariy va amaliy jihatlar orqali tushuntiriladi. Nazariy jihatdan, bunday o'smirlar o'zlarining ichki ehtiyojlari va qadriyatlari asosida motivatsiya hosil qiladilar. Masalan, Maslowning ehtiyojlar nazariyasiga ko'ra, o'smirlar avval

xavfsizlik va ijtimoiy mansublik ehtiyojlarini qondirishi kerak, shundan so‘ng ular o‘zlarining kasbga oid qarorlarini shakllantiradilar.

Adlarning kompensatsiya nazariyasiga binoan, deviant xulqli o‘smirlar jamiyatdan e‘tibor yoki hurmat topmagan hollarda o‘zlarini mustaqil yoki radikal yo‘llar orqali ko‘rsatishga intiladilar. Bu ularning kasb tanlash motivatsiyasiga ham ta’sir qilishi mumkin. Masalan, ular o‘z qiziqishlarini aks ettiruvchi yoki ularni jamiyatdan farqlashga imkon beruvchi kasblarga moyillik bildiradilar.

Amaliy jihatdan, deviant xulqli o‘smirlar bilan ishlashda individual yondashuv zarur. Bu jarayonda ularga kasb tanlashda yordam berish uchun qiziqishlarini tahlil qilish va ularga mos keladigan kasblarni tavsiya etish muhim. Psixologik maslahat berish orqali ularning ichki ehtiyojlari va maqsadlarini aniqlash, hamda ijtimoiy moslashuvini yaxshilash mumkin. O‘smirlarning ijtimoiy tajribalarini kengaytirish va ularga ijobiy motivatsion imkoniyatlarni ko‘rsatish kasb tanlash jarayonida muhim o‘rin tutadi.

Masalan, kasbiy yo‘naltirish mashg‘ulotlari orqali deviant xulqli o‘smirlarning kuchli tomonlarini aniqlab, ularni jamiyatga mos va manfaatli faoliyatga yo‘naltirishga yordam beriladi. Shu bilan birga, ularga mehnat bozoridagi talablar va imkoniyatlar haqida aniq ma’lumot berish orqali ularning qarorlarini ongli ravishda qabul qilishiga ko‘maklashish kerak.

Quyidagi jadvalda "**Deviant xulqli o‘smirlar**" bilan bog‘liq kasb tanlash motivatsiyasi masalalari bo‘yicha **nazariy va amaliy fikrlar** asosida misollar keltiriladi:

Nazariy Misollar

Nazariy Aspekt	Misol	Ilmiy Yondashuv
Motivatsiyaning roli	O‘smir o‘zining ijodiy qobiliyatlarini namoyon qilish uchun dizaynerlik yoki IT sohasini tanlaydi, chunki unda o‘zini erkin ifoda qilish ehtiyoji mavjud.	Maslowning ehtiyojlar nazariyasi
Deviant xulq va kasb tanlash	O‘smir o‘zining radikal fikrlarini qo‘llab-quvvatlovchi ijtimoiy ta’sirga ega bo‘lish uchun jurnalistika yoki blogerlikka qiziqish bildiradi.	Adlarning kompensatsiya nazariyasi
Qiziqish va ichki qarama-qarshilik	Deviant xulqli o‘smir o‘yinlarga qiziqishi sababli g‘ayrioddiy kasblar (masalan, professional geymer yoki o‘yin dizayneri)ni tanlashni xohlaydi.	Vygotskiyning ijtimoiy-madaniy nazariyasi

Amaliy Misollar

Amaliy Aspekt	Misol	Yondashuv
Individual yondashuv zarurati	Psixolog deviant xulqli o'smir bilan suhbatda uning musiqaga qiziqishini aniqlaydi va unga ovoz yozish studiyasi bilan tanishtiradi.	Individual psixologik maslahat
Qiziqishlarni aniqlash va qo'llash	Deviant xulqli o'smir boshqalarga yordam berishni xohlaydi va psixolog unga ijtimoiy ish yoki terapevt bo'lishga yo'naltiruvchi mashg'ulotlar taklif qiladi.	Kasbiy yo'naltirish mashg'ulotlari
Mehnat bozori ma'lumotlari	Psixolog o'smirlarga texnik xizmat ko'rsatish sohasida (masalan, avtomobil ta'mirlash yoki IT texnologiyalar) yuqori talab borligini tushuntiradi.	Mehnat bozori haqida tushuntirish

Bu jadvallar deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda nazariy va amaliy jihatlarini chuqurroq anglash hamda ularning kasb tanlash motivatsiyasini rivojlantirish uchun qo'llaniladi.

XULOSA

Deviant xulqli o'smirlarda kasb tanlash motivatsiyasi ularning shaxsiy ehtiyojlari, qiziqishlari, ichki qarama-qarshiliklari va ijtimoiy muhit bilan bo'lgan munosabatlari bilan bevosita bog'liq. Bunday o'smirlar ko'pincha o'zlarini namoyon qilish, hurmat va e'tibor qozonish yoki rad etilganligini kompensatsiya qilish maqsadida noodatiy va o'ziga xos kasblarga qiziqadilar. Shuning uchun ularga kasb tanlashda individual yondashuv va maxsus psixologik qo'llab-quvvatlash zarur.

Amaliy yondashuvlar, jumladan, qiziqishlarni aniqlash, ularga mos keluvchi kasblarni tavsiya qilish va mehnat bozoridagi real imkoniyatlar haqida ma'lumot berish orqali deviant xulqli o'smirlarning ijtimoiy moslashuvi va ijobiy motivatsiyasi shakllantiriladi.

Nazariy jihatdan, Maslow, Adler va Vygotskiy kabi psixologlarning qarashlari bu jarayonda asos bo'lib xizmat qiladi. Bu nazariyalar deviant xulqning sabablarini, o'smirlarning ehtiyojlari va maqsadlarini chuqur tahlil qilishga imkon beradi.

Shunday qilib, deviant xulqli o'smirlar bilan ishlashda ularning kuchli tomonlarini qo'llab-quvvatlash va jamiyatga moslashuvini osonlashtirish orqali ularning kelajakdagi muvaffaqiyatli kasb tanlashlariga yordam berish mumkin. Bu jarayonda psixologlar, o'qituvchilar va ota-onalarning hamkorligi muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. **Mamedov, R. (2005).** *Kasbiy yo 'naltirish psixologiyasi*. Toshkent: O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti. Kasb tanlashda psixologik jarayonlar va o'smirlar bilan ishlash usullari.
2. **Qurbonova, S. (2019).** *O'smirlar psixologiyasi: nazariya va amaliyot*. Toshkent: Yangi asr avlodi. O'smirlarning xulq-atvori va psixologik xususiyatlari.
3. **Abdurahmonov, I. (2016).** *O'smirlarning ijtimoiy moslashuvi va kasbiy rivojlanishida psixologik yondashuvlar*. Toshkent: Fan.
4. **Adler, A. (1927).** *Understanding Human Nature*. Kompensatsiya nazariyasi va deviant xulqni tushuntirish.
5. **Vygotsky, L. S. (1978).** *Mind in Society: The Development of Higher Psychological Processes*. Ijtimoiy-madaniy rivojlanish va ta'limdagi rol.

ILM-FAN RIVOJLANISHINING TEMURIYLAR DAVLATCHILIK TARAQQIYOTIDAGI AHAMIYATI

Renessans ta'lim universiteti

"Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrası dotsenti, PhD

Jurakulov Jamol Komilovich

Toshkent shahar, tel: +99897 007 63 14.

E-mail: jurakulovjamol904@gmail.com

Renessans ta'lim universiteti

"Ijtimoiy-siyosiy fanlar" kafedrası dotsenti, PhD

Soxibova Lola Joniboyevna

Toshkent shahar, tel: +99888 307 17 57

E-mail: soxibovalola84@gmail.com

Annotasiya: Temuriylar davlati ilm-fan rivojlanishiga katta e'tibor bergan davlat bo'lib, bu rivojlanish davlatning taraqqiyotiga bevosita ta'sir ko'rsatgan. Quyida ilm-fan rivojlanishining Temuriylar davlatchiligi taraqqiyotidagi ahamiyati haqida fikr muloxaza yuritamiz.

Kalit so'zlar: temuriylar davlatchiligi, xalqparvarlik, adolat, ilim-fan, haqiqat, odillik.

Abstract: The Timurid state was a state that paid great attention to the development of science, and this development directly influenced the development of the state. Below we will consider the importance of the development of science in the development of the Timurid statehood.

Keywords: Timurid statehood, patriotism, justice, science, truth, fairness.

Аннотация: Государство Тимуридов было государством, уделявшим большое внимание развитию науки, и это развитие оказало непосредственное влияние на развитие государства. Ниже мы рассмотрим значение развития науки в развитии Тимуридской государственности.

Ключевые слова: Тимуридская государственность, патриотизм, справедливость, наука, истина, справедливость.

Boshqacha aytganda, tarixnavislikning rivojlanib borishi va ularda jamiyat hayotining turli yo'nalishlari bo'yicha ma'lumotlarda o'z aksini topishi, o'zbek davlatchiligi boy taraqqiyot yo'liga ega bo'lib kelganini ko'rsatadi. Bundan tashqari dunyoga mashhur Kvint Kurtsiy Ruf, Gerodot kabi tarixchilar bilan birga o'rta asrlar tarixshunosligida sulolaviy tarixlarga bag'ishlangan asarlar ham buni tasdiqlaydi. Ammo davlatchilikni bosh manbai barcha davrlarda xalq hisoblangan. O'zbekiston

hududida tashkil topgan ilk davlatlar boshqa qabila va etnoslar birligi asosida vujudga keladi. Keyinchalik esa bu davlatlar siyosiy va iqtisodiy jihatdan zaifligi tufayli ular o'rnida siyosiy jihatdan ustunlikka ega bo'lgan markazlashgan davlatlar tashkil topa boshlaydi. Bu markazlashgan davlatlar siyosiy-iqtisodiy jihatdan kuchli bo'lganligi tufayligina uzoq muddat davomida boshqaruv va strategiyani saqlab tura olgan. Anashunday markazlashgan boshqaruvdagi davlatning yirik tuzulmasini Temuriylar bina bog'lashimiz mumkin.

Temuriylar davlatchiligi XIV-XV-asrlar Markaziy Osiyo tarixida muhim rol o'ynagan bir davr xisoblashadi dunyoning tarixchi olimlari. XIV-XV-asrlar bir qator siyosiy-ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o'zgarishlar ro'y berganligini biz ko'plab tarix manbalaridan bilamiz. Temuriylar saltanati quyidagi jihatlari bilan Markaziy Osiyo xalqlarining rivojlanishini yangi bosqichga olib chiqib qolmasdan dunyo tamadduni ilim-fanga katta ta'sirni ko'rsatdi. Bularni quydagicha izohlashimiz:

1. Siyosiy birlashuv jarayonida temuriylar davlatining tashkil topishi Markaziy Osiyo xalqlarining birlashishiga olib keldi. Bu esa mintaqada barqarorlikni ta'minladi hamda savdo-sotiqni rivojlantirdi. Siyosiy birlikning tashkil qilinishida Amir Temur tomonidan tashkil etilgan davlat, turli qabilalar va xalqlarni birlashtirib, kuchli markaziy hokimiyatga ega bo'ldi. Bu siyosiy birlik mintaqada barqarorlikni ta'minladi.

2. Savdo va iqtisodiyot sohada temuriylar davrida Ipak yo'li bo'yida joylashgan shaharlarda savdo faoliyati keskin oshdi. Samarqand, Buxoro, Xiva kabi shaharlar savdo markazlariga aylandi, bu esa mamlakatdagi axolining va davlatning iqtisodiy salohiyatini o'sishga olib keldi. Iqtisodiy rivojlanish jarayonining Temuriylar davrida savdo yo'llarining rivojlanishi, ayniqsa Ipak yo'li orqali, iqtisodiy o'sishga olib keldi, bu esa Samarqand, Buxoro va Xiva kabi shaharlarni savdo markazlariga aylantirdi, bu esa hunarmandchilik va savdoni rivojlantirdi.

3. Madaniyat va san'at sohasida esa temuriylar davrida madaniyat va san'at rivojlanishi yangi bir bosqichga ko'tarildi. Arxitektura, adabiyot, musiqasi va boshqa san'at turlari gullab-yashnadi. Amir Temur va uning avlodlari ko'plab me'moriy obidalarni yaratdilar, masalan, Registon maydoni, Shahi-Zinda kabi tarixiy obidalar shular jumlasidandir.

4. Ilm-fanning rivojlanishi. Bu davrda ilm-fan ham ko'plab sohalar kabi rivojlandi. Jumladan astronomiya, matematika va tibbiyot sohalarida muhim yutuqlarga erishdi. Ulug'bek tomonidan bino qilingan astronomik observatoriyasi bunga misol bo'la oladi. Temuriylar davlatida diniy bag'rikenglik siyosatini yuritdilar, bu esa turli etnik va diniy guruhlarining birga yashashiga imkon berdi.

Axolining ijtimoiy tuzilmasida ham temuriylar davrida o'zgarishlar yuz berdi. Askarlar, hunarmandlar va dehqonlar o'rtasidagi munosabatlar rivojlandi, bu esa

ijtimoiy barqarorlikni ta'minladi. Umuman olganda, Temuriylar davlatchiligi Markaziy Osiyo xalqlarining tarixida muhim bir bosqich bo'lib, ularning madaniy, iqtisodiy va siyosiy rivojlanishiga katta ta'sir ko'rsatgani barcha tarixshunoslar etirof etishadi.

Temuriylar davlatchiligining taraqqiyoti bir qator omillar bilan bog'liq bo'lib, quyidagilarni o'z ichiga oladi:

1. Harbiy kuch Temuriylar kuchli harbiy kuchga ega edilar, bu esa ularning hududlarini kengaytirishiga va raqiblarini mag'lub etishiga imkon berdi. Harbiy muvaffaqiyatlar davlatning mustahkamlanishiga olib keldi.

2. Temuriylar merosi nafaqat Markaziy Osiyo, balki butun musulmon dunyosida muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Ularning madaniyati va ilm-fan yutuqlari keyingi avlodlarga ta'sir ko'rsatdi. Umuman olganda, Temuriylar davlatchiligi o'zining siyosiy, iqtisodiy va madaniy taraqqiyoti bilan Markaziy Osiyo tarixida muhim rolni bajarib qolmasdan dunyo xaritasida ulkan davlat tuzildi.

Temuriylar davlatchiligi taraqqiyotida ilm-fan jabhasida Markaziy Osiyo xalqlarining rivojlanishidagi muhim omillar sifatida quyidagilarni keltirish mumkin. Savdo yo'llari, ipak yo'li va boshqa savdo yo'llarining o'zaro bog'lanishi mintaqada iqtisodiy faoliyatni kuchaytirdi. Savdo, madaniyat va ilm-fan almashinuvi uchun keng imkoniyatlar yaratdi. Turli xalqlar va qabilalar o'rtasida siyosiy birlashmalar, masalan, Temuriylar davrida, barqarorlik va rivojlanishga yordam berdi. Kuchli markaziy hokimiyat davlatni mustahkamladi. Madaniy almashinuv natijasida Markaziy Osiyo turli madaniyatlarning kesishgan joyi bo'lib, bu erda turli xalqlar o'rtasida madaniy almashinuv rivojlandi. Bu adabiyot, san'at va ilm-fanda yangi g'oyalar paydo bo'lishiga olib keldi. Qishloq xo'jaligi va sug'orish tizimlarining rivoji aholi turmush darajasini oshirdi. Qishloq xo'jalik mahsulotlari savdosi iqtisodiy o'sishni ta'minladi. Ta'lim va ilm-fan ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqotlar rivojlanishi, masalan, Ulug'bekning ilmiy astronomik observatoriyasi, mintaqada ilm-fan va madaniyatning yuksalishiga ulkan hissa qo'shdi.

Mintaqaning tabiiy resurslari, jumladan, yer va suv manbalari, iqtisodiy rivojlanish uchun muhim ahamiyatga ega edi. Bu omillar Temuriylar davlatchiligida va Markaziy Osiyo xalqlarining tarixiy rivojlanishida muhim rol o'ynadi va ularning madaniyati, iqtisodiyoti va ijtimoiy hayotiga sezilarli ta'sir ko'rsatdi. Temuriylar davlatchiligi O'rta Osiyo tarixida katta iz qoldirdi. Ularning madaniyati, san'ati va ilm-fan yutuqlari keyingi avlodlarga o'tdi va bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotmagan. Temuriylar davlatchiligi O'rta Osiyo tarixida muhim sahifani tashkil etadi va uning merosi hozirgi kunda ham o'rganilmoqda.

Temuriylar davlati ta'lim va ilm-fan sohasida o'ziga xos yutuqlar va rivojlanishlarga ega bo'lgan davrdir. Bu davrda ilm-fan, madaniyat va ta'lim tizimi bir necha muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

1. Ta'lim tizimidagi madrasalar: Temuriylar davrida ko'plab madrasa va ta'lim muassasalari qurildi. Samarqand, Buxoro va boshqa shaharlar ilm-fan markazlariga aylandi. Ulug'bek madrasasi bu davrning eng mashhur ta'lim muassasalaridan biri bo'lib, u yerda ko'plab olimlar va talabalarning faoliyati amalga oshirildi.

2. Ilm-fan rivoji deganda bizni ko'z o'ngimizga Astronomiya keladi albatta, Ulug'bek astronomiyasi bilan mashhur bo'lib, u o'z asarida yulduzlarning joylashuvi va harakatini aniq o'lchashga erishdi. Uning "Zij-i Ulugh Beg" asari o'z zamonida eng muhim astronomik asarlardan biri hisoblanadi. Matematika sohasida ham Temuriylar davrida rivojlandi. Matematiklar algebra va geometriya sohalarida muhim ishlar olib bordilar. Tibbiyot sohasida ham yutuqlar bo'ldi. Temuriylar davrida tibbiyot fanlari rivojlanib, ko'plab tibbiy asarlar yozildi. Adabiyot va San'at ham Temuriylar davrida ayniqsa adabiyot yuksak darjada rivojlandi.

Yaxshi o'qitishda birlamchi masala sifatida talabalarining dasturlashni o'rganishdagi muamolariga ahamiyat berish lozim. Dann, Cooper va Pauschlar ana shunday muamolarni to'rtga bo'lishgan: (I) dasturlarni yaratishning nozik mexanikasi, xususan sintaksisi; (II) hisoblash natijasini dastur ishlayotgan vaqtda

ko'ra olmaslik; (III) dasturlash uchun motivatsiyaning yo'qligi; va (IV) murakkab mantiq va dizayn texnikasini o'rganish qiyinligi.

1. Dasturlarni yaratish mexanikasi va sintaksisi dasturlash tillarining turiga qarab bir-biridan farq qiladi va boshlovchilar uchun murakkabliklar tug'diradi. Bunday murakkabliklar asosan indentifikatorlar va ularning vazifalarini o'rganishdagi noaniqliklar, operatorlarni o'z vaqtida qo'llash ko'nikmasining kechroq shaklanishi va belgili sintaksislardan noto'g'ri foydalanishda ko'rishimiz mumkin.

2. Hisoblash natijasini dastur ishlayotgan vaqtda ko'ra olamslik yani dasturlash tili kompilyatori o'zida amalga oshayotgan jarayoni ko'rsatmasligi boshlang'ich o'rganuvchilarda dastur ishlash jarayonini noaniq tahlil qilishga olib keladi. Bu o'rganish jarayonini murakblashtirishi tabiiy.

3. Kuchli motivatsiya bu dasturlash tillarini o'rganishdagi eng muhim xususiyatdir. Yani talaba o'rganish jarayonida har qanday qiyinchilikga bardosh berishi, toqat qilishi va o'rganishda davom etishi uchun aniq sabab va omil bo'lishi muhim. "Tuyg'ular va hislar dasturlashni o'rganishda muhim rol o'ynaydi, chunki o'quv uchun optimistik xususiyatlarni namoyish etgan talabalar kam optimistik nuqtai nazarga ega bo'lgan o'quvchilarga qaraganda yaxshiroq ishlashi aniqlandi va bundan tashqari ijobiy voqealar o'zlariga tegishli deb o'ylagan talabalar. (ichki omillar) va o'zgarmas (masalan, qobiliyat) pessimistik atributlarga ega bo'lgan o'quvchilarga qaraganda yaxshi ko'rsatkichlarga ega"

4. Dasturlash tilining ishlash jarayoni murakkab mantiqiy bog'liqliklarga asoslangan. Dastlabki mavzulardan dastur ishlash mexanizimini to'laqoni tushinish qiyin. Shu sababli dastlabki bosqichning o'zidayoq ko'plab talabalar dasturlash tillarida muvafaqiysizlikka uchraydi.

Talabalarning eng katta muammosi asosiy atamalarni tushunish emas, balki ularni to'g'ri qo'llashni o'rganish hisoblanadi. Muammolarni aniqlashtirish orqali o'qitish uslubini to'g'ri tanlash, uni o'zgartirish yoki yangi uslub yaratish imkoniyati beradi. Kompyuter yaratilganiga 70 yil bo'lgan bo'lsada hali ham dunyoda yaktil qabul qilingan dasturlash tillarini o'rgatuvchi uslub yo'q deydi Michaelson (2015). Haqiqatdan shunday bugungi kunda dasturlash tillari juda ko'p va ularni umumiy o'rganishning hech qanday ilojisi yo'q. Har bir til bir-biridan farq qilishi esa o'rganuvchilarni chigal holatga tushirib qo'yishi mumkin.

Talabalarning ma'lum bir dasturlash tilini o'rganishlari uchun avvalo hohish istak kerak. Bu suniy yoki tabiiy holatlarda nomoyon bo'lishi mumkin. Tabiiy holat bu talabaning dasturlashni o'rganishga bo'lgan kuchli ehtiyoji orqali hosil bo'ladi. Bu ehtiyoj o'rganish davrigacha shaklangan bo'lishi lozim. Su'niy holat esa bevosita ta'lim jarayoni boshlangandan keyingina o'qtuvchi tomonidan amalga oshirilgan ta'sir natijasida hosil bo'ladi. Istaklardan maqsadlar shakllanadi.

Maqsadning aniqligi bevosita davomli o'rganishga va natijagacha kuchli harakatga rag'bat uyg'otadi. Oldiga qo'yilayotgan maqsad kichikroq va aniq bo'lishi lozim. Yani unga erishish va o'zidagi natijani his qilishida bu juda ahamiyatli hisoblanadi. "Men dasturlashni o'rganishni xohlayman" (juda noaniq) yoki "Men Pythonni o'rganmoqchiman" (yaxshiroq, lekin hali ham noaniq). Bundan tashqari, siz "Men Telegramni yoqtirmasligim sababli yaxshi ijtimoiy tarmoq yaratmoqchiman" (haddan tashqari shuhratparastlik) kabi normal bo'lmagan maqsadlardan qochishingiz kerak. Yaxshi tanlangan, kuchli va uzoq muddatli maqsadni yodda tutish, g'ayratli bo'lishga va o'qishni davom ettirishga yordam beradi. Shundagina nimaga erishmoqchi ekanligingiz, nimaga e'tibor berishingiz va yaxshilashingiz kerakligini bilasiz. Bu mustaqil dasturlashni o'rganagan dasturchilarning ko'plab qaydlarida tasdiqlangan.

TAHLIL VA NATIJALAR

XX asrning 60-yillaridan boshlab to hozirgi kungacha dasturlashni o'qitish uchun bir qancha usullar ishlab chiqilgan. Ulardan bir nechta allaqachon eskirgan, ammo aksariyati qisimi ta'limda bugungi kunda ham muvafaqiyatli foydalanilmoqda. Dasturlashni o'qitishning keng tarqalgan usullariga quydagilarni kiritishimiz mumkin:

- **Algoritimga asoslangan uslubiy yondashuv;**
- **Ma'lumotlarga yo'naltirilgan yondashuv;**
- **Aniqlashtirishga yo'naltirilgan yondashuv;**
- **Muammoga yo'naltirilgan yondashuv;**
- **Tilga yo'naltirilgan yondashuv;**
- **Yo'riqnomali yondashuv;**
- **Matematikaga yo'naltirilgan yondashuv;**
- **Apparatga yo'naltirilgan yondashuv;**
- **Modelga yo'naltirilgan yondashuv;**
- **Online ta'lim asosidagi yondashuv.**

Shuni ta'kidlash o'rinliki, ko'pchilik o'qituvchilar bir vaqtning o'zida bir nechta usullardan foydalanishni afzal ko'rishadi. Chunki vaqt taqchiligining oldini olish va katta hajmdagi bilimni tezkor berishda bu nisbatan foydali. Ammo bu jarayonada talabalarga katta yuklama tushadi. Va tabiiyki ko'pchilik o'rganuvchilar bunga bardosh bera olishmaydi.

Algoritimga asoslangan uslubiy yondashuv eng keng tarqalgan o'qitish uslubi sanaladi. Undan har qanday dasturlash tilini o'qitishda foydalanish imkoni mavjud. Ma'lumotlarga yo'naltirilgan yondashuv ham yoqiridagi usulga o'xshash o'xshash bo'lib urg'u asosan algoritm tuzilmalari bilan turini aniqlash va umumiy ma'no

berishga qaratilgan. Aniqlashtirishga yo'naltirilgan yondashuv speking deb ham yuritiladi. O'qitishda asosiy e'tibor algoritmlarni bo'laklarga bo'lib tushunarli, aniq ko'rinishga keltirish orqali o'qitishga qaratiladi. Bu yerda diferentsiya va integratsiya jarayonlari boshlang'ich o'rganuvchilarda ayrim muamolarni keltirib chiqarishi mumkin. Muammoga yo'naltirilgan yondashuvda asosiy e'tibor mohiyatga qaratiladi. Yani muammolar algoritmlarning umumiy mohiyati orqali muamolarni hal qilishdagi ahamiyati o'rganiladi. Bu usulda nazariya juda yaxshi shakllanadi. Tilga yo'naltirilgan va yo'riqnomali yondashuvlar bir-biriga juda yaqin bo'lgan o'qitish usullari hisoblanadi. Tilga yo'naltirib o'qitish faqatgina bitta dasturlash tili uchun o'rinli bo'lsa yo'riqnomali aniq bir ko'rsatmalar orqali qolipli o'qitishni nazarda tutadi. Matematik yo'naltirilgan yondashuv algoritmlarni matematik nuqtai nazardan tahlil qilishi orqali dasturlash tilini o'qitishni tavsiya etadi. Bu usul aniq fanlar ixtisosligidagi talabalar uchun samarali hisoblanadi. Apparatga yo'naltirilgan yondashuv keng ko'lamli dasturlashni o'qitish uslubi hisoblanib ko'proq AKT sohasida ta'lim olayotgan talabalarga qo'llash o'rinli bo'ladi. Dasturlash tillari bilan kaompyuterning ichki mehanizmlarining o'zaro aloqadorligi orqali ta'lim berish aynan shu usulga xos. Modelga asoslanib o'qitish ham nisbatan samarali usullar sarasiga kiradi. Bu usluda tayyor yaratilgan dasturlar orqali ta'lim beriladi. Natija va kod qiyosiy taqoslashlar orqali o'rganiladi. Unda ko'pchilik hollarda yangi kod yaratilmaydi. Balki tayyor yozilgan dastur kodlari o'zgartirish orqali amaliy vazifalar beriladi. Online ta'lim o'qitish sifatini uyg'unlashtiruvchi ta'lim usuli bo'lib o'zida elektron ta'limning deyarli barcha unsurlarini (video, animatsiya, kodli dastur, grafik natija va diagrammalar va hokozo) qamrab olgan zamonaviy o'qitish jarayoni hisoblanadi. Unda bir emas balki bir nechta dasturlash tillarini o'qitishning yondashuvlaridan foydalanilmoqda. Moddiy jihatdan eng kam chiqim ta'lim jarayoni va o'qitish usuli deya e'tirof etishimiz mumkin. XXI asrda bu ta'lim jarayoni va unga bog'liq bo'lgan bir qancha o'qitish usullari paydo bo'ldi va bugungi kunda jadalik bilan rivojlanmoqda. Online ta'lim platforma ko'rinishida bir va ko'p tarmoqli fanlar kesimida yaratilayotgan bo'lib ulardan eng keng tarqlaganlari Khanacademy.org, Udemy.com, Sololearn.com, Intuit.ru, Saylor.org, online.learning.harvar.edu va boshqalar. O'zbekistonda ham online va masofaviy ta'lim tizimlariga alohida e'tibor berilmoqda. Misol sifatida 2019- yilning kuzida yaratilgan "Bir million dasturchi" loyihasi keltirishimiz mumkin. E'tiborlisi online ta'lim kursi mutlaqo bepul va xalqaro tan olinadigan sertifikatlar bilan ta'minlangan.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, talabaning maqsadi va dasturlash tili turining tanlovi ta'lim jarayonida muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Shu bilan birga jarayonga mos bo'lgan o'qitish uslublaridan biri orqali ta'lim berish samarali natijalarga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. <https://www.computerhope.com/issues/ch001621.htm>
2. Vivian, R., Falkner, K., & Szabo, C. (2014). Can everybody learn to code? Computer science community perceptions about learning the fundamentals of programming. Proceedings of the 14th Koli Calling International Conference on Computing Education Research (pp. 41-50). Koli: ACM.
3. Sebastien Phlix "How can self-learners learn programming in the most efficient way? A pragmatic approach" www.Grin.com 2016-yil.
4. Szlávi Péter – Zsakó László "Methods of teaching programming" <https://www.researchgate.net/publication/235925815> Eötvös Loránd University of Budapest
5. Sardor Pulatovich Kutliyev, Oysuluv Matyaqubiva. Masofaviy ta'limda hamkorlikda o'qitish texnologisini qo'llash. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2021. 2021/5/26, 303-306
6. Sardor Pulatovich Kutliyev. Smart ta'lim texnologiyalarini hozirgi ta'lim jarayonlaridagi o'rni. International scientific conference "INFORMATION TECHNOLOGIES, NETWORKS AND TELECOMMUNICATIONS" ITN&T-2022. 2022/4/30, 641-644
7. S Kutliyev, GR Dalerovich, TA'LIM JARAYONIDA HAYOTIY MISOLLARDAN FOYDALANISHNING DOLZARBLIGI KEYS-STADI TA'LIM METODI, Journal of new century innovations 27 (1), 113-115
8. S.K Pulatovich, PB Yusupovich, GR Dalerovich. O'RTA MAK'TABLARDA INFORMATIKA FANINI O'QITISHDA MOBIL ILOVALARDAN SAMARALI FOYDALANISH USULLARI. Journal of new century innovations 28 (1), 178-180
9. Grover, S., & Pea, R. (2018). Computational Thinking: A competency whose time has come. Computer Science Education, 28(2), 170-174.
10. Resnick, M., & Rosenbaum, E. (2019). Designing for Tinkerability. The Journal of the Learning Sciences, 28(1), 1-35.
11. Robins, A., Rountree, J., & Rountree, N. (2020). Learning and Teaching Programming: A Review and Discussion. Computer Science Education, 30(1), 1-18.
12. Абрамов, А. А., & Кузнецова, Н. В. (2020). Современные подходы к обучению программированию в высшей школе. Вестник компьютерных и информационных технологий, 10(12), 25-29.
13. Смирнов, В. А., & Петрова, О. С. (2021). Методические основы обучения программированию с использованием проектного подхода. Образование и наука, 23(2), 120-135.
14. Иванов, П. Л. (2022). Особенности дистанционного обучения программированию и информационным технологиям. Информационные технологии и образование, 1, 65-72.
15. To'xtamurodov, D. (2021). Dasturlash asoslari va zamonaviy o'qitish uslublari. O'zbekiston Milliy universiteti nashriyoti.
16. Bekturodov, S., & Ismoilov, M. (2023). Ta'limda dasturlashga motivatsiyani oshirish usullari. Pedagogika va psixologiya jurnali, 5(1), 45-53.
17. Toshpo'latova, N. (2022). Onlayn ta'limning afzalliklari va kamchiliklari: Dasturlashni o'qitish tajribalari. O'zbekiston pedagogika jurnali, 4(2), 70-75.
18. Brown, N. C. C., & Wilson, G. (2022). Ten quick tips for teaching programming. PLOS Computational Biology, 18(5), e1009982.

TA'LIM JARAYONIDA GOOGLE XIZMATLARIDAN FOYDALANISH

M.R.Allaberganova¹, S.M.Abdullayeva², G.O.Zaripova³

¹ TATU Urganch filiali "Raqamli ta'lim texnologiyalari" kafedrası katta o'qituvchisi amuyassa83@gmail.com

² TATU Urganch filiali talabasi sojidaabdullayeva44@gamil.com

³ TATU Urganch filiali talabasi, zaripovagulshanoy1@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida Google xizmatlaridan foydalanishning ahamiyati, imkoniyatlari va samaradorligi haqida so'z yuritiladi. Google xizmatlari ta'lim berish va o'rganish jarayonlarini modernizatsiya qilishga yordam beradi, o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida samarali muloqotni ta'minlaydi.

Kalit so'zlar: Google xizmatlari, ta'lim texnologiyalari, onlayn ta'lim, raqamli o'qitish.

Abstract: This article discusses the importance, possibilities and effectiveness of using Google services in the educational process. Google services help modernize teaching and learning processes, provide effective communication between teachers and students.

Keywords: Google services, educational technologies, online education, digital education.

Аннотация: В данной статье рассматривается важность, возможности и эффективность использования сервисов Google в образовательном процессе. Сервисы Google помогают модернизировать процессы преподавания и обучения и обеспечить эффективное общение между преподавателями и учениками.

Ключевые слова: сервисы Google, образовательные технологии, онлайн-образование, цифровое образование.

KIRISH

Zamonaviy ta'lim jarayoni raqamli texnologiyalar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ulardan biri Google xizmatlaridir. Google ta'lim tizimini qo'llab-quvvatlash uchun keng qamrovli xizmatlarni taqdim etadi. Bu xizmatlar o'qituvchilar va o'quvchilar uchun yangi imkoniyatlar yaratadi.

Google xizmatlaridan foydalanish imkoniyatlari:

1. Google Classroom

Google Classroom ta'lim jarayonini tashkil etish va boshqarish uchun ideal platforma hisoblanadi. U darslarni rejalashtirish, topshiriqlarni tayyorlash va baholash jarayonlarini avtomatlashtirish imkonini beradi. Shu bilan birga, o'quvchilar o'zlashtirish jarayonlarini mustaqil ravishda kuzatib borish imkoniga ega.

2. Google Meet

Onlayn darslarni tashkil etishda Google Meet xizmati keng qo'llaniladi. U orqali o'quvchilar bilan real vaqt rejimida muloqot qilish, video konferensiyalar o'tkazish mumkin. Bu xizmat ko'p sonli ishtirokchilarni birlashtiradi va onlayn ta'limni qo'llab-quvvatlaydi.

3. Google Docs, Sheets, va Slides

Hujjatlar, elektron jadvallar va taqdimotlarni yaratish va ulardan foydalanish Google Docs, Sheets va Slides xizmatlari yordamida amalga oshiriladi. Bu xizmatlar jamoaviy ishlash imkoniyatini ham beradi. O'quvchilar birgalikda ishlash jarayonida fikr almashish, loyiha va taqdimotlarni birgalikda tayyorlash imkoniga ega.

4. Google Drive

Ma'lumotlarni saqlash va almashish uchun Google Drive eng qulay xizmatlardan biridir. U katta hajmdagi ma'lumotlarni bulutga yuklash, boshqarish va ulash imkoniyatini ta'minlaydi. O'quvchilar va o'qituvchilar bir xil hujjatlarni turli qurilmalarda istalgan vaqtda ochib ko'rishlari mumkin.

5. Google Forms

So'rovnomalar va testlarni yaratish uchun Google Forms xizmati qo'llaniladi. U avtomatik natija chiqarish funksiyasiga ega bo'lib, o'quvchilar bilimini tezkor baholashda yordam beradi. Shuningdek, test natijalarini tahlil qilish va hisobot tayyorlash imkoniyatini ham taqdim etadi.

6. Google Sites

Google Sites orqali o'qituvchilar ta'lim resurslari, dars rejalarini yaratish va ulardan foydalanish uchun maxsus veb-saytlar tayyorlashi mumkin. Bu platforma ta'lim jarayonini interaktiv va qiziqarli qiladi.

7. Google Keep

Google Keep eslatmalar va topshiriqlar ro'yxatini yaratish uchun qulay vositadir. Bu xizmat o'qituvchilar va o'quvchilarga kundalik vazifalarni boshqarish va ta'limiy rejalarni tuzishda yordam beradi.

Google Xizmatlarining Afzalliklari

Raqamli qulaylik: Google xizmatlari ta'lim jarayonini onlayn tarzda olib borishga imkon beradi. Masofaviy ta'lim platformalari orqali o'qituvchilar darslarni rejalashtirishi, o'quvchilar esa internetga ulanish orqali istalgan joydan bilim olishlari mumkin. Bu ta'lim jarayonining uzluksizligini va o'zlashtirishni yaxshilaydi.

Jamoaviy ishlash: O'qituvchi va o'quvchilar hujjatlar ustida birgalikda ishlashlari mumkin. Google Docs, Sheets va Slides xizmatlari yordamida guruh loyihalari, taqdimotlar va hisobotlarni yaratish jarayoni real vaqt rejimida amalga oshiriladi. Har bir foydalanuvchi o'z hissasini qo'shishi, tahrirlarni kuzatishi va o'zgarishlarni izohlashi mumkin.

Interaktiv ta'lim: Videokonferensiyalar va interaktiv topshiriqlar o'quv jarayonini qiziqarli qiladi. Google Meet orqali jonli darslarni o'tkazish, Jamboard orqali esa interaktiv taqdimot va muhokamalarni tashkil etish mumkin. Shu bilan birga, Google Forms orqali tezkor testlar va so'rovnomalar o'tkaziladi.

Ma'lumotlarni xavfsiz saqlash: Bulutli saqlash xizmati ma'lumotlarning yo'qolishini oldini oladi. Google Drive ta'lim jarayonida yaratilgan barcha hujjatlar, taqdimotlar va loyihalarni xavfsiz saqlashni ta'minlaydi. Hujjatlar avtomatik tarzda saqlanadi va ularga har qanday qurilmadan kirish mumkin.

Moslashuvchanlik: Har qanday qurilmadan foydalanish imkoniyati mavjud. Google xizmatlari kompyuterlar, planshetlar va smartfonlar orqali qulay foydalanish imkonini beradi. Uskunalarining moslashuvchanligi ta'lim jarayonini doimiy va uzluksiz olib borishga yordam beradi.

Google xizmatlaridan foydalanishda e'tibor qaratiladigan jihatlar

Texnik imkoniyatlar: Internetga ulanish sifati va kompyuter qurilmalari imkoniyatlarini inobatga olish lozim. Past tezlikdagi internet yoki eski qurilmalar ta'lim jarayonini sekinlashtirishi mumkin. Texnik jihatlarni oldindan rejalashtirish kerak.

Maxfiylik va xavfsizlik: Ma'lumotlarni himoyalash bo'yicha zarur choralar ko'rilishi kerak. Kuchli parollar, ikki bosqichli autentifikatsiya va xavfsizlik sozlamalarini yoqish orqali ma'lumotlarni ruxsatsiz kirishlardan himoya qilish zarur.

Ta'limni individuallashtirish: Har bir o'quvchining o'ziga xos xususiyatlarini hisobga olgan holda xizmatlardan foydalanish muhim. Google Classroom o'quvchilarga individual topshiriqlar berish va ularning rivojlanishini kuzatish imkonini beradi.

О'quvchilarni qo'llab-quvvatlash: Yangi texnologiyalardan foydalanishda o'quvchilarga yordam ko'rsatish zarur. O'qituvchilar uchun qo'llanmalar va tushuntirish darslarini tashkil etish, shuningdek, texnik qo'llab-quvvatlash xizmatlarini yo'lga qo'yish tavsiya etiladi.

Xulosa

Google xizmatlari ta'lim jarayonini interaktiv, qulay va samarali qiladi. Ular zamonaviy o'quv-uslubiy jarayonlarni modernizatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi va ta'lim sifati va samaradorligini oshiradi. O'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi hamkorlikni kuchaytirish, ta'lim resurslarini ulash va bilim olish jarayonini yangi bosqichga ko'tarishga yordam beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. **Jalolov, J. (2020).** Ta'lim texnologiyalari va ularning amaliy qo'llanilishi. Toshkent: O'zbekiston Respublikasi Ta'lim Vazirligi.
2. **Mayer, R.E. (2009).** Multimedia Learning. Cambridge University Press.
3. **Biggs, J., & Tang, C. (2011).** Teaching for Quality Learning at University. Open University Press.
4. **UNESCO (2023).** Ta'lim va ta'lim tamoyillari bo'yicha rasmiy hisobotlar. unesco.org

MUSTAQIL O'ZBEKISTONNI RIVOJLANTIRISHNING MA'NAVY AXLOQIY NEGIZLARI

Hayrullo Ikromov Orifjonovich

Ijtimoiy gumanitar fanlar o'qituvchisi

Xabibullayev Nasrullo Ahmadillo o'g'li

*ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari huquq ta'lim
yo'nalishi 3 – bosqich talabasi.*

Annotatsiya: Ushbu maqolada O'zbekistonnig mustaqillikka erishgani va mustaqillikka erishgan so'ng qilingan ishlar ma'naviyatimiz qadryatlarimiz, urf – odatalarimiz, an'analarimiz va birinchi prezidentimizning Mustaqillik haqida bildirgan fikrlari bilan tanishishingiz mumkin bo'ladi.

Kalit so'zlar: Mustaqillik, ma'naviyat axloq, vatanni sevish, ilm, vatanga sadoqat, mehr – oqibatlilik, ta'lim tarbiya.

Аннотация: в этой статье вы сможете ознакомиться с ценностями, обычаями традициями и мнениями первого президента Узбекистана о независимости и о том, что было сделано после обретения Узбекистаном независимости.

Ключевые слова: независимость, духовность, нравственность, любовь к родине, наука, преданность Родине, доброта, воспитание.

Annotation: in this article, you will be able to get acquainted with the values of our spirituality traditions, traditions and opinions expressed by the first president about independence of Uzbekistan and the work done after independence.

Keywords: Independence, spirituality morality, love of the motherland, science, loyalty to the motherland, kindness, educational upbringing.

O'zbekiston Respublikasi 1991-yil 31-avgustda Mustaqillikka erishgan. O'zbekiston Respublikasining asosiy milliy bayrami – Mustaqillik kunidir. Ushbu bayram 1 sentyabr kuni marosimli va rang barang shaklda nishonlanadi. Milliy bayram do'stlik, xayriya va har tomonlama xurmatga tayangan o'zbek xalqining barcha orzularini nomoyon etadigan bayramdir. O'zbekistonda istiqomat qilayotgan turli millatlar vakillari millatiga, diniga va kelib chiqqan irqiga qaramasdan O'zbekistonning barcha hududlarida faol nishonlaydilar. Mustaqillik mas'uliyati. O'zbekiston Respublikasining birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma'naviyat masalalariga alohida e'tiborlari Insonlar ongidagi eski mafkura asoratlaridan qutulish muammosi va yangicha tafakkur zarurati. O'zbekistonning siyosiy va iqtisodiy rivojida xalq ma'naviyatini yuksaltirishning ahamiyati beqiyos edi. I.A.Karimov

asarlarida ishlab chiqilgan mustaqil O'zbekistonning siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy rivojlantirish kontsepsiyasi va uning tadrijiy harakterlari, ma'naviyatning yaxlit soha sifatida tan olinishi, bugungi kunda milliy ma'naviyatimiz asoslarini ilmiy-nazariy o'rganish zaruratidir. Ma'naviyat insonning ijtimoiy-madaniy mavju-dot sifatidagi mohiyatidir, ya'ni insonning ezgulik, mehr-muruvvat, adolat, to'g'rilik, vijdon, or-nomus, vatanparvarlik, go'zallikni sevish, undan zavqlanish, yovuzlikka nafrat, iroda, matonat va shu kabi ko'plab asl insoniy xislatlari va fazilatlarining uzviy birlik, mushtaraklik kasb etgan tizimidir hamda ularni yaratish jarayonidir. Ushbu xislat va fazilatlar hayvonot uchun xos emas. Ammo ularning muqobillari - axloqsizlik, g'araz, hasad va hokazolar ham hayvonlarda uchramaydi. Keyingilar ma'naviyatga emas, balki ma'naviyatsizlikka aloqador. Demak, ma'naviyat bu shunchaki insonga xos belgilar yig'indisi emas, balki ijobiy xislatlar, fazilatlar majmuidir. Inson ongli faoliyatining, tafakkur salohiyatining har qanday shakli ma'naviyat bo'la olmaydi. Inson ruhiy olamidagi muayyan ijobiy ijtimoiy ahamiyat kasb eta oladigan fazilatlarga ma'naviyat deb ataladi. Ushbu muammoni hal qilishda erishilgan yutuqlar va mavjud muammolar, islohotlar va ularning ma'naviy mezonini, mustaqillik davrida ajdodlarimiz ma'naviy merosiga munosabatning tubdan o'zgarishi. Milliy va diniy qadriyatlarimizning tiklanishi. Buyuk ajdodlarimiz, xalqimizning suyuqli farzandlari xotiralarini yodlash - yosh avlodni milliy g'urur va milliy iftixor ruhida tarbiyalashning ta'sirchan vositalaridan biridir. «Tarixiy xotirasiz kelajak yo'q» deb aytadi: O'zbekiston Respublikasining birinchi prezidenti I.A. Karimov.

2002 yil 29 avgust Oliy Majlisning 9-sessiyasida Prezidentimiz Islom Karimov "O'zbekistonda demokratik o'zgarishlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati asolarini shakllantirishning asosiy yo'nalishlari" maruzasida jamiyatni ma'naviy yangilash lozimligi tushunchasini mohiyatani ochib beradi. "Barcha islohatlarning bosh yo'nalishi va samaradorligi pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir" deb bu masalaga alohida e'tibor qaratgan edilar. Inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqali demokratik jamiyatni barpo etish mumkin. Birinchi Prezidentimiz bu masalaga diqqat bilan, "Buyuk ajdodlarimizning beqiyos ma'naviy merosi ming yillik tariximiz va madaniyatimizga asoslangan ma'naviy hayotimizni tiklay boshladik. Dinimiz, tilimizga qaytdik, milliy urf-odatlarimiz va an'analarimiz, xullas inson ma'naviyatiga daxldor barcha boyliklarimiz qaytadan qad rostlamoqda".¹

Barkamol shaxs-demokratik jamiyat tushunchasidir. Ma'naviy barkamol inson haqidagi ijtimoiy – siyosiy qarashlar, falsafiy fikrlar tarixda kecha paydo bo'lgan emas. Uning tarixiy ildizlari SHarq mutafakkirlari ijodiy, falsafiy ta'limotlariga borib

¹ O'zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimov «Yuksak ma'naviyat – Yengilmas kuch» asaridan.

taqaladi. SHu sababli “Biz sog’lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog’lom kishi deganda faqat jismoniy sog’lomlikni emas, balki sharqona axloq-odob va umumbashariy g’oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz” degan edi : birinchi prezidentimiz I.Karimov. Prezidentimiz bu borada komil insonga ta’rif berib, ongi yuksak, mustaqil fikrli, xulq atvori bilan ibratli, bilimli, ma’rifatli kishini tushunishini bayon etgan edilar. SHU boisdan ham jamiyatning ma’naviy yangilanishi demokratik jamiyat barpo etish omilidir. Milliy-ma’naviy negizlarni bilish uchun tarixni, milliy o’zlikni anglash ham zarur, chunki xalq ma’naviyatning asosidir. Darhaqiqat, demokratiya har bir inson uchun oliy qadryatga, jamiyatning boyligiga aylanmog’i lozimdir. Bu siz u shunchaki nazariya yoki qog’ozda qolgan qonunligicha qoladi, xolos. “Barcha islohotlarimizning bosh yo’nalishi va samaradorligining pirovard natijasini belgilab beradigan inson omili va mezonidir”. Negaki, bozor iqtisodiyotini barpo etish birdan-bir maqsad emas. Barcha islohotlar – iqtisodiy, demokratik, siyosiy islohotlardan ko’zlangan pirovard maqsad insonning mehnat, ijodiy va ma’naviy imkoniyatlarini ro’yobga chiqarishdan iborat. «SHu sababli ta’kidlagan edi , birinchi prezidentimiz I. A. Karimov – jamiyatning sifat jihatidan yangi holatga o’tishida bizga islohot chog’ida odamlar moddiy ahvoli keskin yomonlashadigan, axloqiy qadryatlar, ma’naviy tayanchlar barbod bo’ladigan, o’tish davrining barcha qiyinchiliklari aholining yelkasiga tushadigan andoza maqbul emas». Binobarin, eng avvalo, erkin fikrlaydigan odamgina o’z Vatanining haqiqiy farzandiga aylanishi mumkin bo’ladi. Chunki tafakkur ozod bo’lmasa, ong shunday tazyiqdan qullikdan qutilmasa, inson to’la ozod bo’lolmaydi. Inson ozod emas ekan - jamiyat demokratik tamoyillarni qabul qilmaydi. Demak, inson manfaatlarini amalga oshirish uchun zarur sharoit, imkoniyat yaratish orqaligina demokratik jamiyatni barpo etish mumkin. O’zbekiston Prezidenti I.A.Karimov tomonidan ishlab chiqilgan mustaqillik ma’naviyatining tayanch qoidalari, milliy ma’naviyatimizning teran tomirlari, mustaqillik davrida ajdodlarimiz ma’naviy merosiga munosabatning tubdan yangilanishi demakdir. Mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab muntazam davom etib kelayotgan qutlug‘ an’ana – ulug‘ bobolarimiz, dunyoga dong taratgan, jahon jamoatchiligi allaqachon o’z muqaddas mulki deb tan olgan ma’naviy meros sohiblarining yubileylarini mamlakat va jahon miqyosida nishonlash haqidagi farmonlar va ularning ijrosi ayni shu masalalardandir. Ajdodlarimiz tafakkuri va dahosi bilan yaratilgan eng qadimgi toshyozuv va bitiklar, xalq og’zaki ijodi namunalaridan tortib, bugungi kunda kutubxonalarimiz xazinasida saqlanayotgan ming-minglab qo’lyozmalar, ularda mujassamlashgan tarix, adabiyot, san’at, siyosat, axloq, falsafa, tibbiyot, matematika, mineralogiya, kimyo, astronomiya, me’morlik, dehqonchilik va boshqa sohalarga oid qimmatbaho asarlar bizning buyuk ma’naviy boyligimizdir.

Xulosa o'rnida shuni aytmog'chimanki Mustaqil O'zbekiston jahonning eng ma'rifatli mamlakatlari orasida barqaror rivoj topishi, milliy iftixor tuyg'usi bilan yo'g'rilgan, ammo millatchilik va milliy mahdudlikdan holi, hur va erkin fikrlovchi shaxslarni tarbiyalashga interfaol usullardan foydalanib bo'lsa ham hissa qo'shmog'imiz va bu yo'lda tinim bilmay harakat qilmog'imiz kerakdir .

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. I.A. Karimov Milliy istiqlol mafkurasi – xalq e'tiqodi va buyuk kelajakka ishonchidir. –T: O'zbekiston ,1998. – B. 13-14
2. Karimov I.A. «Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch» .- T.:Ma'naviyat, 2008. – B.134.
3. «O'zbekiston Prezidenti I.A. Karimov asarlaridan ma'naviy va ma'rifiy masalalarga bo'lgan munosabat» bitiruv –malakaviy ishi, N.T. Narbayeva,Toshkent -2014, -B 22.
4. O.A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova “ Inson huquqlari” o'quv qo'llanmasi
5. Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari:Darslik, I-qism. – T., 2010.
6. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
7. Икромов, Х. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБІЙВАТАНПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОИЙФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(9), 102-107.
8. Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych , 91 (1), 2022-2026.
9. Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi , (9-10-1), 259-260.
10. Yusupova, S. va Norinova, D. (2023). YOSH AVLOD TARBIYASIDA “TA'LIM” FANINI O'QITISH VA O'QITISH TUSHUNCHASINING O'RNII. Fan va innovatsiyalar , 2 (B6), 98-101.
11. Nizomtdinovna, Y. S. (2022). Farg'ona vodiysidagi tarixiy demografik jarayonlar. Miasto Przyszłości , 24 , 546-548.
12. Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNII. Talqin va katta , 1 (24).
13. Poziljonov, J. (2024). TURKISTON JADIDLARI IJTIMOIFYALSAFIY TA'LIMOTINING KELIB CHIQISH OMILLARI. Sharh va tadqiqotlar , 2 (1 (23)).
14. Qosimbek o'g'li, PJ (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O 'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO 'NALTIRILGAN TARG 'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATIONNYE IDEI V MIRE , 20 (7), 39-42.
15. Poziljonov, J. (2023). Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyani isloh qilishdagi o'rni. TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY-USLUBIY JURNALI .
16. Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va katta , 1 (1).

JINOYAT HUQUQI TUSHUNCHASI VAZIFALARI VA PRINSIPLARI

Hayrullo Ikromov Orifjonovich

Ijtimoiy gumanitar fanlar o'qituvchisi

Xabibullayev Nasrullo Ahmadillo o'g'li

*ADPI Milliy g'oya va ma'naviyat asoslari huquq ta'lim
yo'nalishi 3- bosqich talabasi*

Annotatsiya: ushbu maqolada jinoyat huquqining tushunchasi va vazifalari har bir shaxsning huquq va erkinliklari, tengligi, jinoiy tajaovuzlardan qo'riqlash jinoyatlarni oldini olish, fuqarolarning qonun oldida tengligi, javobgarlikning muqarrarligi singari vazifalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: Jinoyat, javobgarlik, demokratizm, insonparvarlik, qonuniylik, odillik, ayb uchun javobgarlik.

Annotation: in this article, the concept and tasks of criminal law include such tasks as the rights and freedoms of each person, equality, the Prevention of criminal offenses, the equality of citizens before the law, the inevitability of responsibility.

Keywords: crime, responsibility, democratization, humanity, legality, Justice, responsibility for guilt.

Аннотация: понятие и задачи уголовного права в данной статье охватывают такие задачи, как защита прав и свобод каждого человека, равенство, защита от преступных посягательств, предупреждение преступлений, равенство граждан перед законом, неотвратимость ответственности.

Ключевые слова: преступность, ответственность, демократизм, гуманность, законность, справедливость, ответственность за вину.

O'zbekiston Respublikasida zamonaviy huquq tizimining tarkibiy qismi bo'lgan jinoyat huquqi huquqning alohida mustaqil sohasi sifatida o'rganiladi. Shunga ko'ra, jinoyat huquqi o'zining predmeti, metodlari va vazifalari bilan boshqa huquqiy fanlardan ajralib turadi.

Jinoyat huquqi - huquq tizimining bir tarmog'i oliy davlat hokimiyati organi tomonidan o'rnatilgan, qonun bilan qo'riqlanadigan, ijtimoiy munosabatlar uchun xavfli bo'lgan tajovuzlarning jinoyat ekanligi va jazoga loyiqqligini, jazo choralari tayinlash shartlari va tartibini hamda jinoiy javobgarlikdan va jazodan ozod qilishni belgilaydigan huquqiy me'yorlar yig'indisi hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasida Jinoyat huquqining asosiy manbai O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi va jinoyat qonunidir. Jinoyat huquq jinoyat qonunining amalda tatbiq qilinishidan kelib

chiqadigan munosabatlarni o'rganadi, jinoiy javobgarlik asoslari va tamoyillarini belgilaydi. Jinoyat huquqining vazifalari shaxsni, uning huquq va erkinliklarini, jamiyat va davlat manfaatlarini, mulkni, tabiiy muhitni, tinchlikni, insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, shuningdek, jinoyatlarning oldini olishdan, fuqarolarni Konstitutsiya va qonunlarga rioya qilish ruhida tarbiyalashdan iborat. Jinoyat huquqi davr talabidan kelib chiqqan holda qonuniylik, fuqarolarning qonun oldidagi tengligi, demokratizm, insonparvarlik, odillik, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarliligi qoidalariga asoslanadi. Jinoyat huquqi 2 qismdan iborat. Bular: Umumiy qism va Maxsus qism. Umumiy qism Jinoyat huquqining vazifalari va tamoyillarini amalda qo'llanish doirasi, javobgarlikning asoslari, jazo turlari va ularni tayinlash, javobgarlikdan va jazodan ozod qilish, voyaga yetmaganlar javobgarligi va tibbiy yo'sindagi majburlov choralari to'g'risidagi masalalarni o'z ichiga oladi. Umumiy qismda 7 bo'lim 17 bob 96 ta modda bor. Maxsus qism esa alohida jinoyatlar va shu jinoyatlar uchun tayinlanadigan jazolarni o'z ichiga oladi. Maxsus qismda 8 bo'lim 26 bob va 206 ta modda bor. Jinoyat huquqi fani jinoyat qonunchiligining ijtimoiy vazifalari va ijtimoiy samaradorligini, rivojlanish tamoyillari va muammolarini ham o'rganadi.

1. Jinoyat huquqi qonunchilik sohasi sifatida davlatning oliy qonun chiqaruvchi organi – Oliy Majlis chiqargan qonun va normalar yig'indisidan iborat bo'lib, u jinoiy javobgarlik asoslari va prinsiplari, ayrim qilmishlarning jinoiyligi va jinoiy jazoga loyiqligi, jinoiy javobgarlikka tortish va jinoiy jazodan ozod qilish asoslari va meyorlari, jinoyat huquqiga oid ta'sirning jinoiy jazo hisoblanmaydigan hamda jinoyat huquqiga oid munosabatlar doirasida ijobiy va ijtimoiy foydali xulq-atvorni rag'batlantiruvchi boshqa ta'sir choralari qo'llashni belgilaydi. Mazkur tushuncha jinoyat huquqini huquq sohasi sifatida tushunishdan birmuncha torroq ma'noga ega bo'lib, davlat va jinoyatchi shaxs o'rtasidagi munosabatdir.

2. Jinoyat huquqi fanining asosiy vazifasi jinoyat qonunchiligini qo'llashning, keyinchalik uni takomillashtirishning amaliy va nazariy muammolarini ishlab chiqish, uning samaradorligini oshirish, jinoyatga oid huquqiy siyosatni samarali amalga oshirish uchun jinoyat qonunchiligini kelajakda rivojlanishini ta'minlashdan iborat. Jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlar mazmuni Jinoyat kodeksining 2-moddasidagi vazifalarni shart qilib qo'yadi. Jinoyat huquqining vazifalari sifatida shaxs, uning huquq va erkinliklari, jamiyat va davlat manfaatlari, mulk, tabiiy muhit, tinchlik hamda insoniyat xavfsizligini jinoiy tajovuzlardan qo'riqlash, jinoyatlarning oldini olish, fuqarolarni O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiya va qonunlariga rioya etish ruhida tarbiyalashni nazarda tutadi.

3. Jinoyat huquqining prinsiplari. Jinoyat huquqi prinsiplari jinoyat qonunida mustahkamlangan hamda demokratik davlatning jinoyat huquqiga oid siyosatining mohiyati, hozirgi zamon prinsiplarini ifodalaydi. Jinoyat huquqi prinsiplari ; qonun ustuvorligi, ijtimoiy adolatlilik, insonparvarlik, demokratizm, fuqarolarning qonun oldida tengligi, ayb uchun javobgarlik, javobgarlikning muqarrarliligi, umuminsoniy qad- riyatlar hamda umum e'tirof etgan xalqaro huquq normalarining ustunligi va O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida mustahkamlangan boshqa shu kabi prinsiplarga asoslanadi. Ayni paytda, har bir prinsip muayyan huquqiy sohani tartibga solish usuli, ijro etuvchi vazifalari bilan belgilanadigan o'ziga xos mazmunga ega. Mazkur prinsiplar Jinoyat kodeksining 3- moddasida mustahkamlangan bo'lib, ularning barchauchun majburiy mohiyati ochib berilgan. Binobarin, ular kishilarning huquqiy ongini tartibga solish bilan bog'liq ta'sir ko'rsatish hamda qonun chiqarish va qonunni qo'llash faoliyatini yanada rivojlantirish uchun huquqiy zamin bo'lib xizmat qiluvchi omil hisoblanadi.

4. Qonuniylik prinsipi . Jinoyat huquqidagi qonuniylik prinsipi turli mazmun va ko'ptaraflama ahamiyatga ega. Mazkur prinsip quyidagilarni bildiradi: qilmishning jinoyligi faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi; jazo va boshqa huquqiy oqibatlar faqat Jinoyat kodeksi bilan belgilanadi; Jinoyat kodeksi jinoyat huquqi uchun yagona manba hisoblanadi; shaxsning jinoyatni sodir etishdagi aybdorligi faqat sud tomonidan belgilanadi; jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari faqat sud qo'llaydi; jinoyat sodir etishda aybdor hisoblangan shaxsning huquqiy holati faqat qonun bilan belgilanadi; huquqni qo'llovchi barcha idoralar jinoyat qonunining mazmunini o'z vakolatlari doirasida va Jinoyat kodek-sida ko'rsatilgan aniq matnga muvofiq sharhlashga majburdirlar. Jinoyat kodeksining jinoyat qonuni uchun yagona manba deb tan olinishi jinoyat va jazoning o'xshashligi institutini to'liq inkor qiladi. Huquqni qo'llovchi idoralar faqat Jinoyat kodeksida ko'rsatilgan qilmishlarnigina jinoyat deb tan olishlari lozim.

5. Fuqarolarning qonun oldida tengligi prinsipi. Bu huquqiy prinsip, avvalo, jinoyatlarni sodir etganligi tufayli jinoyat huquqi bilan tartibga solinadigan munosabatlar doirasiga kirib qolgan kishilar huquq va burchlarining yuridik tengligini mustahkamlashning sharti hisoblanadi. Mazkur tenglik prinsipining mohiyati shundan iboratki, jinoyat qonunining taqiqlari yoki yo'l-yo'riqlariga rioya qilmagan barcha shaxs- larning jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e'tiqodi, shaxsi va ijtimoiy mavqeidan qat'i nazar, to'liq hajmda ana shu huquqbuzarlik uchun ko'zda tutilgan javobgarlikka tortishning yagona asosi uning Jinoyat kodeksida ko'zda tutilgan jinoyat tarkibining barcha alomatlari mavjud bo'lgan xatti-harakatni sodir etganligidir

6. Demokratizm prinsipi .O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 7-moddasiga muvofiq, xalq davlat hokimiyatining birdan-bir manbaidir. Shu boisdan ham demokratizm davlatimiz tuzilishi va faoliyatining eng muhim prinsipi bo‘lib, u avvalo, O‘zbekiston Respublikasining fuqarolari jamiyat va davlat ishlarini boshqarishda bevosita hamda o‘z vakillari orqali ishtirok etish huquqiga ega ekanliklarida, bunday ishtirok etish o‘zini o‘zi boshqarish, referendumlar o‘tkazish va davlat organlarini demokratik tarzda tashkil etish bilan amalga oshirishda namoyon bo‘ladi. Mazkur umumiy huquqiy prinsip huquqning turli sohalarida aks etganidek, jinoyat huquqida ham muayyan tarzda o‘z ifodasini topadi.

7. Insonparvarlik prinsipi . Insonparvarlik insonni shaxs sifatida tan olishni, uning qadr-qimmatini hurmat qilishni va farovonligini oshirib borishga intilishni ijtimoiy taraqqiyotning maqsadi sifatida izohlaydigan axloqiy prinsipdir. Mazkur axloqiy prinsip O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining muqaddimasidayoq qayd etilgan bo‘lib, unda jamiyatni rivojlantirishning asosiy vazifasi sifatida insonparvar demokratik huquqiy davlatni qurish e‘lon qilinadi.

8. Odillik prinsipi . «Odillik» falsafiy-axloqiy tushuncha bo‘lib, ijtimoiy hodisalarga yoki kishilarning xatti-harakatlariga jamiyat,davlat yoki ayrim shaxslarning munosabatlarini ifodalaydi. Shunga ko‘ra,jinoyat huquqida odillik jinoyatchilikka va ayrim kishilar sodir etadigan muayyan jinoyatlarga ijtimoiy-salbiy hodisa sifatida munosabatda bo‘ladi.Jinoyatchilik va uning muayyan ko‘rinishlariga qonun chiqaruvchining munosabati jinoyat deb tan olinadigan xulq-atvorlarda nazarda tutilgan jinoiy harakat uchun tanlanadigan adolatli jazo choralaridagina emas, balki mazkur darajani qonunning boshqa normalari sanksiyalari bilan solishtirganda ham aniqlanadi.

9. Ayb uchun javobgarlik prinsipi . Aybdorlik har qanday jinoyatning zaruriy belgisidir. Shunga ko‘ra, shaxsning sodir etadigan ijtimoiy xavfli qilmishlari va ularning oqibatlariga ruhiy munosa- batlarning shakli, ya’ni qasd yoki ehtiyotsizlik jinoiy javobgarlikning asosi bo‘lgan jinoyat tarkibining muhim belgisidir. Kodeksda ayb uchun javobgarlik qoidasining mustahkamlanishi, avvalo, davlatimizning subyektiv ayblilik prinsipiga rioya qilishini bildiradi. Mazkur qoida obyektiv ayblilikning, ya’ni aybsiz javobgarlikka tortishning mumkin emasligini belgilaydi.

10. Javobgarlikning muqarrarlighi prinsipi Jinoiy-huquqiy javobgarlikning muqarrarlighi prinsipi jinoyat sodir etgan har bir shaxsning mazkur jinoyat uchun javobgar ekanligini ifodalaydigan asosiy qoidadir. Javobgarlik chorasi Jinoyat kodeksining odillik va boshqa prinsiplariga asosan belgilanadi. Mazkur prinsipning Jinoyat kodeksida belgilanishining sababi shundaki, u fuqarolarga qaratilgan bo‘lib, mohiyatiga ko‘ra, jinoyat sodir etilgan paytdan boshlab shaxs va davlat o‘rtasida vujudga keladigan jinoiy-huquqiy munosabatlardan kelib chiquvchi majburiyatlardan

birini mustahkamlaydi. Qilmishida jinoyat tarkibi mavjud bo'lgan har bir shaxs javobgarlikka tortilishi shart, degan qoida Jinoyat kodeksining 2- moddasida ko'rsatilgan vazifalarni bajarishga qaratilgandir.

Har bir fuqaroning ko'zda tutilgan huquqiy majburiyatlarni bajarish darajasi bevosita jamiyatda inson huquq va erkinliklariga rioya qilish darajasiga bog'liqdir. Bu esa, o'z navbatida, huquqiy va nohuquqiy harakatlar nisbatidan kelib chiqadigan qonuniylik darajasini aniqlashga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Jinoyat kodeksi O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va xalqaro huquqning umum e'tirof etgan me'yorlariga asoslangan holda ishlab chiqilgan. Hozirgi Jinoyat Kodeksi 1994-yil 22- sentabrda tasdiqlangan va 1995-yil 1-apreldan amalga kiritilgan.

Xulosa qilib aytganimizda jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralari shaxslarga jismoniy azob berishi yoki inson qadr- qimmatini kamsitish maqsadini ko'zlamaydi. Jinoyat sodir etgan shaxsga nisbatan u axloqan tuzalishiga yangi jinoyatlar sodir etishning oldini olish uchungina qo'llanadi. Jinoyat sodir etishda aybdor deb topilgan shaxs qonunda belgilangan huquqlardan foydalanadi va majburiyatlarini bajaradi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1 O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi 2023-y
- 2 Bola huquqlari to'g'risida konvensiya
- 3 O.A.Tadjibayev, K.R.Ramazonova " Inson huquqlari" o'quv qo'llanmasi
- 4 Raxmonqulov H.R Fuqarolik huquqi va muammolari: Darslik, I-qism. – T., 2010.
- 5 Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va tadqiqotlar, 1(1).
- 6 Икромов, Х. О. (2023). ЎЗБЕКИСТОНДА ҲАРБІЙВАТАНПАРВАРЛИК ҲАРАКАТИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЖТИМОИЙФАЛСАФИЙ МАСАЛАЛАРИ. GOLDEN BRAIN, 1(9), 102-107.
- 7 Egamberdiyev, A. YOSHLAR FAOLIYATINING FALSAFIY JONLARI. Zbiór artykułów naukowych recenzowanych , 91 (1), 2022-2026.
- 8 Abdumalikovich, E. A. (2018). Uyushmagan yoshlar bilan ishlashning innovatsion usullari. Evropa fanlari sharhi , (9-10-1), 259-260.
- 9 Yusupova, S. va Norinova, D. (2023). YOSH AVLOD TARBIYASIDA "TA'LIM" FANINI O'QITISH VA O'QITISH TUSHUNCHASINING O'RNI. Fan va innovatsiyalar , 2 (B6), 98-101.
- 10 Nizomtdinovna, Y. S. (2022). Farg'ona vodiysidagi tarixiy demografik jarayonlar. Miasto Przyszłości , 24 , 546-548.

11 Egamberdiyev, A., & Poziljonov, J. (2023). JADID MARIFATPARVARLARINING TA'LIM-TARBIYANI ISLOH QILISHDAGI O'RNI. Talqin va katta , 1 (24).

12 Poziljonov, J. (2024). TURKISTON JADIDLARI IJTIMOIFYALSAFIY TA'LIMOTINING KELIB CHIQISH OMILLARI. Sharh va tadqiqotlar , 2 (1 (23)).

13 Qosimbek o'g'li, PJ (2023). JADIDCHILIKNING, JAMIYAT HUQUQIY O 'ZLIGINI SHAKILLANTIRISHGA YO 'NALTIRILGAN TARG 'IBOT MAQSAD MUDDAOSI. OBRAZOVANIE NAUCA I INNOVATSIONNYE IDEI V MIRE , 20 (7), 39-42.

14 Poziljonov, J. (2023). Jadid ma'rifatparvarlarining ta'lim-tarbiyani isloh qilishdagi o'rni. TALQIN VA TADQIQOTLAR ILMIY-USLUBIY JURNALI .

15 Ikromov, X. (2024). HARBIY-VATANPARVARLIK HARAKATI. Talqin va katta , 1 (1).

XALQARO HUQUQDA DAVLAT SUVERENITETI VA ARALASHMASLIK TAMOYILI

Shukurjonov Mo'minjon

*Andijon Davlat Pedagogika institute Milliy goya ma'naviyat asoslari
Va huquq ta'limi yo'nalishi 301-guruh talabasi*

Annotatsiya: Mazkur maqolada xalqaro huquqda davlat suvereniteti va aralashmaslik tamoyilining ahamiyati va uning amaliyotdagi qo'llanilishi tahlil qilinadi. Davlat suvereniteti xalqaro huquqda davlatlarning o'z hududidagi mustaqil boshqaruvini anglatadi va bu tamoyil davlatning ichki ishlariga tashqi aralashuvni rad etadi. Aralashmaslik tamoyili esa, aynan shu prinsipga asoslanadi va davlatlar o'rtasidagi munosabatlarni tartibga soluvchi xalqaro huquqning eng muhim qoidalaridan biridir. Maqolada, aralashmaslik tamoyilining tarixiy rivojlanishi, Birlashgan Millatlar Tashkiloti (BMT) va boshqa xalqaro tashkilotlarning ushbu tamoyilga qanday qarashlari, shuningdek, xalqaro huquqda davlatlar o'rtasidagi aralashuvga ruxsat berilishi kerak bo'lgan holatlar tahlil qilinadi.

Kalit so'zlar: Xalqaro huquq, davlat suvereniteti, aralashmaslik tamoyili, Birlashgan Millatlar Tashkiloti, javobgarlikni himoya qilish (R2P), xalqaro aralashuv, davlatlararo munosabatlar, xalqaro tashkilotlar, inson huquqlari, ekstrateritorial yurisdiksiya, global xavfsizlik, ichki ishlar, siyosiy suverenitet.

